

**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA FAKULTETI  
O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

**“MATN TILSHUNOSLIGI”  
FANIDAN**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

Guliston – 2022

# **“MATN TILSHUNOSLIGI” FANIDAN MA’RUZALAR MATNI**

## **1-MAVZU MATN TILSHUNOSLIGI FANI VA UNING, MAQSADI VA FAZIFALARI**

### **Reja:**

1. Matn shunoslik fani va uning o‘rganish ob‘ekti.
2. Matn shunoslik fanining maqsadi va vazifasi.

**TAYANCH so‘z va iboralar:** magistr, matn, komponentlar, abzats, diskurs, supersintaktik butunlik (SSB), murakkab sintaktik qurilma (MSQ), nutq derivasiyasi, “derivat”, “operand”, “operator” va “hosila”, mikro va makromatn, deyktik ibora va h.

Boshqa fanlar qatori “Matn tilshunosligi” fani ham mamlakati-mizda mustaqillik yillarida onomastika sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar ko‘lami bilan magistrnlarni tanishtiradi hamda badiiy matn, publitsistik matn, rasmiy matn, so‘zlashuv matni kabi matn turlarini to‘plash, sistemalashtirish hamda ularning tarkibiy qismlarini tadqiq etish metodlari haqida etarli ko‘nikma hosil qiladi. Ushbu fan bo‘yicha dastur asosida 70 soat ma‘ruza, 90 soat amaliy mashg‘ulot ajratilgan. “Matn tilshunosligi” fani asosan obzor xarakteriga ega bo‘lib, magistrnlarga matn tilshunosligi tarixiga doir ilmiy-nazariy va amaliy ma‘lumotlar berish nazarda tutilgan. O‘qitish jarayonida magistrnlarga matn, uning komponentlari, abzats, diskurs, supersintaktik butunlik (SSB), murakkab sintaktik qurilma (MSQ) singari tarkibiy qismlarining ilmiy shakllanish tarixi, bunday matn komponentlarining o‘ziga xos lisoniy xususiyatlari, ularning o‘rganilish darajasi haqida etarli ma‘lumot berishdir.

Aniqrog‘i, mazkur maxsus o‘quv kursida maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab olingan:

- «Matn tilshunosligi» fanining maqsad va vazifalarini tushuntirishda “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (leksikologiya), «Tilshunoslik nazariyasi», «Turkiy filologiyaga kirish», «Umumiy tilshunoslik», «Lingvistik ta‘limotlar tarixi» fanlarilar bilan «Matn tilshunosligi» fanining bog‘liqligi haqida qisqacha ma‘lumot beriladi. So‘ng «Matn tilshunosligi» fanidagi o‘rganiladigan quyidagi masalalar talqin etiladi:

- Tilshunoslikda matn va uning turlarining o'rganilish tarixi haqida keng va asosli tushuncha beriladi.
- matn haqida umumiy ma'lumot, uning jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganilish tarixi bilan tanishish;
- mikro va makromatn tushunchalarini bir-biridan farqlay olish;
- murakkab sintaktik qurilma va matn maqomining muvofiqligi va farqli tomonlarini izohlay bilish;
- matn komponentlarining semantik va sintaktik munosabatlarini farqlay bilish;
- matn va nutq derivasiyasi, "derivat", "operand", "operator" va "hosila" singari tushunchalarni hozirgi zamon matn tilshunosligi yutuqlariga tayangan holda izohlay olish;
- o'zbek yozma matnining taraqqiyot bosqichlarini tavsiflay olish va ularning o'zaro farqli tomonlarini ajrata bilish;
- matn turlarining kognitologiyaning tayanch nuqtasi bilan aloqadorligini bilish;
- matnning konsept, ssenariy, skript, freym, geshtalt singari kognitiv hodisalar bilan munosabatini farqlay olish;
- sinergetikaning qonunlariga tayangan holda matn tarkibini kognitiv tahlil qilishi ko'nikmalariga ega bo'lish;
- matnni o'rganishning kommunikativ-pragmatik yo'nalishi va uning asosiy muammolari haqida etarli tasavvurga ega bo'lish;
- deyktik iboralar va deyksisning turlari (shaxs deyksisi, zamon deyksisi, makon deyksisi, emotsional deyksis, sotsial deyksis)ning matnni shakllantirishdagi o'rnini aniq farqlay olish;

Bu fan bo'yicha magistr quyidagilarni *bilishi va foydalana olishi* lozim:

- matn komponentlari va bu komponentlar orasidagi paradigmatic, sintagmatic hamda pog'onali (ierarxik) munosabatlarni izohlay olish;
- matn komponentlarining semantik va sintaktik munosabatlarini farqlay bilish;
- matn strukturasi sintagmalarga bo'linish imkoniyatlarini amalda qo'llay bilish;
- matnning pragmatik xususiyatlari haqida etarli bilimga ega bo'lish;
- matn va nutq derivasiyasi haqida tushunchalarni izohlay olish.

Shu bilan birga magistr “Matn tilshunosligi” (o‘zbek yozma matnining taraqqiyot bosqichlari) fanidan quyidagilar bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘ladi:

- matn tarkibidagi sodda va qo‘shma gap qolipli sintaktik qurilmalarni ajrata bilish;
- sintaktik qurilmalarning matn (yozma yoki og‘zaki, mikro yoki makromatn) maqomini belgilay olish masalasi o‘rganiladi;
- Matn va abzats, matn va diskurs, matn va gap, ularning o‘zaro munosabati, uning hajmi va mazmuni haqida tegishli ilmiy ma’lumotlar berilib, matn turlarini farqlash mezonlari tushuntiriladi;
- Murakkab sintaktik qurilma va uning matn maqomi bilan munosabati aniqlanadi, matn komponentlarining pog‘onali munosabati misollar asosida yoritiladi.
- Matn tilshunosligi va kognitiv tilshunosligini o‘zaro munosabati.
- Matn va nutq derivatsiyasining o‘zaro munosabati, derivatsion jarayonning matn shakllanishidagi o‘rni masalasi kabilar ham qisqacha o‘rganiladi.

“Matn tilshunosligi” fani tilshunoslik fanlari bilan birlikda adabiyotshunoslik, tarix, manbaShunoslik, falsafa, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, bir qator ijtimoiy-tarixiy fanlar bilan uzviy bog‘liq. «Matn tilshunosligi» fanini o‘qitishda aynan shu fanlar yutuqlariga ham asoslaniladi. Masalan, matn turlarini o‘rganishda I.R.Galperin, K.Kojevnikova, T.M. Nikolaeva, R.A.Budagov, A.A.Leontev kabi rus olimlari, M.Hakimov, B.O‘rinboev, M.Yo‘ldoshev, N.Turniyozov, B.Tursunov, S.Boymirzaeva kabi o‘zbek olimlarining ishlari misolida turli fanlarning uzviy bog‘liqligi to‘g‘risida magistrlar muayyan bilimlarga ega bo‘lishlari talab etiladi.

### **Mavzu bo‘yicha savollar**

- 1.“Matn tilshunosligi” fani qaysi sohadagi ilmiy tadqiqotlar ko‘llamiga kiradi?
2. Mazkur maxsus o‘quv kursida maqsadni amalga o‘shirish uchun qanday vazifalarni amalga o‘shiri lozim bo‘ladi?
2. .“Matn tilshunosligi” fani nimalar haqida ma’lumotlar beradi?

## 2-MAVZU

### MATN VA UNING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISH TARIXI HAQIDA

#### Reja:

1. Matnning chet el tilshunosligida o'rganilishi (Matnning nutq kategoriyasi ekanligi masalasi bevosita "nutqiy jarayonning o'zi" va "nutqiy faoliyat natijasi" tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda matnni yozma nutq va og'zaki nutq faoliyat mahsuli sifatida qarashilar). K.Gauzenblaz (chex), I.R.Galper (rus), R.Harveg(nemis), R.Bart (fransuz), M.R.Mayenova (polyak), M.Pfyutse (nemis), A.Boguslavskiy (polyak), T.van Deyk (Amsterdam universiteti olimi), K. Kojevnekova( chex), K.E.Xaydolf (nemis) kabi horijdagi olimlarning matn lingvistikasiga doir fikrlari.

2. XX asrning keyingi 30-40 yillarida rus tilshunosligida ham matn lingvistikasi bo'yicha bir qator salmoqli tadqiqot ishlarining yuzaga kelishi (bajarildi. Mazkur mavzuda A.A.Leontev, Yu.V.Rojdestvenskiy, G.A.Zolotova, M.V.Lyapon, M.A.Leonenko, R.A.Budagov, E.A.Referovskaya, G.Ya.Solganik va boshqa tilshunoslarning ishlari).

3. Matnning ta'rifi va asosiy funksiyasi haqida.

**TAYANCH so'z va iboralar:** matn, matn turlari, dixotomiya, matnning real qo'llanishi, og'zaki nutq, yozma nutq, matnning maxsus qo'llanishi, nutqiy muhit, matn stilistikasi, matn komponentlarining bog'lanishi, matn nutq birligi sifatida, matn kommunikativ birlik sifatida, matnning pragmatik xususiyati, matnda inson omili, matnning reallaShuvida zamon va makon ta'siri.

**1.Matnning chet el tilshunosligida o'rganilishi.** Tilshunoslik fani bugungi kunga qadar ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Bu holat tilning fonologik, morfologik, sintaktik sathlarining har biri bilan bog'liq muammolar talqinida yaqqol ko'zga tashlanadi. Lekin jahon tilshunosligida matn va uning lisoniy tabiatini o'rganish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar XX asrning keyingi 30-40 yillari davomida matn yozma nutq va og'zaki nutq faoliyat mahsuli sifatida kun tartibiga qo'yila boshladi. Bu narsa alohida olingan rus, ukrain, fransuz, nemis, ingliz tilshunosligi kabi bir necha xususiy tilshunosliklar uchungina emas, balki umumnazariy tilshunoslik uchun ham xarakterlidir.

Matnni lingvistik jihatdan tahlil qilishini nimadan boshlamoq kerak va bunda qanday masalalarga asosiy e'tibor qaratilishi lozim, degan savollarga ham hozirgi vaqtda tilshunoslarning berayotgan javoblari bir-biriga unchalik muvofiq kelmaydi. Masalan,

matnning nutq kategoriyasi ekanligini dalillovchi olimlar uning belgilik tabiati nimalardan iborat, matnni nutqiy jarayon deb atash lozimmi yoki uni nutqiy jarayonning natijasi sifatida talqin etish kerakmi, matnni ogʻzaki nutq bilan yoki yozma nutq bilan bogʻlab oʻrganish toʻgʻri boʻladimi, degan muammolarni kun tartibiga qoʻymoqdalar.

Matnning nutq kategoriyasi ekanligi masalasi bevosita “nutqiy jarayonning oʻzi” va “nutqiy faoliyat natijasi” tushunchalari bilan uzviy bogʻliqdir. Chex olimi K.Gauzenblaz matnni ham nutqiy faoliyat maxsuli sifatida, ham nutqiy faoliyat natijasi tarzida ham talqin etadi. Bunda matn yozma nutq va ogʻzaki nutq faoliyat mahsuli sifatida, ogʻzaki nutq (shu jumladan uning magnit tasmasidagi ifodasi ham) nutqiy jarayon deb talqin qilinadi<sup>1</sup>.

Rus tilshunosi I.R.Galperinning talqiniga koʻra, matn har tomonlama mukammal holatga keltirilgan yozma nutq mahsulidir. Ogʻzaki nutq esa turli qaytariqlarni, uzoq-yuluq gaplarni ham oʻz ichiga oladi va shuning uchun uni tekshirish obʻekti boʻla oladigan matn deb eʼtirof etish unchalik maqsadga muvofiq emas<sup>2</sup>.

Matn tahlilini sintaksisda yoki stilistikada oʻrganish lozimmi, yoxud buning uchun “matn tilshunosligi” deb ataluvchi yangi sohani ilmiy asoslash kerakmi, degan savollar ham fanda oʻz echimini kutmoqda. Darhaqiqat, matn lingvistikasi masalasi talqin etila boshlaganiga hali koʻp vaqt boʻlgani yoʻq. Nemis olimi R.Harvegning taʼkidlashiga koʻra, matn tilshunosligining toʻliq asoslanishi uchun hali kamida yuz yil kerak<sup>3</sup>.

Tilshunoslikning gap sintaksisi sohasi oʻtgan asrning 60-yillariga qadar lingvistik tahlilning eng yuqori pogʻonasi, deb hisoblanar edi. Bu oʻrinda polyak olimi M.R.Mayenovaning quyidagi fikrini keltirish ham mumkin: “Yaqin vaqtlarga qadar lingvistik kuzatuvlar gap shakli nihoyasiga etgan erda tugatilar, koʻplab gaplarni oʻz ichiga oladigan matn esa mazkur ilmiy izlanishlar doirasidan chetda qolar edi”<sup>4</sup>.

Maʼlumki, gap tilning eng yuqori pogʻonasini tashkil etuvchi birlik sanaladi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, nutqiy jarayonda gap tilning kichik birliklari jumlasiga kiradi.

---

<sup>1</sup> Гаузенблаз К. О характеристике и классификации речевых произведений // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. – М.: «Прогресс», 1978. – С. 58-59.

<sup>2</sup> Гальперин И.Р. О понятии “текст”// Вопросы языкознания, 1974, № 6. – С. 72.

<sup>3</sup> Харвег Р. Редуцированная речь // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. – М.: «Прогресс», 1978. – С. 389.

<sup>4</sup> Майенова М.Р. Теория текста и традиционные проблемы поэтики // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. – М.: «Прогресс», 1978. – С. 425.

Shunga ko‘ra gapni matnning qurilish materiali tarzida talqin etish, matnni shakllantiruvchi asosiy til birligi deb hisoblash maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Nemis tilshunosi M.Pfyutse ta’kidlaganidek, har qanday matn biror maqsad ifodasi uchun o‘zaro munosabatga kirishayotgan fraza (gap)larning mazmuniga ko‘ra birikishidan tashkil topadi<sup>5</sup>.

Lekin gap matnning qurilish materiali tarzida yuqorida singari talqin etilganda mustaqil so‘z va so‘z birikmasining matn tarzida maxsus qo‘llanishi e’tiborga olinmay qoladi. Aslida esa yakka, alohida olingan gap bog‘lanishli nutq materiali sifatida matn tarkibida so‘z va so‘z birikmalarining o‘zaro munosabati asosida reallashadi. M. Pfyutsening biz yuqorida keltirgan mulohazalarida ham asosiy diqqat masalaning ana shu tomoniga qaratilganligi ayon bo‘ladi.

Taniqli fransuz tilshunosi R.Bart matnni quyidagicha tushunadi: “Ichki bog‘lanishli bo‘lgan, muloqot maqsadida mazmunan o‘zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasini matn deb atash maqsadga muvofiq”<sup>6</sup>.

Umuman, R.Bartning “Matn lingvistikasi” nomli tadqiqoti (1970)da matnning bir necha komponentli turi haqida ma’lumot beriladi. Bu o‘rinda ham olimning asosiy e’tibori kichik, bir gapdan iborat matnga emas, balki “o‘zaro birikkan bir necha gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi” - katta matnga qaratilganligi ayon bo‘ladi. Bunday holat boshqa taniqli tilshunoslar ilmiy faoliyatida ham kuzatiladi. Masalan, polyak tilshunosi A.Boguslavskiy matnni bir necha gapdan tashkil topgan nutqiy material tarzida izohlaydi. Bunda u asosiy e’tiborni muallif nima haqda gapirayotgani va uning mazmuniga emas, balki “o‘zaro birikkan bir necha gaplardan iborat” matn qanday komponentlardan tuzilganligini aniqlashga qaratadi.

T.van Deyk Amsterdam universitetining professori T.van Deyk matn va uning o‘ziga xos tabiatini pragmatika bilan bog‘lab o‘rganadi. Uning tadqiqotlarida asosiy

---

<sup>5</sup> Пфютце М. Грамматика и лингвистика текста // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. – М.: «Прогресс», 1978. – С. 220.

<sup>6</sup> Барт Р. Лингвистика текста // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. – М.: «Прогресс», 1978. – С. 443.

e'tibor matnning kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan edi<sup>7</sup>. T.van Deyk matnning grammatik jihatlarini dastlab logik va analitik falsafa qoidalari bilan bog'lab o'rganishga harakat qilgan edi, keyinchalik u matn semantikasi masalalari bilan jiddiy Shug'ullana boshladi.

T.van Deykning matn semantikasiga jiddiy e'tibor bilan qarashiiga Kaliforniya universiteti professorlari Lakoff hamda Filmorlarning ta'siri katta bo'lgan. T.van Deyk o'z tadqiqotlari davomida matn faqat gaplarning o'zaro bog'lanishidan emas, balki nutqiy aktlarning ham o'zaro munosabatidan tashkil topadi, degan haqqoniy xulosaga keladi.

Matn va uning lingvistik tabiati haqida chex tilshunosi Kveta Kojevnekovaning mulohazalari ham diqqatga sazovordir. Bu olimaning tadqiqotlarida asosiy e'tibor matnning bog'lanishli nutq mahsuli ekanligi, bog'lanishli nutqning tarkibiy qismlari va ularning o'zaro munosabatini o'rganishga qaratilgan edi.

Shunisi e'tiborliki, K.Kojevnikova matn haqida mulohaza yuritganida, uning mazmuniy jihatdan tugallangan bo'lishini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Olimaning matn komponentlari o'zaro ma'no jihatidan ham, grammatik jihatdan ham bog'lanishli bo'lishi haqidagi fikri e'tiborga molikdir, chunki ko'pchilik tilshunoslar matn komponentlarining faqat mazmuniy jihatdan bog'lanishli bo'lishini ta'kidlaydilar va matnning leksik-grammatik vositalar orqali bog'lanishini biroz nazardan chetda qoldiradilar.

K.Kojevnikova o'z ishlarida matnni tilning mazmuniy jihatdan tugallangan eng yuqori ideal kommunikativ birligi sifatida tushunadi. Bu o'rinda matnning gap, murakkab sintaktik qurilma, abzas, bob singari til birliklari munosabatidan tashkil topgan nutq yoki til birligi tarzida izohlash maqsadga unchalik nomuvofiq ekanligi ko'zga tashlanadi. Buning sababi shundaki, ba'zi tilshunoslar, masalan, taniqli rus psixolingvisti A.A.Leontevning bo'yicha, "matn funksional jihatdan tugallangan nutq birligi" sanaladi<sup>8</sup>.

---

<sup>7</sup> Ван Дейк. Т. Вопросы прагматики текста // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск УШ. Лингвистика текста. – М.: «Прогресс», 1978. – С. 259-334.

<sup>8</sup> Леонтьев А.А. Высказывание как предмет лингвистики, психолингвистики и теории коммуникации // Синтаксис текста. - М.: Наука, 1979. – С. 18-36.



Matnni nutq birligi deb tushunish xato emas, chunki matnni kommunikativ birlik deganda, biz muloqot birligini tushunamiz, har vandanay muloqot esa, o'z navbatida, nutq jarayonida shakllanadi.

Chex tilshunosi Yan Korjenskiy matn talqinini *semantik va pragmatik komponent* tushunchalari bilan bog'lab olib boradi. Bunda u semantik komponent birinchi galda matn materialini uyushtiruvchi ma'no bazasi hamda uning voqelanishini ta'minlovchi vositalardan iborat, deb hisoblaydi. Olim matnning semantik komponenti jumlasiga so'zlovchini, ya'ni inson omilini ham kiritadi. Matnning pragmatik komponenti deyilganda esa, ma'no ifodasi sistemasida muhim ahamiyat kasb etuvchi turli xil munosabatlar inobatga olinadi. Masalan, bu jihatdan o'zbek tilidagi *men, sen, u, biz, siz, ular* kabi kishilik olmoshlarini matnning pragmatik vositalari jumlasiga kiritish mumkin. Ko'rsatish va so'roq olmoshlari esa, kishilik olmoshlaridan farqli ravishda, semantik vositalar, yoxud matnning semantik komponentlari sirasiga kiradi. Chunki ular Shaxs (aktant)lar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Kishilik olmoshlari esa matn tarkibida bajaruvchi Shaxs (aktant) vazifasida keladi.

Bundan tashqari, matn tarkibidagi makon va zamon tushunchasini ifodalovchi birliklarni ham o'sha matnning pragmatik, yoxud semantik komponenti jumlasiga kiritish mumkin. Masalan, *oldin, avval, keyin, so'ng* kabi yo'galish yoki tomonni so'zlar so'zlovchining payt, zamon kordinatlari bilan bog'liq bo'lgani uchun matnning semantik komponentlari sanalsa, *u erda, Shu erda, u yoqqa* kabi makon ma'nosi bilan bog'liq so'zlar matnning pragmatik komponentlardir.

Ya.Korjenskiy o'z tadqiqotlarida pragmatik komponent semantik va matn komponentlari oralig'ida voqelanishini ta'kidlaydi. Bunda matn komponenti maqomida tilning tovushlar sistemasi real qo'llanilishi mumkin hamda ular grafik belgilar uchun makon bo'lib xizmat qiladi. Umuman, Ya.Korjenskiy talqiniga ko'ra, jumla (gap) matn komponenti sanaluvchi asosiy vosita sanaladi<sup>9</sup>.

---

<sup>9</sup> Корженский Я. Прагматический компонент и теория текста // Синтаксис текста.- М.: Наука, 1979.-С.68-78.

Bo'yicha, Yan Korjenskiy *semantik* hamda *pragmatik komponent* tushunchalarini ko'p o'rinlarda qorishtirib yuborgan ko'rinadi va natijada tadqiqotchi ma'lum bir tushunchani semantik yoki pragmatik komponentlarning qaysi biri tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq bo'lishini aniqlashda qiynaladi. Masalan, nutq jarayonida ishtirok etuvchi so'zlovchi hamda tinglovchi Shaxsni bemalol va qat'iy ravishda pragmatik komponentlar sirasiga kiritish mumkin. Biroq Yan Korjenskiy nutq jarayonidagi inson (shaxs) omilini semantik komponent jumlasiga kiritish kerakligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, matnning mazmuniy salmog'i butunligi va tugal holatda ekanligi ta'kidlanar ekan, o'sha matnning semantik komponenti deyilganda uning aniq chegarasini belgilab olish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bundan tashqari, matn tarkibida mavjud bo'lgan morfologik vositalarning birini matn komponenti deb, ikkinchisini esa semantik komponent deb ajratib o'rganish ham o'zini unchalik oqlamaydi. Zotan, ularning baricha ham matn komponentlaridir. Matn komponentlarining semantik yoki sintaktik jihatlari haqida so'z yuritilganda, ularning har birini yo semantik, yoxud sintaktik rejaga ko'ra o'rganish o'z-o'zidan talab qilinadi.

Nemis tilshunosi K.E.Xaydolfning matn xususidagi fikri ham o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. U matnni kommunikativ jarayonda gaplarning ma'lum xabar ifodasini berish uchun o'zaro bog'lanishi tarzida tushunadi. Olimning bo'yicha, matn tarkibida gaplarning tartib bilan o'zaro bog'lanib kelishida quyidagilar e'tiborga olinmog'i darkor: a) fikr butunligi; b) leksik butunlik; v) kommunikativ butunlik; g) zamon va nuqtai nazar butunliklari<sup>10</sup>.

Bu o'rinda, K.E.Xaydolf mulohazalariga qo'shilish mumkin, chunki matnning yaxlit kommunikativ butunligini ta'minlash uchun tugal fikr ifodasining bo'lishi, gaplarning o'zaro munosabatini semantik va sintaktik jihatlardan tashkil eta oladigan leksik vositalarning, fikr ifodasining zamon nuqtai nazaridan bekamu ko'stligi ta'minlangan bo'lishi eng asosiy Shartlardan biri sanaladi.

---

<sup>10</sup> Хайдольф К.Э. Контекстные отношения между предложениями в генеративной грамматике // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск УШ. Лингвистика текста. – М.: «Прогресс», 1978. – С. 208-217.

2. XX asrning keyingi 30-40 yil davomida rus tilshunosligida ham matn lingvistikasi bo‘yiCha bir qator salmoqli tadqiqot ishlari bajarildi. Mazkur mavzuda A.A.Leontev, YU.V.Rojdestvenskiy, G.A.Zolotova, M.V. Lyapon, M.A.Leonenko, R.A.Budagov, E.A.Referovskaya, G.Ya.Solganik va boshqa tilshunoslarning ishlari e‘lon qilingan. Quyida ana shunday ishlarning ayrimlari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

1974 yilda M.Torez nomidagi Moskva davlat chet tillar pedagogika institutida “Matn lingvistikasi” mavzuida yirik ilmiy anjuman o‘tkazildi va uning materiallari ikki qismda nashr etildi<sup>11</sup>. Bu materiallar o‘z navbatida matn tilshunosligi muammolarining yanada kengroq tadqiq etilishi uchun mustahkam zamin hozirladi.

E.A.Referovskayaning fikriga ko‘ra, hozirgi patgacha matn strukturasi masalalari tilshunoslikda murakkab sintaktik qurilma materiali sifatida o‘rganib kelindi. Buning sababini murakkab sintaktik qurilma bir necha gapdan tashkil topib, o‘zi yakka holda mustaqil matn maqomida ham kelishi mumkinligi bilan izohlasa bo‘ladi. Hozirgi davrga qadar matn lingvistikasi bo‘yicha, asosan, masalaning umumiy jihatlari, tadqiqot metodlari haqida bildirilayotgan fikr va mulohazalar ham murakkab sintaktik qurilma materiallariga asoslanmoqda. Matn tilshunosligining boshqa masalalari tadqiqi, olimaning ta`kidlashicha, hali o‘z echimini kutmoqda<sup>12</sup>. Keyinchalik E.A.Referovskaya matnning kommunikativ strukturasi leksik-grammatik aspektda tadqiq etib, monografiya e‘lon qildi. Bu ishning dastlabki bobi matnning lisoniy strukturasi, murakkab sintaktik qurilmaning matn va abzats bilan munosabati masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan edi<sup>13</sup>.

YAna bir rus olimi M.V.Lyapon ham matn tilshunosligi muammolarini murakkab sintaktik qurilmalar asosida talqin etishga intiladi. Uning bo‘yicha, matn tavsifi quyidagi to‘rt tamoyilga asoslanishi mumkin:

1. Matn – bu jumalarning o‘zaro munosabatidan kelib chiquvchi xabardir. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini o‘rganishda birdan-bir manba bo‘lib xizmat qiladi.

---

<sup>11</sup> Лингвистика текста (материалы научной конференции). Часть 1. – М.: 1974. – 230 с.; Лингвистика текста (материалы научной конференции). Часть II. – М.: 1974. – 212 с.

<sup>12</sup> Реферовская Е.А. Лингвистические исследования структуры текста. – Л.: Наука, 1983. – С. 3-14.

<sup>13</sup> Реферовская Е.А. Коммуникативная структура текста. – Л.: Наука, 1989. – С. 5-64.

2. Matn – bu soʻzlovchining nutqiy qobiliyatini roʻyobga chiqaruvchi vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qoʻllanilishini taʼminlovchi makon vazifasini ham bajarib keladi.

3. Matn – bu soʻzlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir.

4. Matn – bu til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim funktsiya bajaruvchi eng yuqori pogʻonasidir.

M.V.Lyapon matnning shakllanishida inson omili eng muhim faktorlardan biri ekanligini, inson matn shakllanishi uchun jonli manba boʻlib xizmat qilishini ham toʻgʻri taʼkidlaydi. “Inson omili, - deydi u, - hozirgi zamon tilshunosligining diqqat markazida boʻlib, “pragmatika – semantika – sintaktika” dasturining hayotga tadbiiq etilishida muhim mavqega egadir”<sup>14</sup>.

V.G.Gak talqiniga koʻra, matn tahliliga “pragmatik nuqtai nazardan yondashish til birliklari talqini uchun anʼanaviy tilshunoslikda eʼtibordan chetda qolgan koʻpgina istiqbolli yoʻllarni ochadi”<sup>15</sup>.

1978 yilda nashr etilgan “Chet el tilshunosligida yangiliklar” nomli ilmiy toʻplanning VIII-chiqishi matn lingvistikasi masalalariga bagʻishlangan edi. Ana Shu yirik toʻplamga T.M.Nikolaeva matn lingvistikasining hozirgi holati va istiqbollari mavzuidagi katta kirish soʻz yozgan<sup>16</sup>. Bu kirish soʻzda matn lingvistikasining chet elda oʻrganilish darajasi ancha keng va chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, T.M.Nikolaeva “Lingvistik ensiklopedik lugʻat”da “Matn (tekst) lingvistikasi”, “Tekst”, “Tekst nazariyasi” nomli ilmiy maqolalar bilan ishtirok etgan<sup>17</sup>.

G.YA.Solganik tadqiqotlarida hozirgi zamon tilshunosligida sintak-sis sohasining asosiy vazifalari jumlasiga (soʻz birikmalari va gapdan tashqari) mustaqil gaplarning oʻzaro semantik munosabati, prozaik strofa lar strukturasi, bob va hatto butun bir asarda matn shakllanishini oʻrganish kabi masalalar ham kiritiladi. Shu bilan birga G.Ya.Solganik

---

<sup>14</sup> Ляпон М.В. Смысловая структура сложного предложения и текст.-М.:Наука, 986.С. 5-7.

<sup>15</sup> Гак В.Г. Прагматика, узус и грамматика речи // Иностранные языки в школе, 1982, № 5. – С. 13-14.

<sup>16</sup> Николаева Т.М. Лингвистика текста. Современное состояние и перспективы // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск УШ. Лингвистика текста. – М.: «Прогресс», 1978. – С. 5-39.

<sup>17</sup> Николаева Т.М. Лингвистика текста. Текст. Теория текста. // Лингвистический энциклопедический словарь. – М.:, 1990. – С. 267-268; С. 507-508;

sintaksisda bu ob'ektlarning baricha grammatik jihatdan talqin etilib kelinayotgani qoniqarli emasligi, matn talqinida nafaqat sintaktik qoidalar, balki stilistik omillar ham e'tiborga olinishi lozimligini alohida ta'kidlaydi<sup>18</sup>. Shuningdek, V.V.Odinsoyning monografiyasi ham matn stilistikasi masalalarini keng aspektda o'rganishga bag'ishlangan edi<sup>19</sup>.

Lekin ayrim tilshunos olimlar "matn lingvistikasi" atamasiga biroz shubha bilan munosabatda bo'ldilar. Masalan, R.A.Budagovning bo'yicha, "matn lingvistikasi" rivojlanishi uchun quyidagi muammolarni hal qilishii lozim: 1) o'z tekshirish ob'ekti – matn (tekst) mazmun-mohiyatini aniq belgilab olishi, uning doirasini nihoyatda kengaytirib yubormasligi; 2) "kichik til birliklari" (ayniqsa, so'z)ga nisbatan o'z munosabatini qayta ko'rib chiqishi; 3) boshqa fanlarning o'zaro munosabati orqali aniqlanishi mumkin bo'lgan umumfalsafiy muammolarni hal etishdek murakkab vazifalarni o'z zimmasiga olmaslik; 4) tilshunoslikka yangidan kiritilayotgan terminlarga mas'uliyat bilan yondoshish, ularni turli ma'nolarda qo'llamaslik, bunda polisemiya yo'l qo'yimaslik; 5) lisoniy kategoriyalarni nolisoniy kategoriyalardan aniq farqlash... "Tekst lingvistikasi"ning kelajagi ana shu singari muammolarning ilmiy jihatdan asosli hal qilinishiga bog'liqdir<sup>20</sup>.

3. Umuman olganda, I.R.Galperin talqinidan kelib chiqib, matnga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "matn deb tugallangan, yozma ko'rinishda voqelangan, sarlavha va turli leksik, grammatik, mantiqiy, uslubiy munosabatlar asosida bog'langan gapdan yuqori birliklardan tarkib topgan hamda ma'lum bir muloqot maqsadi, pragmatik rejaga ega bo'lgan nutqiy ijod mahsuliga aytiladi"<sup>21</sup>. Matn kamida ikkita asosiy funksiyani, ya'ni informatsiya etkazish va saqlash hamda yangi ma'nolarni shakllantirish vazifasini bajaradi. So'nggi yillarda olimlar (I.P.Smirnov, N.A.Fateeva kabi) matnning uchini, ya'ni xotira funkuiyasini ham bajarishini e'tirof etmoqdalar. Shunga ko'ra matn nafaqat yangi

---

<sup>18</sup> Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика (сложное синтаксическое целое).- М.: Высшая школа, 1973. -С. 49-59.

<sup>19</sup> Одинцов В.В. Стилистика текста. – М.: Наука, 1980. – 264 с.

<sup>20</sup> Будагов Р.А. В какой мере «лингвистика текста» является лингвистикой? // Будагов Р.А. Филология и культура. – М.: Изд-во МГУ, 1980. – С. 77-86.

<sup>21</sup> Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования.-М.: Наука, 1981.С. 18.

ma'nolarni ishlab chiqadigan, shakllantiradigan manba, madaniy xotiralar to'planadigan, saqlanadigan manba, degan xulosaga kelish mumkin.

Shunday qilib, jahon tilshunosligida matnni tadqiq etish bobida muayyan yutuqlarga erishilgan. Biroq turkiy tilshunoslikda, jumladan o'zbek tilshunosligida matn lingvistikasi muammolari hali endigina o'rganilmoqda.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Matn lingvistikasi muammolarining tilshunoslikda o'rganilish tarixi haqida qisqacha ma'lumot.
2. K.Gauzenblaz, R.Xarveg va M.Mayenova kabi olimlarning matn tilshunosligiga doir qarashilari.
3. Matn tilshunosligi masalalarini o'rganishda M.Pfyutse, R.Bart, T.van Deyk kabi olimlarning o'rni.
- 4.K.Kojevnikova, YA.Korjenskiy va K.E.Xaydolfning matn tilshunosligiga doir qarashilari haqida.
- 5.E.A.Referovskaya, A.A.Leontev, M.V.Lyapon, I.R.Galperin kabi rus tilshunoslarining matn strukturasi va komponentlarini o'rganish sohasidagi qarashilari.
- 6.Matnning umumnazariy masalalari, uning pragmatikasi va stilistikasi muammolari tadqiqida V.G.Gak, T.M.Nikolaeva, G.Ya.Solganik, R.A.Budagov, V.V.Odinov kabi olimlarning xizmatlari.

### **3- MAVZU O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MATN VA UNI O'RGANISH MUAMMOLARI**

#### **Reja:**

1. O'zbek tilshunosligida matn tushunchasining o'rganilishi.
    - 2.Badiiy matnni o'rganishda I.Qo'chqortoev, E.Qilichev, J.Lapasov, H.Nizomxonov, M.To'xsanov kabi olimlarning hissasi.
    - 3.Matn (kontekst) tahliliga doir N.Mahmudov, S.Meliev, Y.Solijonov kabi olimlarning ishlari haqida.
    - 4.Matnning pragmatik va lingvopoetik tahliliga doir I.Mirzaev, M.Hakimov, M.Yo'ldoshev, S.Boymirzaeva kabi olimlarning tadqiqotlari.
    - 5.Matn tilshunosligi taraqqiyoti Samarqand olimlarining hissasi.
- Adabiyotlar: 12; 16; 21; 18; 9; 35; 41.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *matn, matnshunoslik, kogerent, pragmatika, mikromatn, makromatn, ilmiy matn, badiiy matn, kommunikativ nutqiy butunlik, nutq generatsiyasi, matn kogeziyasi, matn retrospeksiya.*

Ma’lumki, “matnshunoslik” atamasi o‘zida ikki tushunchani ifoda etadi. Shulardan biri muayyan matnning tanqidiy tekstlarini yaratish mazmunini ifodalasa, ikkinchisida matnga lingvistik tadqiqot ob’ekti sifatida qaralib, bir fikriy butunlikni ifoda etuvchi gaplar, sintaktik butunliklar yig‘indisini nazarda tutadi (O‘TIL-5, P, 557). “Matn” (tekst) atamasiga lug‘atlarda quyidagicha ta’rif berilgan: 1. “Yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi; tekst” [TTIL, 61]. 2. “Tekst (*lat. textus – to‘qima, aloqa* so‘zidan) – tekst. Qo‘l yozma yoki nashr etilgan asarlardagi avtorning asl so‘zi” [ATRO‘IL, 308]. Ko‘rinadiki, bu ikki ta’rifda ham “matn” (tekst)ning asosiy xususiyatlari ochib berilmagan.

Matn nutqning yirik ko‘rinishi bo‘lib, vazifasi jihatdan tugal nutqiy butunlik sanaladi. Matnning murakkabligi va hajmi, kommunikativ vazifasi, muayyan janr talablariga mosligi va matn qismlarining xarakteri singari masalalar keyingi 20-30 yildan buyon o‘zbek tilshunoslarining ham diqqat e’tiborida bo‘lib kelmoqda. O‘z vaqtida akademik A.N.Kononov murakkab fikrni ifodalashda yakka gapning o‘zi kifoya qilmaydi, uni boshqa gaplar qurshovida tekshirish lozim, degan fikrni olg‘a surgan edi. Keyinchalik o‘zbek tili sintaksisiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda gapdan yirik birliklarni ifodalovchi “murakkab sintaktik butunlik”, “diskurs”, “mikromatn”, “makromatn” singari atamalar qo‘llaniladigan bo‘ldi. Sh Butunittifoq turkiyshunoslar anjumanida (Toshkent, 1980) akad. G‘.Abdurahmonov “Matn nazariyasi” mavzuida ma’ruza qilgan edi. Ana shu ma’ruzada ta’kidlashicha, ma’lum bir matn tushunishida fajllashadigan sintaktik munosabatlar mazmuniy munosabatlar bilan uyg‘unlashib, o‘ziga xos sintaktik-semantik xususiyat kasb etadi. Ana shu sababli matn mazmun va shakl uyg‘unligiga ega bo‘lgan lisoniy qurilma bo‘lib, uning qismlari (komponentlari)ga ham ma’lum miqdorda sintaktik va mazmuniy jihatdan mustaqillik belgilari xarakterlidir<sup>22</sup>.

---

<sup>22</sup> Бу ҳақда қаранг: III Всесоюзная тюркологическая конференция // Сов.тюркология. 1981. № 1. – С. 93; Расулов И. Мураккаб синтактик бутунлик // Ўзбек тили ва адабиёти. 1983. № 1. – Б. 22-26.

Ma'lumki, matnni muayyan belgi-xususiyatlarga ega bo'lgan statik (turg'un) ob'ekt sifatida tadqiq etish uni boshqa aspektlarda o'rganishga aslo monelik qilmaydi. Matnning lisoniy tabiati, uning tushunishi, asosiy kategoriyalari matn tilshunosligi fani uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lsa, matn generasiyasi, matnning yaratilish jarayoni kabi masalalar ham bu fan uchun Shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning bu fikrimiz birinchi navbatda badiiy matnlarga tegishlidir. Nutq generasiyasi nuqtai nazaridan matn statik hodisa emas, balki dinamik hodisa hisoblanadi. Matnning qo'lyozma varianti ustida ishlash yoki asarni qayta nashrga tayyorlaSh jarayonida yozuvchi (matn ijodkori) tomonidan butun matnga yoki uning muayyan qismlariga ma'lum o'zgarishlar kiritiladi. Bunday o'zgarishlar natijasida butun matnning yoki uning biror qismining o'ziga xos qo'shimcha nusxalari, variantlari yuzaga keladi. Matnning qo'shimcha nusxasi yoki varianti deyilganda, mazkur matnda tasvirlangan voqea-hodisalarning boshqa voqea-hodisalar bilan almashuvi emas, balki o'sha voqea-hodisalarni tasvirlovchi vositalarning boshqa ifoda vositalari bilan almashuvi ko'zda tutiladi. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda, I.Qo'chqortoev va H.Nizomxonovlarning "Badiiy asarning tekstual variantlari – lingvostilistik tadqiqot ob'ektlaridan biri" nomli ilmiy maqolasi o'zbek matnshunosligida alohida o'rin tutadi<sup>23</sup>. Keyinchalik R.Qo'chqortoeva, H.Nizomxonov, M.Aminova kabi olimlar Abdulla Qahhor, Oybek, Hamza kabi ijodkorlarning qo'lyozma matnlar ustida ishlaSh mahoratini maxsus tadqiq etdilar<sup>24</sup>. Bunday muammo o'z vaqtida A.SHomaqsudov (1971), Q.Samadov (1967, 1981), I.Qo'Chqortoev (1976) kabi olimlarning ishlarida ham o'rganilgan edi. Adabiyotshunos olim S.Meliev she'riy matnlarda so'zning badiiy funksiyasini maxsus tadqiq etdi. Jumladan, olim kontekstda so'z dinamikasini ochib berish uchun shoir Husniddin Sharipovning "*Baliq falsafasi*" nomli she'rida "*Dumingni likillatasan, olg'a ketasan*" misrasining takrori yaxlit bir

---

<sup>23</sup> Кўчқортоев И.,НизомхоновХ. Бадий асарнинг текстуал вариантлари – лингвостилстик тадқиқот объектларидан бири//Ўзбек тили ва адабиёти, 1983. № 6. Б. 15-19.

<sup>24</sup> Бу ҳақда қаранг: Кучкартаева Р. Работа А.Каххара над языком своих произведений. АКД. – Ташкент, 1980. – 24 с.; Низамханов Х. Выбор слова как проблема литературно-стилистической обработки текста (на материале замен синонимических средств лексики в романе Айбека «Навои»). АКД. – Ташкент, 1986. – 21 с.



matni, tugal she'riy matni vujudga keltirganini uch yarusda tadqiq etadi hamda shunday xulosaga keladi:

“*Dumingni likillatasan, olg‘a ketasan*” zamirida achchiq zaxarxanda bor. U dumini likillatib umr kechiruvchi kishilarning “olg‘a ketishiga” to‘sqinlik qilib, ularni hajv zarbi bilan yanchib tashlaydi... Matni o‘qir ekansiz, baliq inson tasavvuridan butunlay chiqib ketmaydi. Zero, lagandardorning baliqqa o‘xShaSh tomonlari ham yo‘q emas. Baliqning suvda sollanib, silliq suzishi hayotning sermaShaqqat yo‘llaridan ravon o‘tib ketishga ruju qo‘ygan laganbardor “falsafasi”ga mos keladi.

Mutlaq bir xil ikki misra “*Dumingni likillatasan, olg‘a ketasan*” ning takrorlanishi natijasida bu she‘r tugal badiiy asar (poetik matn) qiyofasiga kiradi. so‘zlarning aytilish ohangida ham baliqning suzishiyu itning dum likillatishini eslatadigan nimadir bor. Ana shu o‘xshashlik laganbardor kimsalarning yashash falsafasini nafrat va zaxarxanda o‘tiga duchor qiladi.

Kontekst (matn)da so‘z dinamikasi keng tushuncha. U faqat muayyan kontekst doirasi bilan cheklanmay, so‘zning voqelik bilan “oldi-berdi”sini ham o‘zida qamrab oladi. Demak, so‘z dinamikasi turli kontekstda turlicha ko‘rinishga ega bo‘ladi. Keltirilgan she‘r matnida baliqdan boshqa narsa yo‘q. Ammo *dum likillatish* birikmasining harakat doirasi shunchalik kengki, u avval it, keyin laganbardor odam qiyofasini kitobxon zehnda jonlantiradi. Har ikki holda ham harakatchan dinamik so‘z va birikmalar yuksak badiiy kontekst (matn)ni vujudga keltiradi<sup>25</sup>. Keyinchalik S.Meliev she‘riy kontekstda so‘zning badiiy funksiyasi tahliliga oid nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan edi<sup>26</sup>.

M.To‘xsanov “Mikromatn va o‘zbek badiiy nutqida uning kogerentligini ifodalovchi vositalar (so‘z almaShtirish va takror)” mavzuida nomzodlik ishini himoya qildi<sup>27</sup>.

Olimning bo‘yicha, tilshunos olimlar tomonidan tekst (matn) termini tor va keng ma‘noda ishlatiladi. Tor ma‘noda tugal fikr anglatuvchi bir (ba‘zan) yoki bir necha gapdan iborat bo‘lgan jumla tushunilsa, keng ma‘noda qissa, roman, gazeta, jurnal maqolasi, ilmiy

---

<sup>25</sup> Мелиев С. Контекстада сўз динамикаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1983. № 4. – Б. 54.

<sup>26</sup> Мелиев С. Художественная функция слова в стихотворном контексте (на материале современной узбекской поэзии). АКД. – Ташкент, 1985. – 19 с.

<sup>27</sup> Тухсанов М. Микротекст и система средств выражения его когерентности в узбекской художественной речи (замена и повтор). АКД. – Ташкент, 1987. – 17 с.

monografiya, turli hujjat va hokazolar nazarda tutiladi. Bulardan birinchisi mikrotekst, ikkinchisi makrotekst deb ham ataladi.

Mikrotekst grammatika, ya'ni sintaksisning o'rganish ob'ekti sanaladi. Makrotekst esa sotsiolingvistika, funksional stilistika, pragmalingvistika, adabiyotshunoslik, poetika kabi bir qator filologik fanlarning ob'ekti deb qaraladi. Bundan ko'rinadiki, tekst (matn) lingvistikasi ikki ob'ektki fan bo'lib, uning predmeti mikrotekst ekanligiga asos bo'luvchi modellarni o'rganish tashkil etadi<sup>28</sup>. Bu ish o'zbek tilshunosligidagi mikromatn va uning kogeziyasini monografik yo'nalishda o'rganishga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlardan biri ekanligi bilan e'tiborga molik.

H.Usmonov esa o'zbek badiiy matnlarida so'zlashuv nutqi xususiyatlarini maxsus tadqiq etdi<sup>29</sup>. Prof. A. Mamajonov "Tekst lingvistikasi" nomli o'quv qo'llanmasini nashr ettirdi<sup>30</sup>. Bu ishda matn haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar ma'lum darajada tahlil qilingan, matn tushunchasining mohiyati, tiplari va komponentlari, bu komponentlarning o'zaro bog'lanishi va matn qismlarining bog'lovchi vositalari, matn birliklariaro sinonimiya, sintaktik-stilistik figuralar masalalari ta'limiy nuqtai nazardan o'rganilgan. Keyinchalik A.Mamajonov M.Abdupattoev bilan hamkorlikda "Matn sintaksisi" nomli o'quv qo'llanmasini ham nashr ettirdi. Ta'limiy xarakterga ega bo'lgan bu qo'llanmada matnning struktur-semantik va uslubiy jihatlari, matn birliklaridagi tema-rematik munosabat masalalari tahlil qilingan hamda Shu asosda o'zbek tilidagi matnlarning sintaktik tabiati haqida tegishli umumiy xulosalar bayon qilingan<sup>31</sup>.

O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab o'zbek olimlari matn tilshunosligining nazariy muammolari bilan shug'ullana boshladilar. Bu jihatdan B.O'rinboev, R.Qo'ng'urov, J.Lapasovlarning "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" nomli o'quv qo'llanmasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarning "Kirish" qismi "Tekst – lingvistik tahlil ob'ekti" deb nomlanadi. Bunda matn tiplari, ularning umumiy va o'ziga xos belgilari, matnni lisoniy

---

<sup>28</sup> Тўхсанов М. Микротекст ва унинг коммуникатив яхлитлиги ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1990. № 5. – Б. 66-67.

<sup>29</sup> Усманов Х.К. Особенности разговорной речи в художественном тексте (на материале языка узбекских повестей 70-х годов), Автореф. дис...канд. филол. Наук.-Т. 1988.- 20 с.

<sup>30</sup> Мамажонов А. Текст лингвистикаси. Ўқув қўлланмаси.-Тошкент: ТошДПИ, 1989.-62 б.

<sup>31</sup> Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн синтаксиси.-Фарғона: ФарДУ нашри, 2002.- Б 4-25.

tahlil qilishining metodologik tamoyillari, matn yaratish myammolari, ifoda vositalarining tanlanishi va ularning matn tushunishi-dagi roli singari dolzarb masalalar o‘zbek tili faktlari misolida yoritilgan<sup>32</sup>. Shundan keyin asarda Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor, Komil Yashin kabi shoir, yozuvchi va dramaturglarning she’riy, nasriy va dramatik asarlaridan matnlar keltirilib, ularni lisoniy jihatdan tahlil qilishi namunalari berilgan. Bu asarda to‘g‘ri ta’kidlashicha, “umumiy tilshunoslikdagi nazariy fikrlar asosida tekst (matn)ning mohiyati, tushunishi, mazmuni, fikrni yuzaga chiqarishdagi roli kabi qator muammolarni yoritish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir” [12, 8]. J.Lapasov “Badiiy matn va lisoniy tahlil” nomli qo‘llanmasida badiiy matnning lisoniy tahlili haqida umumiy ma’lumot beriladi, matn tushunishida ifoda-tasvir vositalarining ahamiyati, remarka va replika, leksik va uslubiy vositalar, stilistik figuralarning matnni shakllantirishdagi o‘rni, matn tahlilida lug‘at ustida ishlash usullari kabi masalalar o‘rganilgan hamda she’riy, nasriy va dramatik matn tahliliga doir namunalari keltirilgan<sup>33</sup>.

M.Hakimovning nomzodlik dissertatsiyasida ilmiy matn va uning birliklari orasidagi mazmuniy munosabatni ifodalovchi bog‘lovchilar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalariga aniqliklar kiritilgan, ilmiy matnda muallifning xususiy munosabati va uning turlari, o‘zbekcha ilmiy matnlarning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari keng tahlil qilingan. Bu ishda o‘zbek tilining ilmiy uslubi matn kategoriyasi aspektida o‘rganilgan, gumanitar fanlarga oid ilmiy matn namunalari bu ish uchun faktik material manbai bo‘lib xizmat qilgan<sup>34</sup>.

“O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi” mavzuidagi nomzodlik ishida tadqiqotchi N.Uluqov diniy matnlar tilshunoslikda o‘ziga xos alohida matn turi sifatida o‘rganilishi

---

<sup>32</sup> Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили, Тошкент, Ўқитувчи, 1990. – Б. 6-40.

<sup>33</sup> Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 5-86.

<sup>34</sup> Ҳақимов М.Х. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари, НДА, Тошкент, 1993. – 26 б.

maqsadga muvofiq, degan fikrni ekzotik leksika materiallari misolida asoslashga intiladi<sup>35</sup>.

1997 yilda Toshkentda o'tkazilgan "O'zbek tili" anjumanining to'rtinchi yig'ini bevosita "Ta'lim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari" mavzuiga bag'ishlangan edi. Bu anjuman materiallari yirik to'plam sifatida nashr etilgan. Bu esa mamlakatimizda matn tilshunosligi yutuqlarining ta'lim jarayoniga keng tatbiq etilishida muhim ahamiyat kasb etmoqda<sup>36</sup>.

1998 yilda SamDUda "Maxsus matnlarning lingvistik talqini (interpretasiyasi) va chet tillarida muloqot qilishini fajllashtirish" mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman o'tkazildi. Bunda Abxay Morye (Hindiston), Su Fan Syu (Xitoy), D.Loxer (Shvesariya), V.Revitskiy (Belarus), J.A.Kareneyeva (Qozog'iston) singari xorijlik olimlar hamda mamlakatimizning barcha oliy o'quv yurtlaridan filolog mutaxassislar ishtirok etdilar hamda matn va uning lingvistik talqini bilan bog'liq bir qancha dolzarb masalalar muhokama qilindi<sup>37</sup>.

Prof.E.Qilichevning "Matnning lingvistik tahlili" nomli o'quv qo'llanmasida matnning ko'rinishlari va uni lisoniy tahlil qilishi namunalari berilgan. Eng muhimi, bu ishda poetik va nasriy matnlarni Shahrlab o'qish hamda tahlil qilishi, matnni "lingvistik mikroskop ostida" o'rganish (fonetik, leksik, morfemik, morfologik, sintaktik tahlil usullari)ga oid maShq namunalari keltirilgan<sup>38</sup>.

2000 yilda Samarqandda "Matn va uning talqini" mavzuida xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya o'tkazildi. Bu anjumanda matnning informativligi, kogeziyasi, bo'linuvchanligi, retrospeksiyasi, ichki va tashqi derivasiyasi kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi<sup>39</sup>.

---

<sup>35</sup> Улуқов Н. М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси, НДА, Тошкент, 1997. – 29 б.

<sup>36</sup> Таълим жараёнида матн устида ишлашнинг асосий омиллари ("Ўзбек тили" доимий анжумани тўртинчи йиғинининг тезислари). – Тошкент, 1997. – 256 б.

<sup>37</sup> Лингвистическая интерпретация специального текста и активизация обучения иноязычному общению (материалы международной теоретической конференции). – Самарканд, 1998. – 254 с.; Матн ва унинг лисоний таҳлилига оид тадқиқотлар (халқаро илмий анжуман материаллари). – Самарканд, СамДУ нашри, 1999. – 70 б.

<sup>38</sup> Қиличев Э. Матннинг лингвистик таҳлили. – Бухоро, БухДУ нашри, 2000. – 36 б.

<sup>39</sup> Матн ва унинг талқини (халқаро илмий-назарий конференция материаллари, Самарканд, 16-18 ноябр 2000 йил). – Самарканд, СамДЧТИ нашри, 2000. – 256 б.

Ma'lumki, pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy tarmog'i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta'siri bilan namoyon qiluvchi nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador masalalarni o'rganadi. "Pragmatika tilshunoslik fanining yangi sohalaridan biri bo'lib, uning nazariy manbai Ch.Pirs, U.Djems, D.Dyun, Ch.Morris kabi taniqli faylasuf olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari bilan bog'liq. Ularning tadqiqotlarida XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida belgilar sistemasi va lingvistik belgi funksionalligi xususidagi g'oyalar o'rta tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaksis, semantika va pragmatika o'rtasidagi o'zaro farqlar ko'rsatib beriladi"<sup>40</sup>. Lingvistik pragmatikaning o'zbek tilshunosligida shakllanishida M.Hakimovning tadqiqoti alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki olim o'zbek tilidagi matnning pragmatik talqiniga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida matn lingvistik pragmatika, nutqiy akt nazariyasi tamoyillari asosida o'rganilgan, matnda ochik va yaShirin (eksplitsit va implitsit) shaklda ifodalanadigan mazmunlarning o'ziga xos qonuniyatlari ko'rsatib berilgan, ularning semantik, sintaktik, presuppozitsion va pragmatik xususiyatlariga doir qoidalarga aniqliklar kiritilgan. Bu ish o'zbek tilidagi matn tilshunosligi muammolariga nazariy jihatdan tamoman yangi fikr-mulohazalar bayon etilgan<sup>41</sup>.

M.Hakimova vaqt ma'noli birliklarning matnni shakllantirishdagi imkoniyatlarini tadqiq etib, nomzodlik ishini himoya qildi. Ishda ta'kidlashicha, vaqt ma'noli (temporal) leksemalar matnni narsimon va zanjirsimon usullarda bog'lay oladi. Narsimon bog'lanishda vaqt ma'noli leksema o'zining vaqt mundarijasi asosida matn boshida etakchi so'z bo'lib turadi. Hamma voqea-hodisalar shu so'z ifodalagan vaqt ko'lamida yuz beradi. Zanjirsimon bog'lanishda muayyan leksema ma'nosidagi butun yoki umumiy vaqt qism va xususiyliklar tarzida matn komponentlarini bog'lashga xizmat qiladi (kun: ertalab, tush, kechqurun kabi). Bunda dastlabki bosh (butun, umumiy) temporal sememaning muayyan semalari keyingi jumalarda sememalar maqomini kasb etadi. Shuningdek, vaqt ma'nosini denotatini voqelik sifatida tasdiqlash (atov gap), keyingi fikr

---

<sup>40</sup> Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск ХУ1, М.: Прогресс, 1985. – С. 471.

<sup>41</sup> ҲАКИМОВ М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини, ДДА. – Тошкент, 2001.-50 б.

yoki tavsifning temporal predmetini tema sifatida avval tasdiq yo‘li bilan berish kabi kommunikativ ehtiyojlar ham matn shakllantiruvchi omillardandir.

Vaqt ma‘noli so‘zlar matn shakllantirish va uning yaxlitligini ta‘minlashda temporal maydonning boshqa birliklari bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadi.

M.Yo‘ldoshev badiiy matn lingvopoetikasi bilan jiddiy shug‘ullanib, Shu mavzuga doir bir qator monografiyalar yaratdi hamda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi<sup>42</sup>. Xuddi shuningdek, S.Boymirzaeva badiiy matnda qo‘shma gap shakllarining qo‘llanish xususiyatlari, matnning modalligi va unda temporallik mazmuni semantikasi tahliliga doir mazmunder monografiyalar nashr ettirdi hamda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Sh.Turniyozovanning nomzodlik ishi esa matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari tahliliga bag‘ishlangan edi. Ishda haqqoniy ta‘kidlashicha, “matn derivatsiyasi o‘ziga xoslikka ega bo‘lib, uning so‘z birikmasi, gap, murakkab sintaktik qurilma materialida shakllanishi abzats va bob materialida voqelanishidan farq qiladi. So‘z birikmasi, gap va murakkab sintaktik qurilmalarning matn maqomida kelishida ularning sintaktik derivatsiyasi tamoyillari odatdagi operand, operator va derivat kabi sodda tushunchalarga asoslanadi. Abzats derivatsiyasida esa mazkur tushunchalar murakkab xarakter kasb etadi”.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida matn muammosini u yoki bu jihatdan o‘rganishga aloqador bo‘lgan bir qator ilmiy maqolalar ham e‘lon qilindi.

Shunday qilib o‘zbek tilshunosligida matn muammolarini tadqiq etishda salmoqli yutuqlarga erishildi. Endigi vazifa ana shu yutuqlarni yanada mustahkamlaSh, matn tilshunosligi muammolariga doir monografik tadqiqotlar yaratish, matnning turlari, uning pragmatik imkoniyatlari kabi masalalarni keng miqyosda chuqurroq tadqiq etishdan iboratdir.

### **Mavzu bo‘yicha savollari:**

1. “MatnShunoslik”, “matn” (tekst) atamalarining izohi haqida.
2. Matn tilshunosligi taraqqiyotida Samarqandda o‘tkazilgan ikki xalqaro konferensiya (1998, 2000), “O‘zbek tili” doimiy anjumanining to‘rtinchi yig‘ilishi (1997) ning o‘rni..

---

<sup>42</sup> Юлдашев М.М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. ДДА. – Тошкент, 2009. – 48 б.

3. “Kontekstda so‘z dinamikasi” tushunchasining izohi va konkret misollar asosidagi tahlili.
4. O‘zbek tilshunosligida matn va uning turlari tahlilida “Badiiy tekstning lingvistik tahlili” (1990), “Badiiy matn va lisoniy tahlil” (1995) asarlarining tutgan o‘rni.
5. Lingvistik pragmatika va uning xususiyatlari tahlilida M.Hakimov tadqiqotlarining o‘rni.
6. Badiiy matn lingvopoetikasi va matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar tadqiqida M.Yo‘ldoshev, S.Boymirzaeva tadqiqotlarining tutgan o‘rni.

**4- MAVZU**  
**NUTQDA TIL BIRLIKLARINING**  
**QO‘LLANILISHI VA MATN TUSHUNCHASI**  
**Reja:**

1 Tilning jamiyatdagi o‘rni va vazifasi, sistemalik xarakteri va strukturasi orasidagi munosabati. uning nutq jarayonidagi in’ikosi, o‘ziga xos sifatleri. Matn tarkibida so‘zning lug‘aviy (leksik) va grammatik ma’nolarini farqlash tamoyillari.

2. Ferdinand de Sossyurning “til va nutq” dixotomiyasi haqidagi ta’limoti haqida tushuncha.

3. Nutqning shakllanishida so‘zlovchi til birliklarining tejalishi masalasiga Lisoniy va nutqiy ortiqchalikning umumiy hamda farqli belgilari. til birliklarining nutqqa ko‘chirilishida turli xil morfologik vositalar ishtirok etishi va bunday vositalarni A. Martine “monema” termini orqali izohlashi.

4. Til birliklarining mavhum va ko‘p ma’noli xarakteri, nutq birliklarining esa konkret va yakka ma’nolik xususiyati.

**TAYANCH so‘z va iboralar:** Sistema, belgi, ifodalovchi, ifodalovchi, narsaning nomi, tushuncha, tilning virtualligi, nutqning konkretligi, til unsurlarining me’yoridan ortiq qo‘llanilishi, ortiqchalik tilning yutug‘i, ortiqchalik tilning nuqsoni, avtonom monema, funksional monema, qaram (tobe) monema, yarim funksional va superfunksional monemalar, tilning voqelikka munosabati, nutqning voqelikka munosabati, murakkab sintaktik qurilma, abzas.

Ma’lumki, tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrigacha tilning ijtimoiy hodisa ekanligi va uning jamiyat taraqqiyotidagi mavqei masalasi yaxshi o‘rganilgan. Bu

masala faqat tilshunoslarni emas, balki faylasuflar, tarixchilar, etnograflar, psixologlar va boshqa mutaxassislarni qiziqtirib kelmoqda.

Jamiyatda u yoki bu tilning tutgan o'rnini, mavqei uning nutqda real qo'llanilishi bilan bevosita aloqadordir. Biz nutq haqida fikr yuritganda, eng avvalo tilning murakkab sistema ekanligini chuqur tushunib etmog'imiz lozim bo'ladi, chunki til sistemasidagi ana shu elementlar (birliklar) nutqni tashkil etuvchi asosiy xomashyodir.

Shveysariyalik mashhur tilshunos Ferdinand de Sossyur (1857-1913) tilning murakkab sistema ekanligini birinchilardan bo'lib ilmiy asoslagan edi. Sossyur til sistemasi belgi (signal, ramz)lardan tashkil topishini va har bir belgi o'ziga xos va barcha belgilar uchun umumiy bo'lgan ikki jihatga ega ekanligini dalillab berdi. Olim bu jihatlarning birini ifodalovchi (signifika), ikkinchisini esa ifodalovchi (signifiant) deb nomlaydi. Ularning birinchisi shakl tushunchasi bilan, ikkinchisi esa mazmun bilan bevosita bog'liq bo'lib, birining ishtirokisiz ikkinchisi belgining shakllanishini to'la asoslay olmaydi. Bunda belgining ifodalovchi jihatini nutq tovushlari tashkil etadi, uning ifodalovchi tomonini esa ma'no belgilaydi.

Ma'no leksik (lug'aviy) yoki grammatik xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ularning har ikkisi ham belgini ifodalashda faol ishtirok etadi. Masalan, *tosh, daftar, uy* so'zlari til belgisi sifatida leksik ma'no ifodalasa, *ammo, biroq, ba'zan, hattoki, ham* so'zlari faqat grammatik ma'no ifodalaydi.

Belgining til sistemasidagi o'rnini va bir-biridan farqi quyidagi ikki vosita orqali belgilanadi: a) tovush; b) ma'no. Bunga *bosh, tosh, qosh, chosh, yo(yo)Sh, doSh; tog', bog', zog', yo(yo)g', chog'; bilak, tilak, elak* kabi bir tovush orqali farqlanuvchi so'zlarni misol keltirish mumkin. Biroq shakldosh so'zlarda til belgilari, asosan, ma'no orqali farqlanadi.

2. F.de Sossyurning tilshunoslik fani uchun katta xizmatlaridan biri "til va nutq" dixotomiyasini ilmiy asoslaganida ko'rinadi<sup>43</sup>. Til va nutqning o'zaro munosabati F.de Sossyur ta'limotida faqat biri ikkinchisi bilan uzviy bog'liq hodisalar sifatida emas, balki biri ikkinchisiga zid bo'lgan hodisalar tarzida ham izohlanadi. Ularning o'zaro uzviy

---

<sup>43</sup> Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – С. 98-103.



bog'liqligi tilsiz nutq, va aksincha, nutqsiz tilning mavjud bo'la olmasligida ko'rinadi. Shu bilan birga til va nutqning o'zaro ziddiyati tilning umumiyliigi, nutqning esa xususiyligida, tilning virtualliigi, nutqning esa aktualigida ham kuzatiladi<sup>44</sup>.

So'z til birliklari orasida eng faoli sanaladi. Shu bilan birga so'z tilning mavhum va ko'p ma'noli birligidir (bu qatorga terminlarni kiritib bo'lmaydi). Masalan, *Er so'zi sayyora (planeta)* tushunchasidan tashqari, *o'rin, joy, sath, tuproq qatlami, tomorqa* kabi o'n bir ma'noda qo'llanadi (O'TIL-5, P, 14-15). Biroq nutq jarayonida har safar ana Shu ma'nolardan faqat bittasi matn tarkibida fajllasha oladi. Mazkur ma'no ifodalarning barichani nutqda bir yo'la fajllashtirib bo'lmaydi. Chunki nutq har doim biror aniq xabar ifodasini berish maqsadida Shakllanadi. Shu bilan birga "er" so'zi tilimizda *er ostidan qaramoq, erning tagida bo'lsa ham topmoq, er tishlatmoq, er chizib qolmoq, burnini erga ishqamoq, gapini erda qoldirmaslik, tuyaning dumi erga tekkanda, gapni bir erga qo'ymoq* singari bir qancha frazemalarning Shakllanishi, ularning ikkilamchi ko'chma ma'noga ega bo'lishi uchun ham xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, so'zlovchiga nutq jarayonida ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Shuni ham aytish lozimki, so'zlovchining nutqida ko'p hollarda turli xil nuqsonlar, jumladan ma'no kamchiliklari uchraydi. Masalan, rus tilidagi *priglasenie uchitelya* birikmasining qo'llanishida ikki xil ma'no ifodasi ko'zga tashlanadi: *o'qituvchi kimnidir taklif qilmoqda* yoki *kimdir o'qituvchini taklif qilmoqda*. Bu singari misollarni o'zbek tili materialida ham keltirish mumkin: *Qishlog'imizda ikki ordenli o'qituvchi yashaydi*. Mazkur matnni quyidagi ikki ma'noda tushunish mumkin: *Qishlog'imizda yaShaydigan o'qituvchining ikki ordeni bor* yoki *qishlog'imizda yaShaydigan ikkita o'qituvchining ordenlari bor*. Bunday vaziyatda, shubhasiz, tinglovchii o'ziga kerakli ma'lumotni olish uchun ancha qiynaladi. Shuning uchun til birliklarining nutqda qo'llanilishida so'zlovchining mas'uliyati, til birliklarini o'ziga xos ohang, urg'u bilan talaffuz qilishii muhim ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>44</sup> Бу ҳақда қаранг: Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б. 125-153; Нєматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – Б. 8-25.

3. Yuqoridagilardan tashqari, nutqning Shakllanishida soʻzlovchi til birliklarining tejalishi masalasiga ham alohida eʼtibor bermogʻi lozim. Chunki nutqda til unsurlarining takroriy qoʻllanishi yoki maʼlum bir xabar ifodasining berilishida ularning suiisteʼmol qilinishi nutqiy maʼno ifodasining loʻnda va tushunarli qilib voqelanishiga, soʻzsiz, salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bu fikr isboti uchun quyidagi misolga murojaat qilaylik: *Shunday sovuqda qoʻlda tugunChak bilan qayoqqa boryapsiz? – Shunday sovuqda qoʻlda tugunChak bilan mehmonga boryapman.*

Koʻrinadiki, ayni paytda savol beruvchi nutqida ham, javob beruvchi nutqida ham soʻz qoʻllanilishida ortiqchalikka yoʻl qoʻyilgan: *havoning sovuqligi, qoʻlda tugunchak* borligi soʻzlovchiga ham, tinglovchiiga ham koʻrinib turgan narsa. Shu bois bu oʻrinda nutqiy muhit ishtirokchilaridan biri oddiygina qilib *Qayoqqa?* deganida, ikkinchisi *Mehmonga* tarzida javob berishi ham mumkin edi.

Nutqda qoʻllanilgan bunday ortiqcha soʻzlar *nutqiy ortiqchalik* (pleonazm) deb ataladi. Biroq tilda ham Shunday ortiqchalik hodisasi kuzatiladi<sup>45</sup>. Masalan: *Men 2012 yildan boshlab magistrman.* Bu matnda *men* kishilik olmoshi qoʻllanilgan holda yana *-man* Shaxs-son qoʻshimchasi ham qoʻllanilmoqda. Lekin ayni paytda bu qoʻshimchani jumla (matn) tarkibidan tushirib qoldirib boʻlmaydi.

Umuman, tildagi ortiqchalikni bartaraf etish qiyin. Nutqdagi ortiqchalikni esa istalgan paytda bartaraf etsa boʻladi. Tildagi ortiqchalik haqida gapirganida amerikalik tilshunos G.Glisonning quyidagi fikrlarini esga olish mumkin: “Ortiqchalik – bu tilning kamchiligi emas, balki uning ishtirokisiz til faoliyat koʻrsata olmaydigan eng muhim omildir”<sup>46</sup>.

Tildagi ortiqchalik haqida soʻz yuritilganda Shunga ham ahamiyat berish zarurki, ortiqcha qoʻllanilayotgan til birliklarini ularning takroriy qoʻllanilishi maʼnosida tushunmaslik kerak. Qiyoslaylik: *Men 2011 yildan boshlab magistrman.* Ayni paytda *-man* Shaxs-son qoʻshimchasi takror emas, balki jumla tarkibida kesim vazifasida kelayotgan soʻzga sintaktik faollik beruvchi grammatik-funksional vosita, uni tildan nutqqa koʻchirayotgan morfologik birlik sifatida faollik koʻrsatmoqda. Bu esa tildagi ortiqchalikning nutq

---

<sup>45</sup> Бу ҳақда қаранг: Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм.-Тошкент: Фан, 1988.-Б. 4-13.

<sup>46</sup> Глисон Г. Введение в дескриптивную лингвистику. – М.: Иностранная литература, 1959. – С. 368.

jarayonida eng muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq bundan tildagi ortiqchalik har doim ham til birliklarini nutqqa ko'chiruvchi vosita vazifasida keladi, degan xulosa kelib chiqarmaslik kerak. Chunki til birliklarining nutqqa ko'chirilishida turli xil morfologik vositalar ishtirok etadi. Bunday vositalarni Praga tilshunoslik maktabining yirik namoyandalaridan biri A. Martine "monema" termini orqali izohlagan edi. A.Martine ta'limotiga ko'ra, *monema* nutqning eng kichik birligi hisoblanib, uning vositasida til unsurlari nutqda sintaktik faollik oladi, yoxud u o'zi-o'ziga sintaktik aktuallik baxsh etadi.

A.Martine monemaning quyidagi uch xil ko'rinishini bir-biridan farqlashga intiladi: avtonom (muxtor) monema, funksional monema, qaram (tobe) monema<sup>47</sup>.

Avtonom (muxtor) monema vazifasida kelgan morfologik vositalar tildan nutqqa ko'chganda boshqa biror monemaning yordamiga muhtoj bo'lmaydi. Bunday monemaga tillarda kirish so'z, undalma vazifalarida kelgan so'zlar misol bo'la oladi. Funksional monema esa o'ziga qaram bo'lgan biror vositaga sintaktik funktsiya beradi va uni bir paytning o'zida tildan nutqqa ko'chiradi. Masalan: *Talabaning kitobi*. Bunda qaratqich kelishigi qo'shimchasi (-ning) ishtirokisiz *Talaba* so'zi nutqiy funktsiya bajara olmaydi. Demak, o'zbek tilida -ning affiksi yordamida funksional faollik olayotgan so'z qaram monemadir, -ning affiksi esa funksional monema vazifasini bajarib kelmoqda.

Ortiqchalik (pleonazm)ning xilma-xil turlari mavjud. Shulardan biri semantik ortiqchalik bo'lib, Shulardan biri semantik ortiqchalikdir. Bundan hodisa badiiy matnlarda muhim uslubiy vositalardan biri sifatida fajllashadi<sup>48</sup>. Masalan: *Qaysi kuni yig'lab ketdi bir mo'ysafid chol* (A.Oripov). Keltirilgan misrada *mo'ysafid chol* birikmasi semantik ortiqchalikni vujudga keltirgan. "Chol" leksemasi quyidagi denotativ semalarga ega: "Shaxs", "qarilik belgisiga egalik", "soch-soqoli oqargan", "yoshi katta" kabi. Bu o'rinda "muysafid chol" birikmasining ikkala komponentida ham semantik maydon "qarilik" bo'lib, "chol" arxisema, ya'ni umumiy sema sanaladi. "Muysafid chol" birikuvida "nisbatan qari" semalarini sub'ektiv munosabatda ta'kidlab ko'rsatishga xizmat

<sup>47</sup> Мартине А. Основы общей лингвистики. – Новое в лингвистике, вып. 3. – М.: 1963. – С. 463-552.

<sup>48</sup> Юсубова Р.Н. Ҳозирги ўзбек поэзиясида лисоний тежамлилик ва ортиқчалик (А.Орипов лирикаси мисолида). НДА. – Тошкент, 2011. – Б. 15-16.

qiladi. Xuddi shuningdek, u raiyyat, // ya'ni xalqning g'uch irodasi (A.Oripov); Hanuz ko'ksimizni tirnaydi firoq, // Garchi siz muzaffar, g'olib, qahramon (A.Oripov); Qurib ketgan, suyagiga yopishgan eti, // qalbi to'la hasad ekan- noShukur banda (A.Oripov) kabi poetik matnlarda ham sinonim so'zlar (raiyyat // xalq, muzaffar // g'olib // qahramon), iboralar (qurib ketgan // eti suyagiga yopishgan) pleonastik Shaklda qo'llanib, uslubiy maqsad uchun vosita bo'lgan.

Nutqning shakllanishida funksional monema boshqa monemalarga nisbatan ancha sermahsul xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. N.Turniyozov va K.Turniyozovalarning "Funksional sintaksisga kirish" nomli asarida funksional monemaning A.Martine tomonidan qayd qilgan uch turi quyidagicha nomlangan: yarim funksional monema, funksional monema, superfunksional monema.

Bu ishda yarim funksional monema deyilganda, artikl, egalik, ko'plik, erkalaSh, kichraytirish qo'shimchalari kabi grammatik vositalar inobatga olingan. *Superfunksional monema* esa alohida olingan til birliklariga emas, balki birikma holdagi til unsurlariga hamda matn maqomida keluvchi qo'shma gap komponentlariga nutqiy faollik berishlari bilan funksional monemaning boshqa turlaridan keskin farq qiladi.

Hozirgi davrda jahon tilshunosligida bo'lganidek, o'zbek tilshunosligida ham "matn lingvistikasi" deb nomlanayotgan soha tez sur'atlar bilan shakllanib bormoqda. Bu soha o'z diqqatini gapdan katta kommunikativ shakllanishlarning xususiyatlarini o'rganishga qaratmoqda. Matn tilshunosligi ma'nolari alohida gap ichida tabiiy ravishda ochilmaydigan, semantik vazifalari matndagi mustaqil gaplarning rang-barang mazmuniy munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi til birliklarining haqiqiy tabiatini atroflicha tushuntirishga, izohlashga intilmoqda. Masalan, o'zbek tilidagi *-ku, -da, -oq // -yoq, -ki* singari ta'kid yuklamalarini o'rganish uzoq yillar gap doirasida chegaralanib keldi va ularga "gapdagi so'zlarning ma'nolarini yoki gap mazmunini ta'kidlaydi", deb umumiy ta'riflar berildi. Hozirgi vaqtda matn tilshunosligi esa bu yuklamalarga mustaqil gaplarning mazmuniy, kommunikativ, emosional-ekspressiv holatlarini Shakllantiruvchi (ifodalovchi) va ayni paytda ularning matniy (tekstual) bog'lanishlarini yo'lga qo'yuvchi lisoniy birliklar sifatida qaraydi. Masalan, *Men bordim-ku. Siz nega bormadingiz?*

matnida *-ku* yuklamasining vazifalari eski xabar (tema)ni – “bordim”ni ta’kidlab ko’rsatish va Shu orqali ikkinchi gapdagi uyg’un semantikali nisbiy yangi xabar (rema)ga – “bormadingiz”ga ham urg’u berish, ayni paytda oldingi va keyingi gaplarning kesimlarini aktuallashtirib nisbatlaSh orqali bog’lash, Shuningdek, ta’kidlashning bu turi orqali “Shunday bo’lsa ham” yoki “hech narsaga qaramay” kabi qo’shimcha his va yordamchi mazmunlar (presuppozitsiyalar) ifodalash uchun xizmat qiladi<sup>49</sup>.

Shu kunga qadar o’zbek tilshunosligida *xullas, birinchidan, ikkinchidan* singari ayrim so’zlar tashqi o’xshatishlar asosida modal so’zlar guruhida o’rganib kelinmoqda. Bu so’zlar ajraluvchan mavqeiga ko’ra *ko’rinishicha, ehtimol* kabi modal so’zlarga juda o’xshash bo’lsa-da, ular o’zlarining ma’no turlariga ko’ra modallik kategoriyasi bilan unchalik aloqasi yo’q. Aslida *birinchidan, ikkinchidan, xullas* kabi so’zlar gap ichiga kirib olgan *matn bog’lovchilari* bo’lib, o’zlarining modal bo’lmagan qo’shimcha ma’nolari bilan ajralib turadi. Yoki *men, sen, biz, o’sha, o’z* singari olmosh turkumiga oid so’zlarning gap ichi imkoniyatlari asosida o’rganilishi ularga xos bo’lgan ma’no va vazifalar ko’lamining noto’liq ochilishiga sabab bo’lmoqda. O’zbek tilida olmoshlar ko’p hollarda matn bog’lovchilari vazifasini bajarsa ham, ba’zan nutqiy situatsiya bilan bog’liq holda o’zlarining *ishora ma’nolarini* ham anglatadilar.

4. Ko’chirma gapli qurilmalar, o’zga gap shakllari gap va matn oralig’idagi hodisalar bo’lib, bular ham gap sintaksisi va matn tilshunosligining hamkorliklaridagina chuqur tadqiq etilishi mumkin.

Til birliklari, avval eslatib o’tilgani singari (terminlardan tashqari), mavhum ifodali xususiyatga ega bo’ladi. Ular nutqqa ko’chirilgandagina konkret ma’no kasb etadi. Umuman, tilning nutqda qo’llanilgan har qanday birligi ham mavhumlik iskanjasida qolib ketavermaydi. Aks holda, bu birliklar orqali berilayotgan xabar ifodasiga putur etkazilgan bo’ladi. Masalan, til sistemasidagi *yong’in* so’zini oladigan bo’lsak, uning mavhum ifodali ekanligi izoh talab qilmaydi. Lekin u *yong’in!* tarzida nutqqa ko’chirilsa, nafaqat konkret ifodali, balki mustaqil holdagi alohida matn maqomida bo’ladi. Bu esa, o’z navbatida,

---

<sup>49</sup> Бу ҳақда қаранг: Раҳимов У.Э. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси. НДА. – Самарқанд, 1994. – Б. 9-21; Базаров О.О. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив (актуал) тузилиши. НДА. – Фарғона, 2004. – Б. 6-20.

matn tushunchasining keng ko‘lamli ekanligidan dalolat beradi. Boshqacha qilib aytganda, matn bir so‘z bilan ham, bir necha so‘z bilan ham, bir necha gap bilan ham, bir necha abzas bilan va bir necha bob bilan ham ifodalanishi ham mumkin. Fikr isboti uchun quyidagi misollarga e‘tibor qarataylik:

1. O‘zbek romanlarining nomlari: *“Ufq”, “Shaytanat”, “Yulduzli tunlar”, “Tangri qudug‘i”, “Sarbadorlar”, “Shinelli yillar”, “Ikki eShik orasi”* kabilar.

2. *O‘rikning turli navlari, qanday payvand qilishi, naycha payvand, kurtak payvandlar to‘g‘risida so‘rab-surishtirib, ancha narsalarni bilib oldim. Niyatim – bir fidoyi bog‘bon obrazini yaratish edi. Shu bog‘bonning faoliyati bevosita Yozyovon cho‘llariga aloqador bo‘lishi kerak* (Said Ahmad. Umrin bayoni).

3. *Bittagina hikoyani oboramanmi, deb yoniga “O‘rik domla”ni qo‘shib “Sharq yulduzi”ga olib bordim. Asqad Muxtor redaktor edi. U ikkala hikoyani ham o‘qib, ma‘qul topdi. Albatta, bosamiz, dedi.*

*Men unga “O‘rik domla” ikki gazetadan qaytganini qo‘rqa-pisa aytdim. Agar Asqad ham lanjlik qilsa, hikoyani yirtib tashlamoqchi edim.*

*Yo‘q, Asqadga yoqdi.*

*- Ularga yoqmagani bizga foyda bo‘ldi,- dedi u jiddiy.*

*Oradan bir yarim oy o‘tib, jurnalda “Ikki hikoya” umumiy sarlavhasi ostida “Poyqadam” va “O‘rik domla” bosilib chiqdi. Hikoya ko‘pchilikka ma‘qul bo‘ldi* (Said Ahmad. Umrin bayoni).

Keltirilgan misollarning birinchisida matn ifodasining bir so‘z bilan yoki ikki so‘z (birikma) orqali ifodalanayotgani ko‘rinadi. Bunday vaziyatda mustaqil so‘z va so‘z birikmalari to‘liq predikativlik ma‘nosiga ega bo‘ladi hamda voqelikka ma‘lum bir yaxlit munosabat bildirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi misolda esa matn yoyiq holatda kelgan uchta sodda gapning o‘zaro birikuvi natijasida voqelangan murakkab sintaktik qurilma orqali ifodalanmoqda. Bunday vaziyatda matn o‘zaro bog‘langan murakkab sintaktik qurilma qolipidagi uch komponentdan tashkil topgan bo‘ladi.

Uchinchi misolda esa matn komponentlari to‘rt abzasdan tashkil topgan. Ayni paytda bu matn tarkibiga kirgan abzaslar o‘zaro mazmuniy jihatdan bog‘langan bo‘ladi.

Gaplarning mazmun turlarini matn omillari zaminida tadqiq etish matn tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Matn tilshunosligining adabiyotshunoslik fani bilan mustahkam aloqasi tilning estetik funksiyalarini filologik zaminda turib chuqur tadqiq etish uchun keng imkoniyat yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, har qanday matn ham til birliklarining nutqda real qo‘llanilishi uchun o‘ziga xos makon, maydon vazifasini bajaradi. Til birliklari hajman katta yoki kichik bo‘lishidan qat’i nazar, ular nutq jarayonida (matn tarkibida) o‘zining tom ma’nodagi mazmuniy ifodasiga ega bo‘ladi. Nazariy tilshunoslik doimo til ta’limining mazmun mundariyasi va yo‘nalishini belgilab kelganligini inobatga oladigan bo‘lsak, o‘zbek tili birliklarining matn oqimidagi rang-barang xususiyatlarini chuqur tadqiq etish va bu sohadagi yutuqlarni o‘zbek tili ta’limiga, lingvodidaktikasiga olib kirish matn tilshunosligi fanining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

#### **Mavzu bo‘yicha savollar:**

1. Tilning jamiyatdagi o‘rni va vazifasi haqida tushuncha.
2. Tilning sistemalik xarakteri va strukturasi orasidagi munosabat.
3. Tilning belgilik xususiyati va uning nutq jarayonidagi in’ikosi.
4. Til belgisi va uning o‘ziga xos sifatlari.
5. Matn tarkibida so‘zning lug‘aviy (leksik) va grammatik ma’nolarini farqlash tamoyillari.
6. Ferdinand de Sossyurning “til va nutq” dixotomiyasi haqidagi ta’limoti haqida tushuncha.
7. Til birliklarining mavhum va ko‘p ma’noli xarakteri, nutq birliklarining esa konkret va yakka ma’nolik xususiyati.
8. Lisoniy va nutqiy ortiqchalikning umumiy hamda farqli belgilari.

**5-Mavzu**  
**“MATN TILSHUNOSLIGI” FANIDA NUTQ**  
**DERIVATSIYASI MUAMMOLARINI O‘RGANISH**  
**Reja:**

1. Nutq til sistemasining amalda qo‘llanilish ob‘ekti sifatida.
2. Derivatsion jarayonda matn tarkibida sintaktik strukturalarning Shakllanish omillari.
3. Matn tarkibidagi nutqiy parchalarning bir-biri bilan ketma-ket (paradigmatik) bog‘lanishi haqida tushuncha.

**TAYANCH so‘z va iboralar:** *nutq derivatsiyasi, operand, til va nutqning o‘zaro munosabati, nutqiy faoliyat,*

Ma’lumki, hozirgi vaqtda jahon tilshunosligida inson nutqining Shakllanish jarayoni va uning real qo‘llanishi kabi masalalarni o‘rganishdek dolzarb vazifalar turibdi. Bunda asosiy e’tibor til sistemasining nutqda qo‘llanilishi va bu jarayonda jumlaning, jumlarlar majmuasining nutqiy zanjir sifatida voqealanishi, uning ahamiyatini o‘rganish masalasiga qaratilmoqda.

Aytish lozimki, F.de Sossyur ta’limotiga ko‘ra nutq bilan nutqiy faoliyat farqlanadi, ular muShtarak hodisalar emas. Nutq insonning nutqiy faoliyati mahsulidir. Nutqiy faoliyat o‘ta dinamik xarakterga ega, zotan, u insonning jamiyatda tutgan mavqei bilan, yashash tarzi bilan uzviy bog‘lanadi. Lingvistika (o‘zbek tili) yo‘nalishi bo‘yicha magistratura ta’limi o‘quv dasturidan o‘rin olgan “Matn tilshunosligi” o‘quv predmetida xuddi ana shu masalalarni hozirgi zamon tilshunosligi yutuqlari negizida o‘rganish ko‘zda tutilgan.

Nutqni insonning so‘zlaShuv jarayonida vujudga keladigan yaxlitlan-gan til materiali sifatida idrok etamiz. Inson o‘z nutqiy faoliyatida til sistemasidan foydalanadi. Inson nutqi til birliklarining kesishish chizig‘i hisoblanadi va bunda til unsurlarining



pogʻonali munosabati vujudga keladi<sup>1</sup>. Boshqacha aytganda, til birliklarining har biri oʻzidan katta birlik sathida qoʻllanila boshlaydi. Ana Shu nuqtai nazardan nutq ham dinamik xarakter kasb etadi.

Inson nutqining eng asosiy xususiyatlaridan biri uning bogʻlanishli ekanligidir. Mazkur xususiyat nutqning tarkibiy qismlari hisoblovchi gap, ilovali qurilmalar, murakkab sintaktik qurilmalar, abzas kabilarning oʻzaro semantik va sintaktik munosabatidan kelib chiqadi. Ular oʻrtasida bunday munosabat boʻlmas ekan, nutqda oʻzaro aloqadorlik, pogʻonali munosabat ham boʻlmaydi. “Matn tilshunosligi” fani oʻrganilayotgan da masalaning ana Shu tomonlari konkret misollar tahlili asosida ochib berilishi lozim.

RavShanki, nutq til sistemasining amalda qoʻllanilishi obykti sanaladi. Shu bois nutqni gap va undan katta birliklarning majmuasidan shakllanadi deyilsa, masala mohiyatiga bir tomonlama yondilgan boʻladi. Chunki inson nutqi birinchi galda unli va undash tovushlarning oʻzaro sintagmatik munosabatini taqozo etadi. Biroq ayni paytda “Matn tilshunosligi” kursida asosiy eʼtibor matn va nutq derivasiyasiga qaratilgani uchun oʻqituvchi sintaktik strukturalar haqida ham mulohaza yuritishi lozim boʻladi.

Nutq nafaqat til sistemasi unsurlarining amalda qoʻllanilishini, balki soʻzlovchining individual tajribasi va bilimining ham hayotga tadbiq etilishini koʻrsatadi. Shunga koʻra, dars jarayonida nutq ikki narsani - til materiallari va soʻzlovchining ularga munosabatini taqozo etadi, deb izohlanishi maqsadga muvofiqdir.

Maʼlumki, hozirgi tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri til bilan nutqning oʻzaro munosabatini oʻrganishdan iboratdir. Mazkur muammo talqini barcha lingvistik nazariyalarga asos boʻladi. Bu holat sintaktik nazariyalarda yanada oʻChiqroq koʻzga tashlanadi.

Shuni ham taʼkidlash lozimki, hozirgi patgacha tilshunoslarning asosiy eʼtibori til hodisalarini oʻrganishga qaratildi, nutq lingvisti-kasi, matn tarkibidagi nutq birliklarining derivatsion imkoniyatlari esa olimlar eʼtiboridan chetda qolib keldi. Shu bois hozirgi

---

<sup>1</sup> Турниёзов Н.Қ. Нутқ лингвистикасига доир баъзи мулоҳазалар // Нутқ лингвистикаси (халқаро илмий-назарий конференция материаллари). – Самарқанд, 2006. – Б. 6-7.

paytda nutq lingvistikasi masalasiga jiddiy e'tibor berilmoqda. To'g'ri, o'tgan asrning 50-yillarida mazkur masalaga bir guruh olimlarning e'tibori qaratilgan edi. Lekin jahon tilshunosligida ayrim Chalkashliklar kelib chiqqanligi sababli bu masala tilshunoslarning ilmiy ishlarida etarli ahamiyat kasb eta olmadi. Masalan, V.Skalichka nutqni stilistik hodisa deb targ'ib etgan bo'lsa<sup>2</sup>, E.Koseriuning tadqiqotlarida esa nutq o'ta keng hajmli hodisa sifatida izohlanadi va til uning ma'lum bir qismiga tenglashtiriladi<sup>3</sup>.

Ko'rinadiki, tilshunoslikda nutq derivatsiyasi, uning matni shakllantirishdagi o'rni kabi umumnazariy masalalarning qandaydir bir qirrasini yoritiladi, xolos. Shunga ko'ra, bunday qarashlarda ayrim nuqsonlar ham ko'zga tashlanadi. Bunday nuqsonlar sirasiga til sistemasining nutqda real qo'llanilishi, til belgilarining matn tarkibidagi o'zaro munosabati kabi masalalarning nazardan chetda qolganligini kiritish mumkin.

Shuni alohida eslatib o'tish kerakki, bog'lanishli nutq komponentlarining o'zaro sintaktik munosabatlari *sintagmatik* qatorda voqelanadi, ya'ni matn tarkibida nutq parchalari bir-biri bilan ketma-ket bog'lanadi. Bunda ularning semantik holati hamda sintaktik salmog'i bir xil darajada bo'lishi shart emas.

So'zlashuv jarayonida so'zlovchining zimmasiga matn yoki nutqning to'g'ri va ravonligini ta'minlash vazifasi yuklatiladi. Aks holda tinglovchisi uchun xabar mazmunida nuqsonlar ro'y berishi mumkin. Shu bilan birga, so'zlovchi va tinglovchini muloqotida ularning ijtimoiy holatlari ham muhim mavqega ega bo'ladi. Masalan, tilshunos bilan kosmonavtning yoki kimyogar bilan dengiz ishchisining nutqiy muloqotlarida nutq komponentlarini mukammal qo'llaniladi deb bo'lmaydi. Shuning uchun nutqning benuqson bo'lishini faqat lokal bog'liqlik hamda global holatda, ya'ni nutq parchalarining umumiy aloqasi bilangina izohlab bo'lmaydi. Bunda so'zlovchi bilan tinglovchiining umumiy tayyorgarligi ham katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Tub struktura – bu eng kichik (minimal) semantik struktura bo'lib, u har qanday xabar ifodasini beruvchi nutq birligining shakllanishida muhim ahamiyatga ega

---

<sup>2</sup> Бу ҳақда қаранг: Курилович Е. Деривация лексическая и деривация синтаксическая // Очерки по лингвистике. – М.: Иностранная литература, 1962. – С. 58-64.

<sup>3</sup> Турниёзов Н.Қ. Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1990; Залевская А.А. Некоторые проблемы теории понимания текста // Вопросы языкознания 2002. № 3.

boʻlgan *bazal (bazaviy) strukturani* taqozo etadi. Ana Shu bazal struktura asosida nafaqat maʼlum bir gap, balki murakkab sintaktik qurilmalar, abzasdan tortib makromatngacha boʻlgan nutq parchalari Shakllanishi mumkin. Bularning baricha sintaktik derivasiya nazariyasiga asoslanadi, zotan, har bir Shakllanishning oxirgi natijasi derivatni (hosilani) taqozo etadi.

Soʻz birikmalari, Shubhasiz, sintaktik derivasiya mahsuli hisoblanadi va bogʻlanishli nutqda, matnda maʼlum bir gap doirasida shakllanadi. Bundan, albatta, mustaqil matn holida qoʻllanilgan soʻz birikmalari mustasno. Chunki ular gapdan tashqarida voqelanadi.

Soʻz birikmasining xomashyosi sifatida ikki (baʼzan bir necha) operand qatnashadi va ular derivasion munosabatga real operator, belgisiz operator yoki nol operator vositasida kirishadi:

1. *Simvol drujby.* 2. *Mustaqillik poydevori.* 3. *Doʻstlik tayanchi.*

Keltirilgan misollarning birinchi ham, ikkinchisi ham, uchinchisi ham ikki operandli boʻlib, birinchisida real operator **-Ы**, ikkinchisi va uchinchisida belgisiz qaratqich kelishigi hamda egalik qoʻshimchasi ishtirok etmoqda.

Derivasion jarayonda sintaktik strukturalarning Shakllanishi uchun operator muhim mavqega egadir. U matnlarni Shakllantirishda turli xil vositalar yordamida ifodalanadi. Masalan, predlog, teng va ergashuvchi bogʻlovchilar, koʻmakchilar, kelishik affikslari ana Shunday vositalardan hisoblanadi.

Shunga alohida ahamiyat berish kerakki, matn tarkibida sintaktik strukturalarning kichigi nisbatan katta struktura sathida faollik oladi. Shu bois gap oʻzidan kichik birlik - soʻz birikmasining derivasion jihatdan faollik olishi uchun ham asosiy sintaktik maydon hisoblanadi. Gapning sintaktik Shakllanishi esa matn tarkibida roʻy beradi. Bunda “Matn tilshunosligi” fanidan dars beruvchi oʻqituvchi mikro – va makromatnlarni farqlashga alohida ahamiyat berishi lozim. Har qanday katta matn oʻzidan kichik matnlarga nisbatan makromatn sanaladi. Shuning uchun abzasni murakkab sintaktik qurilmalar uchun makromatn tarzida, bobni abzas uchun makromatnlar tarzida oʻrganish yaxshi samara beradi.

**6- MAVZU**  
**MATNDA SINTAKTIK ALOQANI TA'MINLOVCHI**  
**LEKSIK VOSITALAR**

**Reja:**

1. Matn komponentlarining o'zaro sintaktik bog'lanishi haqida tushuncha.

2. Matn komponentlarining o'zaro sintaktik bog'lanishida leksik takror, sinonimik munosabatlar, olmoshlar, kirish so'z va birikmalar hamda bog'lovchilarning o'rni haqida.

Tayanch so'z va iboralar: matn, matn komponentlari, matn komponentlarining sintaktik aloqasi, matnning sintaktik aloqani ta'minlovchi vositalar, leksik takror, olmoshlar, sinonim so'zlar, abzatslararo sintaktik munosabat.

1. Matn komponentlarining o'zaro sintaktik bog'lanishi haqida tushuncha. Keyingi yillarda jahon tilshunosligida matn, uning mohiyati, leksik va grammatik xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan ishlar ortib bormoqda. Ularning aksariyatida matn komponentlarining semantik aloqasini o'rganishga asosiy e'tibor qaratiladi. Buning uchun vaqt keldi, zotan, matn faqat semantik jihatdan emas, balki sintaktik jihatdan ham yaxlitlikni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, matn komponentlari qanday yo'sinda bo'lmasin sintaktik jihatdan ham o'zaro bog'langan bo'ladi.

2. Kuzatishlar Shundan dalolat beradiki, matn komponentlarining o'zaro sintaktik bog'lanishiga quyidagi omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi: a) leksik takror; b) sinonimik munosabatlar; v) olmoshlar; g) kirish so'z va birikmalar; d) bog'lovchilar.

Ba'zan leksik takror matn komponentlarining sintaktik aloqasi uchun asos bo'ladi: *Mana bugun, Nizomjon yana Dildor bilan uchrashdi. Nizomjon yig'ilib qolgan gaplarini entikib, shoshilib gapirar, Dildor bo'lsa beparvogina uning gaplariga quloq solib borar edi. Umuman, Dildor keyingi paytlarda sal boshqacharoq bo'lib qolgan edi. Nizomjonni ko'rganda bir qizarib olardi-da, pildirab qochib ketardi* (S.Ahmad. Ufq).

Keltirilgan matnda *Nizomjon* va *Dildor* so'zlariga e'tibor bersak, ularning turli sintaktik vazifalarda kelib, matn komponentlarining o'zaro sintaktik munosabatini

ta'minlanayotganini ko'ramiz. Birinchi gapda *Nizomjon* ega, *Dildor* to'ldiruvchi, ikkinchi komponent – murakkab sintaktik qurilmada esa *Nizomjon* va *Dildor* so'zlarining har ikkalasi ham ega vazifasida kelmoqda. Uchinchi gapda *Dildor* ega vazifasida, to'rtinchi gapda esa *Nizomjon* so'zi to'ldiruvchi bo'lib kelmoqda. Bundan tashqari, mazkur matnda *gaplari* so'zi ham takroriy qo'llanilib, bir o'rinda vositasiz, ikkinchi o'rinda esa vositali to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Sinonimik so'zlar badiiy matn komponentlarining sintaktik munosabatini ifodalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda bir komponentning sathida kelayotgan ma'lum bir so'zning ikkinchi, uchinchi va h.k. komponentlarda sinonimlari yoki sinonimik ma'noli unsurlari ishtirok etadi: *Qish* sovuqlari ham *Gavharshodbegimning* hayotidan uzoqlashib ketdi. *Ulug'bek* . . . ikki qavatli ko'shkdan *onasi* Sharafiga katta *qabul marosimi* o'tkazdi. Marosimda *Gavharshodbegimning* barcha *kelinlari* Shaharning *aslzoda ayollari* ham ishtirok etdilar. *Ziyofatdan* so'ng *hammalariga* sarupolar ulaShildi. (P.Qodirov. Ona lochin vidosi).

Keltirilgan matnda sinonimik ma'noli quyidagi so'zlar mavjudligini ko'ramiz: *Gavharshod begim* – *ona (si)*, *qabul marosimi* – *ziyofat*, *kelinlar (i)*, *aslzoda ayollar* – *hammalari(ga)*, *barcha* – *hamma*.

Ayni paytda matn komponentlari (gaplar)ning soni to'rtta bo'lib, sinonimik ma'noli so'zlar ularning barichada qatnashmoqda va komponentlarning o'zaro sintaktik aloqasini ta'minlaydi<sup>1</sup>.

Matnning tarkibiy qismlari o'rtasida sintaktik aloqa shakllanishi uchun olmoshlarning ham ahamiyati juda kattadir. Bunda olmoshning ot, sifat, son, ravish kabi mustaqil so'zlar o'rnida qo'llanila olishi muhim mavqega ega bo'ladi: *Mehmonlar og'ir sukunatdan qorong'i xonaqohga bitta – bitta kirdilar. Barcha o'zini go'yo payg'ambar qabri oldida his etardi. O'rtadagi toShni navbat bilan bir – bir o'pib, ho'ng – ho'ng yig'ladilar.*

---

<sup>1</sup> Сильман Т.И. Синтактико – стилистические особенности местоимений // Вопросы языкознания, 1970, № 4. – С. 23-24.

*Gumbaz ustidagi kabutarlar ovozi ularga guyo samodan kelgan payg'ambar ovozi kabi tuyulardi* (Oybek. Ulug' yo'l).

Berilgan matn to'rt komponentli bo'lib, birinchi va ikkinchi gaplar barcha jamlovchi olmoshi vositasida, ikkinchi va uchinchi gaplar implitsit ifodali *ular* uchinchi va to'rtinchi gaplar esa *ularga* olmoshlari bilan sintaktik aloqada ekanligini ko'ramiz. Mazkur olmoshlarning baricha *mehmonlar* so'zining substitutlari sifatida kelib *barcha* – ega, yaShirin holda kelayotgan *ular* ham ega, *ularga* olmoshi esa vositali to'ldiruvchi funksiyalarini bajarmoqda.

Matn komponentlarining sintaktik aloqasi kirish so'z vositasida voqelanishi ham mumkin. Bunda kirish so'z o'z vazifasiga ko'ra bog'lovchiga yaqinlashadi<sup>2</sup>. Xususan, kirish so'z vazifasida kelgan modal so'zlarda bunday imkoniyat ancha salmoqlidir. Kirish so'zlar hozirgacha tilshunoslikda gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga ega emas, degan fikr qat'iylaShgan.

Matn shakllanishida bog'lovchilar ham muhim vazifa bajaradi. Bunda bog'lovchilarni vazifalariga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) mustaqil gaplarning o'zaro munosabatini ta'minlovchi bog'lovchilar; b) abzatslar munosabatini ta'minlovchi bog'lovchilar. Matn tarkibidagi mustaqil gaplarning sintaktik munosabatini ta'minlovchi bog'lovchilar mikro maydonda ham, makro maydonda ham qo'llanishi mumkin.

Bog'lovchi makromatn tarkibida kelganda ko'proq abzatslarning semantik va bir paytning o'zida sintaktik aloqalarini ta'minlash uchun xizmat qiladi:

1. *Atrofni o'rab kelayotgan merganlar yoy o'qi bilan uni nishonga olayotganlariga ko'zi tushib, vahimasi battar oShdi. Sarosima ichida qoyatoShning narigi pana tomoniga o'zini otdi.*

*Biroq qoyaning narigi tomoni ikki yuz quloch balandlikdagi toSh jarzov edi. Zov tagidan o'tgan Hirot daryosi tog'lardan kelgan sel bilan to'lib-toShib oqmoqda* (P.Qodirov. Ona lochin vidosi).

2. . . . oshirib bajarganlarga ustama mukofot belgilash; tog'da sobiq Quyki rayonini tiklaSh; uning o'ziga xos ekonomikasi bilan alohida Shug'ullanish . . .

---

<sup>2</sup> Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика: - М.: Высшая школа, 1973. – С. 76-79.

*Lekin bu takliflarni* aytish uchun Orif aka ko'p idoralarning ichiga kirib Chiqdi (A.Muxtor. CHinor).

Berilgan misollarning har ikkisi ham makromatnning muayyan parchalari sanaladi. Birinchi misolda makromatnning ikki abzatsi *biroq* zidlov bog'lovchisi orqali sintaktik va semantik munosabatga kirishayotgani ni ko'ramiz. Ayni paytda ikki abzatsning sintaktik aloqasi uchun *qoya, narigi tomoni* so'z va so'z birikmalari ham xizmat qilmoqda. Bu o'rinda abzatslararo leksik takror qo'llanilayotganini ko'ramiz. Mazkur vositalar, o'z navbatida, abzatslar o'rtasidagi sintaktik munosabatning yanada mukammalroq tus olishiga ko'maklashmoqda.

Ikkinchi misolda abzatslararo sintaktik munosabat *lekin* zidlov bog'lovchi vazifasida shakllangani ko'zga tashlanadi. Bu o'rinda ham sintaktik aloqaning uzviy ekanligini qayd etamiz. Chunki ayni paytda ikki abzats sintaktik munosabati uchun ikkinchi abzats boshida kelayotgan bog'lovchidan tashqari, *bu* ko'rsatish olmoshi hamda birinchi abzatsda ma'no salmog'ini umumlashtirib ko'rsatayotgan *takliflar* so'zining ham ahamiyati katta bo'lmoqda.

Shunday qilib, matn komponentlarining turli yo'llar bilan, jumladan, leksik takror, sinonimik vositalar, olmosh - substitutlar, kirish so'z va birikmalar, bog'lovchi kabilar yordamida sintaktik munosabat tashkil etishini ko'ramiz. Bunday vositalarning har biri kelgusida alohida tadqiqotlar uchun asos bo'la oladi.

Nazorat savollari:

1. Matn komponentlarining o'zaro sintaktik bog'lanishi haqida tushuncha.
2. Matn tarkibida mustaqil gapning sintaktik munosabatini izohlang.
3. Matnda abzatslararo sintaktik munosabat qanday ta'minlanadi?
4. Mikromatnda abzatslararo sintaktik munosabatni ta'minlashda bog'lovchilarning ishtirokini qanday izohlaysiz?
5. Matndagi sintaktik aloqani ta'minlashda olmoshlar va ma'nodoSh so'zlarning o'rni.

## **7- MAVZU**

### **MATN KOMPONENTLARINING SEMANTIK VA PRAGMATIK MUNOSABATLARI**

## Reja:

1. Matnda ifodalanadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va radikal semantik munosabatlar haqida tushuncha.

3. Mantiq va til kategoriyalarining o‘zaro aloqasi hamda farqli tomonlari va o‘zbekCha matnlarning sintaktik va pragmatik tahlili haqida.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Matn va uning xarakterli belgilari, matn – nutq maxsuli sifatida, matndagi semantik munosabat, radikal semantik munosabat, bevosita semantik munosabat, bog‘lanishli nutq, matn komponentlarining pragmatik munosabati, “grammatik gap” va “mantiqiy hukm”, abzats makromatn komponenti sifatida.

Ma‘lumki, matnning har qanday turi ham tugallangan fikr ifodasini beradi. Bu matnning xarakterli belgilaridan biri sanaladi. Uning ikkinchi belgisi komponentlarining mazmunan bog‘lanishli ekanligi hisoblanadi. Zotan, matn gorizontaal chiziqda (sintagmatik qator doirasida) Shakllanadi va bu jihatdan kommunikativ yaxlitlikni tashkil etadi. Shunday bo‘lgaCh, o‘zbekCha matnlarda bog‘lanishlilik quyidagi ikki ko‘rinishda voqelanadi: a) matnda berilayotgan ikki va undan ortiq hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlik; b) hodisalarning o‘zaro qorishuvi natijasida shakllangan ma’no butunligida aks etuvchi bog‘liqlik.

1. Matn, albatta, nutqimiz mahsuloti sanaladi. Shuning uchun “bog‘lanishli nutq” (“svyaznaya rech”) tushunchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri matn bilan aloqadordir. Matnda bog‘lanishlilik uning komponentlari munosabatida, birinchi galda ularning semantik munosabatida o‘z aksini topadi. Tilshunos olimlar matnda ifodalanayotgan semantik munosabatni o‘z navbatida, quyidagicha ikki turga ajratib o‘rganmoqdalar:

1. Radikal munosabat. Bunda matn komponentlari o‘zaro to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanmay matnda ifodalanayotgan umumiy ma’no sathida munosabatga kirishadi.

2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bevosita munosabat. Bunda matnning tarkibiy qismlari bir - biriga bog‘liq bo‘ladi va birining ma’nosi ikkinchisining ta’sirida oydinlaShadi<sup>1</sup>.

Aytish lozimki, matn komponentlarining o‘zaro bog‘lanishiga xos bo‘lgan semantik munosabatning har ikki turi ham muhim ahamiyat kasb etadi, zotan, har bir matnning asosiy vazifasi ma’lum xabar ifodasini berishdan iboratdir. Bu esa semantik yaxlitlikni talab qiladi. Matnning bunday sifati muqarrar ravishda yozma nutqda kuzatiladi. Og‘zaki nutqda esa uning semantik butunligi har doim ham voqe bo‘lavermaydi. Chunki, og‘zaki

---

<sup>1</sup> Кожевникова К. Об аспектах связности в тексте как целом// Синтаксис текста. –М.: Наука,1979. – С. 56-58.



nutqda uzuq-yuluq jumlar ham ko'p ishlatiladi. Bundan tashqari, ma'no yaxlitligiga tinglovchiining replikasi ham sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Matn komponentlarining ma'no jihatdan bog'lanishli bo'lishi nafaqat matnning ma'no butunligini, balki uning tarkibiy qismlari sanaluvchi mustaqil gaplarning ham mazmuniy salmog'i bekami-ko'stligini ta'minlaydi. To'g'ri, matndan tashqarida gap grammatik jihatdan mutlaqo cho'lishi mumkin. Lekin uning ma'no butunligi faqat matn sathida boshqa gaplar bilan o'zaro munosabatda kelganda to'liq ifodasini topa oladi. Bu matn tarkibida qo'llanilgan barcha gaplarga xosdir, faqat matnning boshlanishida kelgan gap o'zining nisbiy mustaqilligi bilan Shu matn tarkibiga kirgan boshqa gaplardan farq qiladi<sup>2</sup>.

Matn tarkibida gaplarning o'zaro semantik munosabatlari xususida so'z yuritilganda, tafakkurimizda hukmlar majmuasi qanday bog'lanishini tasavvur etib ko'rmog'imiz lozim. Matn komponentlarining bog'lanishli ekanligini o'rganish til va tafakkur birligi dialektik qonuniyatidan kelib chiqadi. Shuning uchun mustaqil gaplarning o'zaro munosabati zamirida shakllanuvchi gapdan katta har qanday nutq birligi o'zining umumiy mazmuni salmog'i jihatidan tafakkur mahsulining til unsurlari vositasida ifodalanishini taqozo etadi.

Gapning so'zlar munosabatidan tashkil etilishini nazarda tutsak, bunda so'zning fikr ifodasini voqelantiruvchi belgi ekanligini dalilay olamiz. Biroq nutqimiz qolipida ro'y beruvchi psixologik muloqatda so'z emas, balki gap asosiy belgi sanaladi. Bu nutqimiz sathida gapning o'ziga xos maqomini, uning boshqa birliklardan (masalan, so'z, so'z birikmasi va h.k.) farqini aniq va ravshan namoyon etadi<sup>3</sup>.

2. Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar til bilan mantiqning o'zaro uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Ammo bu bilan mantiq va til kategoriyalari qorishib ketadi, demoqchi emasmiz, albatta. chunki mantiqning ham, tilning ham faqat o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlari mavjud. Shuning uchun sintaktik kategoriyalarni mantiq kategoriyalari nusxasi sifatida talqin etib bo'lmaydi. Ana shu bois hukm tushunchasini bu o'rinda shartli

---

<sup>2</sup> Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. –М.: Высшая школа,1973. – С. 49-59.

<sup>3</sup> Потебня А.А. Из записок по русской грамматике, т.1-2.-М.,1958. – С. 42-47.

deb bilmog'imiz lozim. A.A.Potebnya to'g'ri ta'kidlaganidek, grammatik gap mantiqiy hukm bilan bir xil ma'no kasb eta olmaydi<sup>4</sup>.

Darhaqiqat, hukmning aniq va mukammalligi faqat nutqda aniqlanadi. Buning uchun esa bir necha hukm o'zaro munosabatda olib tahlil etiladi. Shuning uchun an'anaviy mantiqda muayyan bir hukmni nutqdan tashqari holatda olib tahlil qilinishi bugungi kun talablariga javob berolmay qoldi.

Bugungi kunda an'anaviy grammatikalarda berilgan sintaktik qurilmalar tahlilidan o'zgacha tahlil materiallariga ehtiyoj tug'ilganligi sababli odatdagi semantik va sintaktik tahlillar doirasi ancha kengaydi. Boshqacha aytganda, matn lingvistikasi masalasi kun tartibiga asosli ravishda kirib keldi. Buning asosiy dalili sifatida hozirgi lingvistik tadqiqotlarda o'zaro bog'lanishli bo'lgan bir necha sintaktik qurilmalar nutqning yaxlit bir bo'lagi sifatida talqin etilayotganini ko'rsatish mumkin.

Nutqda o'zaro bog'liq bo'lgan gaplarning semantik va sintaktik muammolarini o'rganishda mazkur gaplarni alohida olmay, har birini boshqalari bilan bog'liq holda talqin etilgandagina ularning ma'no tugalligi haqida so'z yuritish mumkin. Bunday vaziyatda mazkur gaplarning nafaqat ma'no tugalligi, balki sintaktik xususiyatlarining ham ancha mukammal izohlanishi uchun imkoniyat yaratiladi. Masalan, ma'lum bir nutq parchasida *namoyish* xususida fikr bildirilayotgan bo'lsa, *nampyishcilar* (demonstrantы) so'zi bunday matn uchun sub'ekt vazifasini o'taydi, zotan, mazkur so'z bir o'rinda gapda o'zining asliy Shaklida, boshqa gaplarda esa olmosh bilan (masalan, *ular*, *o'zlari* olmoshlari), o'zga bir sinonimik so'z bilan (masalan, *kishilar*, *odamlar*, *xalq*) ifodalanadi va har safar gapda bu tushunchaning mavjudligini his etamiz.

Matn komponentlari tarkibida biror so'z yoki birikmaning bu taxlit qo'llanishi nafaqat semantik, balki sintaktik vazifa ham bajaradi. Chunki mazkur so'z oldingi gapda grammatik ega vazifasida kelsa, keyingi gaplarda to'ldiruvchi, aniqlovchi bo'lib qo'llanilishi ham mumkin<sup>5</sup>.

---

<sup>4</sup> Потебня А.А. Из записок по русской грамматике, т.1-2.-М.,1958. – С. 68-69.

<sup>5</sup> Турниёзов Н., Йўлдошев Б. Матн тилшунослиги (услугий қўлланма). – Самарқанд, СамДУ нашри, 2006. – Б. 58-62.

Ana Shulardan kelib Chiqib, o‘zbekcha matnlarni sintaktik va pragmatik tahlili bobida hali o‘z eChimini kutayotgan juda ko‘p jumboqlar mavjudligini ta’kidlash lozim.

Nazorat savollari:

1. Matnda ifodalanadigan radikal semantik munosabat haqida tushuncha.
2. Matnda ifodalanadigan bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri semantik munosabat xususiyatlari.
3. Mantiq va til kategoriyalarining o‘zaro aloqasi hamda farqli tomonlari.
4. O‘zbekcha matnlarning sintaktik va pragmatik tahlili haqida.

## **8- MAVZU**

### **MATN VA MURAKKAB SINTAKTIK QURILMANING O‘ZARO MUNOSABATI**

**Tayanch so‘z va iboralar:** matn, qo‘shma gap, murakkab sintaktik qurilma, period, sodda period, murakkab period, tub struktura, predikativ markaz.

Ma’lumki, til birliklari o‘z ichki tabiatiga ko‘ra doim o‘zidan katta birliklar sathida sintaktik faollik kasb etadi, ya’ni fonema morfema yoki so‘z sathida, morfema so‘z sathida, so‘z gap qolipida, gap esa matn doirasida nutqiy faollikka ega bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, hozircha sintaksisda, umuman matn tilshunosligida qo‘llanilib kelgan “qo‘shma gap” terminining ma’lum darajada izohtalab ekanidan dalolat beradi. Gap shundaki, qo‘shma gap deyilganda gapning o‘sha gap ichida sintaktik faollik kasb etayotganidek tasavvur uyg‘otadi. Bu esa til birliklarining pog‘onali munosabati qoidasining qo‘pol ravishda buzilishiga olib keladi.

Masalaning bu tahlitda hal etib kelinayotgani noto‘g‘ri ekanligi tilshunoslar alohida ta’kidlab kelmoqdalar. Masalan, M.V.Lyaponning bo‘yicha, “Qo‘shma gap ikki yoki undan ortiq nisbiy tugallangan (kommunikativ ma’noli) xabar parchalarini tashkil etuvchi gaplarning o‘zaro ongli ravishdagi birikuvi natijasini taqozo etar ekan, uning strukturasi matnga xos jiddiy belgilar mavjudligidan kelib chiqmog‘imiz va buni e’tirof etmog‘imiz lozim”<sup>1</sup>.

Bunday fikr va mulohazalar prof. N.Turniyozov va uning Shogirdlari tomonidan ham aytilmoqda. Masalan: “Tilshunoslikda azaldan qo‘llanilib kelayotgan “qo‘shma gap”

---

<sup>1</sup> Ляпон М.В. Смысловая структура сложного предложения и текст.-М.: Наука, 1983.- С. 8.

terminini maqsadga muvofiq deb bo‘lmaydi. Chunki qo‘shma gap deganimizda, birinchidan, gaplarning qo‘shilayotganini (birikayotganini) tushunsak, ikkinchidan, yangi murakkab tushunishli qurilmaning hosil qilinishini ham anglaymiz. Bunday murakkab qurilma matn tushunchasi bilan tenglaShadi”<sup>2</sup>.

Shuni e‘tiborga olish lozimki, rus tilshunosligida “qo‘shma gap” (“slojnoe predlojenie”) terminidan tashqari “murakkab sintaktik butunlik” (“slojnoe sintaksicheskoe seloe”) atamasidan ham keng foydalanilmoqda. Bundan tashqari, rus tilshunosligida gapdan yuqori bunday til birliklarini ifodalash uchun “sverxfrazovoe edinstvo” (“frazadan yuqori butunlik”) termini ham qo‘llanadi. Bunda ham bir necha gapning matn tarkibida yaxlit sintaktik butunlik tarzida namoyon bo‘layotganligi anglashiladi.

Shu bilan birga matn tilshunosligida *p e r i o d* termini ham qo‘llanib, uning tarkibida sodda gaplar ham, qo‘shma gaplar qatnaShishi mumkinligi ta‘kidlanmoqda. Jumladan, akad.G‘. Abdurahmonov periodga quyidagicha ta‘rif beradi: “murakkab sostavli gaplarda ma‘lum bir mazmun munosabati ifodalangani, ohangda tugallik bo‘lgani uchun, bu xil gap qurilmalari o‘ziga xos belgiga ega bo‘ladi va ular *p e r i o d* deb nomlanadi... Period tushunishi, ohangi, mazmuniga ko‘ra yaxlit bir butunlikni tashkil etadi, bu xil butunliklar sodda yoki murakkab bo‘lishi mumkin: agar ular bir xil, bir turdagi gaplardan tuzilsa (masalan bir necha ergash gapli qo‘shma gaplar, bir necha sodda gaplardan tuzilgan bog‘langan yoki bog‘lovchisiz qo‘chma gaplar va hokazo), *s o d d a p e r i o d* deyiladi, agar bu butunlik turli xil gaplardan tuzilsa (masalan, ergash gapli qo‘shma gap va bog‘lovchisiz qo‘shma gap birikmasi kabi), *m u r a k k a b p e r i o d* deyiladi”<sup>3</sup>.

Ta‘kidlash kerakki, period shaklan“frazadan yuqori butunlik” (“sverxfrazovoe edinstvo”), ya‘ni jumla yoki gapdan katta birlikdan qariyb farqlanmaydi. Zotan “frazadan yuqori butunlik” ham gaplar majmuasidan tashkil topadi va bunda har bir gap ikkinchisi bilan mazmuniga ko‘ra bog‘langan bo‘ladi. Keyinchalik A.Mamajonov o‘zbek tilidagi periodlar muammosini maxsus tadqiq etib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan<sup>4</sup>.

---

<sup>2</sup> Турниёзов Н., Турниёзова К. Функционал синтаксисга кириш.- Т.: Фан, 2003.-Б. 89.

<sup>3</sup> Абдурахмонов Ф.. Ўзбек тили грамматикаси (синтаксис). – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 232.

<sup>4</sup> Мамажонов А. Периоды в современном узбекском литературном языке. Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 22 с.

M.Abdupattoev esa matn tarkibidagi grammatik jihatdan to‘liq shakllangan nisbiy mustaqil gaplarning semantik jihatdan birikuvidan tashkil topgan sintaktik qurilmalarni supersintaktik butunlik (SSB) deb nomlagan edi<sup>5</sup>. Masalan: *“Havo sovuq, osmonda zaxardek achchiq qor uchqunlari erinchoq kezadi. Ko‘chalarni oynadek muz bosgan, maShinalar emaklagudek qo‘rqa-pusa imillaydi. Nafas olsang og‘zingga sovuq olov kirayotganday bo‘g‘zingni achishtiradi. Odamlar toyg‘onoqda yiqilib mayib bo‘lmaslik uchun ehtiyotlab qadam bosadi”* (O‘.HoShimov).

Yuqorida yaxlit SSB keltirilgan bo‘lib, u to‘rtta nisbiy mustaqil gapdan tashkil topgan, shulardan uchta qo‘shma gap, bittasi esa sodda gap ko‘rinishidadir. Bu gaplar grammatik va semantik jihatdan bog‘langan hamda yagona bir mavzuni – qish paytidagi peyzaj tasvirini yoritishga xizmat qilishii bilan xarakterlanadi. Shunga ko‘ra, L.M.Loseva ana shunday ko‘rinishdagi SSBlarni tahlil qilar ekan, “har bir SSB bu o‘z boshlanishi, rivoji va tugallanmasiga ega bo‘lgan miniatyura holidagi hikoya (matn)dir”, - deb to‘g‘ri ta’kidlagan edi<sup>6</sup>.

Aslida, terminlar sonini ko‘paytirish orqali matn tarkibidagi gapdan yuqori bunday lisoniy birliklar tabiatini ochishhda salmoqli yutuqlarga erishish qiyin. Bir necha gaplarning, Shu jumladan murakkab sintaktik qurilmalarning birikuvidan tashkil topgan butunlikni bir yo‘la matn deb, agar u matn ichida berilgan bo‘lsa, matn komponenti deb atash maqsadga muvofiq, degan fikrdamiz.

Shunday qilib, ikki va undan ortiq gaplarning o‘zaro semantik va sintaktik jihatdan bog‘lanishidan tashkil topgan butunlikni murakkab sintaktik qurilma deb atash til birliklarining pog‘onali (ierarxik) munosabati qonuniyatiga mos keladi. Bunda yaxlit matnni hosil qiluvchi qo‘shma gapning teng bog‘lanishli va ergash bog‘lanishli har ikki turi ham mazmunan to‘liq saqlangan bo‘ladi:

1. *Ko‘p vaqt o‘tmay, qirq to‘rt yil Forsu Iroqda davru davron surgan, SHoh Shujo‘ bilan SHoh Mahmud xabar olmaganlaridan xayron, oxir oqibat – hamma balo o‘zi ardoqlab voyaga etkazgan suyuqli o‘g‘illaridan kelganligi etti uxlab tushiga ham kirmagan,*

---

<sup>5</sup> Абдупаттоев М.Т. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. НДА.-Т.: 1998.-23 б.

<sup>6</sup> Лосева Л.М. Как строится текст. – М.: “Просвещение”, 1980. – С. 13.

*dunyodan bexabar Amir Muboriziddin zindonda, azob-uqubatlar Changalida bandalikni bajo keltirdi (Muhammad Ali. Mironshoh Mirzo, 67).*

*2. Shoh Shujo' tantanavor yurishini to'xtatmadi, Tabrizga borib qudasining ma'rakasida qatnaShdi, keyin Qazvinni oldi va Isfaxonga qarab ot surdi (Muhammad Ali. Mironshoh Mirzo, 69).*

*3. – Yuzingizga solib o'ltirmaymen, ey padari buzrukvor! Bo'lar ish bo'ldi! Bundan naf yo'q! – Sulton Ahmad jaloyir g'azabini zo'rg'a tiydi. – Shoh Shujo'ning shunday razilu nomard ekanligini bilardim!.. Bilardms! Padarkush-ku u! Mana, qudashilikning oqibati!.. Shunchalar g'ofilman-a men galvars!.. Xonavayron bo'lduk! Xonavayron bo'lduk! (Muhammad Ali. Mironshoh Mirzo, 58).*

*4. - Qo'y, qizim, qo'y. Bu kunlar ham o'tib ketar. Shundoq bo'lishini bilgan edim. Ammo ering uruSh ko'rdi, musofirchilik ko'rdi, yo'lini topib olgandir, deb o'ylagan edim. Bo'lmapti-da (Said Ahmad. Ufq).*

Keltirilgan misollarda komponentlari teng bog'lanayotgan murakkab sintaktik qurilmalar mavjud. Komponentlari teng bog'lanayotgan murakkab sintaktik qurilmalarda ikki-uchtadan mustaqil predikativ markaz mavjud bo'lib, ularning har biri orqali tasvirlanayotgan voqelikka alohida ahamiyatga ega bo'lgan munosabat bildirilmoqda. Buning asosiy boisi har ikki komponent ham o'ziCha mustaqil holda tub strukturaga ega ekanligidadir. Oxirgi misolda esa matn tarkibida to'rtta predikativ markaz ishtirok etmoqda.

Ayni paytda tub struktura deyilganda, gapning sintaktik jihatdan shakllanishi uchun asos bo'layotgan strukturani tushuniladi. Boshqacha aytganda, tub struktura – bu katta sintaktik strukturaning vujudga kelishi uchun poydevor (asos) vazifasini bajaruvchi semantik strukturadir. Bunday struktura mavhumlik belgisi bilan xarakterlanadi. Zotan, unda sintaktik strukturada to'ldirilishi lozim bo'lgan bo'Sh o'rinlar kuzatiladi.

Ergash bog'lanishli komponentlar munosabatiga asoslangan murakkab sintaktik qurilmalar tarkibiy qismlarining biri (keltirilgan uchinchi misol) xabar ifodasida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun bu komponent o'ziga ergashib kelayotgan ikkinchi komponentga nisbatan semantik jihatdan ham, sintaktik jihatdan ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z

navbatida, murakkab sintaktik qurilmani yagona tub struktura asosida Shakllanishga olib keladi. Tobe komponent ham ma'lum bir tub strukturaga asoslansa-da, bu struktura matnning sintaktik jihatdan shakllanishida ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Qiyoslang: ...yoqdi Shekilli --- kulib qo'ydi.

Yuqoridagilardan tashqari, murakkab sintaktik qurilma teng yoki ergash bog'lanishli komponentlar munosabatining qaysi birini taqozo etishidan qat'iy nazar, unda ustpredikativlik belgisi bo'ladi. Boshqacha aytganda, mazkur qurilma komponentlarining alohida predikativlik belgilari asosida mazkur mikromatnning umumiy predikativlik belgisi yuzaga keladi<sup>7</sup>. Buni murakkab sintaktik qurilmaning voqelikka bildirayotgan munosabati orqali izohlash mumkin. Darhaqiqat, murakkab sintaktik qurilmada voqelikka bildirilayotgan munosabat yaxlitlangan holatda ko'zga tashlanadi: *Yiqilib holsiz yotgan SHoh Mansurdek mard jangchini o'ldirishdan orlanmagan, sovg'a-in'omlar kutib turgan maymanalik amirni darhol tutib qatl etishlarini, mol-mulkini esa musodara qilishlarini buyurdi* (Muhammad Ali. Mironshoh Mirzo, 209).

Murakkab sintaktik qurilma komponentlarining har biri nisbiy xabar ifodasini berishga qodir ekan, bunday qurilmalarni matn xarakteriga ega deyish mumkin. Shuning uchun ularni mikromatn tarzida, ya'ni kichik matn tarzida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda matn tilshunosligida sohasida, jumladan matn va murakkab sintaktik qurilma maqomining o'zaro munosabatini o'rganish sohasida qator muammolar mavjud bo'lib, Samarqandda prof.N.Turniyozov tomonidan asoslangan matn derivatsiyasi muammolarini tadqiq etish ilmiy maktabi bu sohada bir qator xayrli ishlarni amalga oshirmoqda. Yaqinda Samarqandda "Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari", "Sistem-struktur tilshunoslik muammolari", "Til sistemasi va hozirgi zamon lingvodidaktikasi" mavzularidagi respublika ilmiy-nazariy anjumanlarining o'tkazilishi hamda "Struktur sintaksis asoslari" nomli monografiyaning nashr etilishi fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi.

### **Nazorat savollari:**

---

<sup>7</sup> Турниёзов Б. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик қурилмалар деривацияси. Монография. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2008. – Б. 42-44.

1. "Murakkab sintaktik qurilma" termini haqida tushuncha bering.
2. Matnning murakkab sintaktik qurilma bilan o'zaro munosabati haqida ma'lumot bering.
3. Matnda periodlarning qo'llanish xususiyatlari haqida so'zlang.
4. Gap va matnning sintaktik tahlili orasidagi umumiy hamda farqli holatlar aytib bering.

## **9- MAVZU**

### **MATN TARKIBIDA NOODATIY BIRIKMA- LARNING GRAMMATIK STRUKTURASI**

#### **Reja:**

1. So'z birikmasi va uning turlari haqida tushuncha
2. Matnlarda noodatiy birikma va uning grammatik strukturasi haqida.

**Tayanch so'z va iboralar:** *so'z birikmasi, turgun so'z birikmalari, frazeologizmlar, noodatiy birikmalar, oksyumaronli birikmalar, oksyumaronlarda predikativ munosabat.*

Ma'lumki, til sistemasida so'zlar o'zaro turli-tuman aloqaga kirishadi. So'zlarning tobelanish yo'li bilan o'zaro bog'lanishi ham ana Shu tizimning juda muhim qismini tashkil etadi. Ikki va undan ortiq mustaqil so'zdan tuzilib, tobelanish aloqasi asosida bir grammatik butunlik, semantik yaxlitlikni tashkil etgan har bir kompleks so'z birikmasi sanaladi. So'z birikmasini tashkil qilgan komponentlar mustaqil ma'noli so'zlar bo'lib, o'z ma'nolarini saqlagan holda boshqa bir birikmani hosil qilishida ishtirok etadi. Agar bir so'z birikmalarini ularga yaqin, yondosh bo'lgan boshqa bir til hodisasi – turg'un so'z birikmalar yoki frazeologizmlar bilan chog'ishtirib ko'rsak, frazeologizmlar deb atalgan birlikni tashkil etuvchi so'z (komponent)lar hammasi birlashibgina yaxlit, bir butun ma'noni (lug'aviy, leksik ma'noni) ifodalaydi va u ko'pincha sintaktik qismlarga bo'linmaydi<sup>1</sup>. Boshqacha qilib aytganda, turg'un birikmaning formal tomoni emas, balki o'Sha birikmani tashkil etuvchi komponentlarning jami, yig'indisi yaxlitlikda butun bir ma'noni ifodalaydi: *quloq osmoq – tinglamoq, holdan toymoq – charchamoq, ko'ziga qaramoq – ehtiyot bo'lmoq* kabilar.

---

<sup>1</sup> Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б. 23.



Soʻz birikmasini tashkil etgan komponentlar biror markaziy soʻz atrofiga uyushadi, soʻzga oʻxshab soʻz oʻzgarish tizimi bilan bogʻliq boʻladi. Soʻz birikmasi oʻz tarkibidagi hokim komponentning qaysi soʻz turkumiga kirishiga qarab ot birikma (*bu yigit, chiroyli bogʻ, oʻqigan talaba, onamning roʻmoli* kabi), feʼl birikma (*bolani chaqirmoq, yayov yurmoq* kabi), ravish birikma (*ovozdan tez, oʻqdan tez* kabi) singari turlarga boʻlinadi. Shu bilan birga soʻz birikmalari tobe komponent qanday sintaktik vazifani bajarishiga qarab atributiv birikma (*yaxshi bola, Chiroyli kuylak* kabi), qaratqichli birikma (*uning orzusi, bobomning hassasi* kabi), holli birikma (*tez yuradi, ertaga boradi* kabi), toʻldiruvchi birikma (*uni topdim, undan oldim* kabi) singari guruhlarga ajratib tasnif qilinadi<sup>2</sup>. Oʻzbek tilida noodatiy birikmalar ham xuddi ana shunday tobe-hokim boʻlaklarning munosabati asosida shakllanadi, yaʼni noodatiy birikmalarning shakllanish jarayoni, formasi tildagi soʻz birikmalariga mos keladi, lekin ifodalaydigan maʼno, semantik munosabat noodatiy xarakter kasb etadi, yaʼni “predmet va uning belgisi” semantik munosabati kutilmagan maʼno qirralariga ega boʻladi.

Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, noodatiy oksyumaronli birikmalar matn tarkibida asosan ikki komponentdan iborat boʻladi hamda oʻzaro atributiv munosabatga kirishadi hamda *sifat + ot, sifatdosh + ot, ot + ot, son + ot* singari grammatik modellari asosida tuziladi, yaʼni noodatiy birikmalarning asosiy qismi otli birikmalardir. Oʻz vaqtida taniqli rus tilshunosi P.A.Lekant tomonidan aytilgan quyidagi fikr bevosita oʻzbek tilidagi noodatiy birikmalar tizimiga ham muvofiq keladi: “Predmet va uning belgisi” semantik modeli soʻz birikmalari uchun asosan atributiv munosabatlar xarakterlidir”<sup>3</sup>. Olib borilgan statistik tahlillar tilimizdagi barcha noodatiy oksyumaronli birikmalarning 52 foizini atributiv munosabatli birikmalar tashkil etishini koʻrsatdi. Shu bilan birga tilimizda feʼlli noodatiy birikmalar ham bor. “Soʻz estetikasi” nomli risola mualliflari bunday birikmalarni “gʻayriodatiy birikmalar” deb nomlab, uni quyidagicha izohlaydilar: “Gʻayriodatiy birikmalar ...”mutlaqo individual fikrlarni” individual holatda ifodalash vositalaridan biridir. Odatiy boʻlmagan birikmalar oʻzlarining “yangiligi”, individualligi

---

<sup>2</sup> Ўзбек тили грамматикаси. Икки томлик. 2-том. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 30-72.

<sup>3</sup> Лекант П.А. Современный русский литературный язык.-М.:Высшая школа,1988.-С. 263.

va ayni g'ayriodatiyligi bilan tezda diqqatni o'ziga tortadi. Kitobxon beixtiyor bunday birikmalar ustida o'ylay boshlaydi, natijada yozuvchining niyatiga chuqurroq tushunadi. Shuning uchun ham odatiy birikmalarga qaraganda, g'ayriodatiy birikmalar badiiylik nuqtai nazaridan ko'proq ahamiyatlidir<sup>4</sup>. Masalan, Shoir Maqsud SHayxzodaning "SHoir qalbi dunyoni tinglar" She'ridan olingan quyidagi parchaga e'tibor qarataylik:

*Tovushlarning kichik, ulug'i,*

*Tovushlarning hidi – bo'yi bor.*

*Tovushlarning sovuq, ilig'i,*

*Tovushlarning rangi-ro'yi bor.*

*Tovushlarning shirin-achhig'i,*

*Bordir hatto yumShoq, qattig'i.*

*Shoir rassom bo'lsaydi agar,*

*Chizar edi shundan lavhalar.*

Yuqorida keltirilgan She'riy parchada *tovushlarning kichigi, tovushlarning hidi, tovushlarning sovuq'i, tovushlarning rangi, tovushlarning Shirini, tovushlarning yumShog'i* kabi birikmalar g'ayriodatiyligi, "yangiligi", noodatiyligi bilan matn tarkibida alohida ajralib turadi.

2. Noodatiy birikmalar grammatik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biz to'plagan materiallarda sifat + ot modeli ikki komponentli atributiv birikmalar oksyumaronni Shakllantirishga ko'proq xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilida forscha-tojikcha "Shirin" so'zi "Shakar, bol, qiyom va Shu kabilarning ta'miga oid" ma'nosini bildiradi (O'TIL-5, 1U, 579). Shunga binoan bu so'z ijobiy baholi so'zlar bilan kelib, *shirin olma, shirin so'z, shirin jon, shirin suhbat* singari birikmalar hosil qiladi. Xuddi Shu qolipdagi birikma zid ma'noli so'zlar bilan hosil qilinsa, noodatiy, oksyumaronli birikma vujudga keladi: *shirin dard, shirin g'am, shirin o'lik, shirin azob, Shirin sitam, shirin qiyinchlik* kabi. Oksyumaron // oksimoron so'zi yunoncha (*oxymoron – zakiy nodon*) bo'lib, qarama-qarshi ma'noli so'zlardan favqulodda yangi mazmun keltirib chiqarishga asoslangan

---

<sup>4</sup> Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 40-41.

ko‘chim turidir. Oksyumaronidagi mana Shu xususiyat unga kuchli obrazlilik baxsh etadi<sup>5</sup>. Masalan: “- *Otaxon jannati odam ekanlar. Juda Shirin o‘lik bo‘ptilar*” (Said Ahmad. Lab haqida doston) kabilar.

Yozuvchi Nazar Eshonqul ijodidagi “*badbaxt chehralar*” noodatiy birikmasi ham xuddi shu model asosida Shakllangan, oksyumaronli, noodatiy birikmadir:

*Badbaxt chehralar* – xuddi qora chimmatining pardasini ko‘tarib, yuragingizni o‘rtash uchun sizga bir qarab qo‘ygan go‘zal fors qizi yanglig‘ uning mavhum, halqalari bir-birini zo‘rg‘a uShlab turgan zanjirday uzundan-uzun jumllarining yuzidagi niqobi ostidan ba‘zan menga ulug‘ yozuvchining badbaxt chehralari ko‘rinib ketardi<sup>6</sup>.

Hozirgi o‘zbek she‘riyatida faol qo‘llanilayotgan “*dilbar sukunat*”, “*dilbar koinot*” singari noodatiy birikmalar ham xuddi shu model asosida shakllangan: *Sukut. Sukut. Dilbar sukut // Qalbdagi xayajon* (Sh.Salimova); *Sen borsan – men uchun go‘zal bu hayot // Sen borsan – men uchun dilbar koinot* (A.Oripov) kabilar.

O‘zbek tilida *sifatdosh* + *ot* modeli ikki komponentli atributiv birikmalar ham noodatiy oksyumaronli birikmalarni shakllantirishda muxim o‘rin tutadi. Masalan, “*baqirmoq*” fe‘li “*ovozni boricha qo‘yib, shang‘illab gapirmoq, qiChqirmoq*” ma‘nolarini bildiradi (O‘TIL-5, 1, 187). Bu so‘z sifatdosh qo‘shimchasini qabul qilgach, *baqirgan kishi, baqirgan bola, baqirgan talaba* singari birikmalar tarkibida aniqlovchi vazifasini bajaradi. Shu model asosida shoir Rauf Parfi “*baqirgan sukunat*” noodatiy birikmasini hosil qilgan edi.

O‘zbek tilida qaratqichli aniqlovchi + qaralmish modeli atributiv birikmalar ham oksyumaronlar keng qo‘llanmoqda. Masalan:

*Hasrat bog‘i* – O‘zbekiston Xalq shoiri Shukurullo asari asosida qo‘yilgan “*Hasrat bog‘i*” spektaklidagi voqealar, falsafiy mulohazalar totalitar tuzum zug‘umlarini o‘z taqdirida sinagan xalq shoiri va dramaturg umr daftarining mazmuni desak mubolag‘a bo‘lmas (Islomov T. *Hasrat bog‘i // O‘zas*, 14.07.2006).

<sup>5</sup> Салаев Ф., Курбониезов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – Б. 172.

<sup>6</sup> Н.Эшонкул. Маймун етаклаган одам, қиссалар ва ҳикоялар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. Ишда ёзувчи Назар Эшонкул асарларидан олинган мисоллар шу нашрдан келтирилади, қавс ичида “Н.Эшонкул” қисқартмаси қўйилади.

*Vijdon qo'ng'irog'i* – Ne'mat Aminov adabiyotda, hayotda *vijdon qo'ng'irog'ini* mardona chalib ketdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu bebaho va beozor qo'ng'iroq ustozni bilganlar, ko'rganlar va asarlarini o'qib-uyiqanlar qalbida, xotirasida hamisha aks-sado berib turishiga ishonamiz (Jo'raev A. Ustozning tillo tabassumlari // O'zAS, 14.07.2006).

*Og'riq lazzi* – sarlavha. Yozuvchi Nazar EShonqul o'z hikoyalaridan biriga Shunday oksyumaronli sarlavha qo'ygan. "*Og'riq lazzi* – eng oliy lazzi, - deb yozishardi mahkumlar bilan qilingan suhbatlarda, - bu lazzi faqat og'riqqa mahkum bo'lgaCh sezish mumkin" (N.EShonqul); *Og'riq farog'ati* – Shundagina biz og'riq farog'atidan so'ng ham uning o'zimiz turgan zaminga tushmaganini angladik – u narigi yoqda, lazzi yurtida qolgan edi – uning jonsiz tanasi ham san'at asariga aylangan va yaShnoq gullarga ko'milib yotardi (N.EShonqul) kabilar.

Bunday qaratqichli birikmalarning ayrimlari uch va undan ortiq komponentli murakkab noodatiy birikmalardir: *Ro'yoday omonat umidsizlik panjaralari* – Shunda sening ko'ngling dilbar, latif, orzumand tuyg'ular bilan to'ladi va hayotingni boshqatdan boshlaging, ko'z oldingdagi ro'yoday omonat umidsizlik panjaralarini parcha-parcha qilib tashlaging kelib qoladi (N.EShonqul); *Sirli falak qal'asi* – Senga mening bu ohu vohlarim etmaydi. Sen xayollar ham etib borolmaydigan sirli falak qal'asiga yaShiringansan (N.EShonqul) kabilar.

O'zbek tilida ob'ektli munosabatga asoslagan noodatiy birikmalar ham ma'lum darajada uchraydi. Masalan, Shoir M.Abdulhakimov ijodida "*og'riqlarni sevib qolganman*" noodatiy birikmasi ko'zga tashlanadi. Bu birikmada hokim komponent o'timli fe'l (*sevib qolmoq*) o'zidan oldin tushum kelishigidagi to'ldiruvchi (*og'riqlarni*) ni talab qilgan va Shu asosda ob'ektli munosabat asosida to'ldiruvChili birikma Shakllangan.

Tilimizda ob'ektli munosabatga asoslangan ayrim noodatiy birikmalar ham Shakllanib bormoqda, bunda badiiy tarjimalarning uluShi kattadir. Masalan, rus Shoiri E.Evtushenko ijodida "*oChlik bilan to'qman*" noodatiy birikmasi uchraydi. A.Axmatovada esa "*uvos tortib Shirin yig'layman*" noodatiy birikmasi hosil qilingan.

Shoir Rauf Parfining "Muhabbat" she'ridan olingan quyidagi matnga diqqat qilaylik:

*Lov-lov yonayotir quyosh – ul najot,*

*Osmon chorlayotir, chorlar yuksak tog'.*

*Shunday yuragimda tovushsiz faryod,*

*Men senga inonmoq istayman, evoh..*

Bu she'riy matnda *tovushsiz faryod* noodatiy birikma sanaladi, negaki bu birikmani tashkil etuvchi so'zlar (*tovush* va *faryod*)ning ma'nolari bir-biriga zid, ya'ni forscha-tojikcha "faryod" so'zi "me'yoridan ortiq ovoz bilan nola (qilishi), dod solib yig'lash, dodlah" ma'nolarini bildiradi (O'TIL-5, 1U, 325-326), "ovoz, sado, sas" ma'nolarini bildiruvchi "tovush" (O'TIL-5, 1U, 130)ning zidi bo'lgan "tovushsiz" so'zi esa unga aniqlovchi sifatida qo'llangan hamda yaxlit so'z birikmasi hosil qilingan. Ana shuning hisobiga bu so'z birikmasi noodatiy birikmaga aylanib matnda kuchli emotsionallikni ifodalovchi asosiy vositalardan biriga aylangan.

*Boks oqarmoqda* - ...bir hamkasbimiz aka-uka klichkolarni nazarda tutib "*Boks oqarmoqda*" deya yozganiday, biz ham yuqoridagi sarlavhani tanladik. Lekin gap, bilsangiz va e'tibor qilsangiz, ringda ham, rangda ham emas... (O'zAS, 14.07.2006).

*Uxlayotgan baxtni uyg'oting* – "O'zas"ning 9 iyun sonida chop etilgan Damin Jo'raqulovning "*Uxlayotgan baxtni uyg'oting*" maqolasida yozilganidek, inson o'z vaqtining quli emas, jilovdori bo'lishi zarur. Chunki behuda o'tgan har bir daqiqamiz qaytmaydi (O'zas, 14.07.2006).

Shunday qilib, o'zbek tilida noodatiy birikmalar asosan atributiv, qaratqichli, ob'ektli munosabat asosida Shakllanadi, ayrim noodatiy birikmalar esa sodda gap qolipli predikativ munosabat asosida yuzaga kelgan hamda noodatiy birikmalarning barcha struktural ko'rinishlari badiiy, publitsistik matnlarda faol qo'llanishi bilan xarakterlanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. So'z birikmasi va uning turlari haqida tushuncha bering.
2. Erkin so'z birikmasi va turg'un so'z birikmasi orasidagi munosabat haqida so'zlang.
3. Noodatiy birikma va uning grammatik strukturasi haqida nimalarni bilasiz?.
4. Matnlarda noodatiy birikma (oksyumaronli birikma)larning qo'llanish xususiyatlarini ayting.

**10- MAVZU**  
**MATN KOMPONENTLARINING POG‘ONALI**  
**MUNOSABATI HAQIDA**

**Reja:**

1. Matn komponentlari haqida tushuncha bering.
2. So‘z, so‘z birikmasi va gap matn komponentlari sifatida .  
Murakkab sintaktik butunlik, diskurs va abzats matn komponentlari sifatida.
2. Matn komponentlarining pog‘onali (ierarxik) munosabati haqida.

Matn komponentlarining o‘zaro paradigmatic va sintagmatic munosabatlari haqida.

***Tayanch so‘z va iboralar:** matn komponentlari, yakka so‘z va matn, so‘z birikmasi va matn, gap va matn, matnda pog‘onali munosabat, murakkab sintaktik qurilma va matn, abzats va matn.*

Hozirgi kunga kelib matn lingvistikasi tilshunoslikning alohida sohasi sifatida Shakllandi, bu sohada yangidan-yangi umumlashmalar qilinmoqda. Bu sohaning Shakllanishi va rivojida taniqli olim, prof. B.Tursunovning alohida hissasi bor edi. Xuddi Shu olim taShabbusi bilan Samarqand Shahrida matn tahliliga bag‘ishlangan bir necha marta xalqaro va respublika ilmiy anjumanlari o‘tkazilgan. Shulardan 1998 va 2000 yillarda uyushtirilgan ilmiy anjumanlar o‘z ko‘lami jihatdan matn lingvistikasi taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>. Bu anjumanlarning birida prof.B.Tursunov ilovali qurilmalarni matnning sintaktik-stilistik kategoriyasi sifatida o‘rganish hamda ularning matndagi pog‘onali munosabati haqida muhim fikr-mulohazalarni bildirgan edi<sup>2</sup>.

Avvalo shuni aytish kerakki, matn bir so‘zdan, so‘z birikmasidan, va bir gapdan ham iborat bo‘lishi mumkin. Bunday matnlarning birinchisi bir komponentli bo‘ladi. Bunga maxsus qo‘llanishli so‘zlar misol bo‘la oladi. Masalan: 1. “Sarob”, “Sumbul”, “Turnalar”, “Ayajonlarim”, “Diyonat”, “Umid”, “Hukm”, “Ufq”, “G‘ildirak”, “Sadoqatnoma”, “Muhabbatnoma”, “Kuyov”, “Jimjitlik”, “Alpomish” – badiiy

---

<sup>1</sup> Лингвистическая интерпретация специального текста и активизация обучения иноязычному общению. Материалы международной теоретической конференции 28-30 сентября 1998 года. – Самарканд: СамГУ, 1998. – 254 с.; Матн ва унинг талқини (хвлқаро илмий-назарий конференция материаллари). – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2000. – 255 б.

<sup>2</sup> Турсунов Б.Т. Ягона синтактик-стилистик категория остида // Матн ва унинг талқини (хвлқаро илмий-назарий конференция материаллари). – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2000. – Б. 10-14.

asarlarnig nomlari (ideonimlar yoki bibliionimlar); 2. “*ToShkent*”, “*O‘zbekiston*”, “*London*” – xaritalar nomlari h.k.

So‘z birikmasi orqali ifodalangan matn ham ko‘proq biror san’at asarining nomi (ideonim) sifatida voqealanadi: *Ot bilan suhbat*; *Ko‘hna dunyo*; *Ulug‘bek hazinasi*; *Qaytar dunyo*, *Yulduzli tunlar* kabilar.

Ayni paytda bunday matnlar ikki komponentli sanaladi va bu orqali bir so‘zli matndan farqlanadi. Biroq so‘z birikmasi bilan ifodalangan matn faqat ikki komponentli emas, balki ko‘p komponentli bo‘lishi ham mumkin: *Menga etib kelmagan xat*; *Ikki eShik orasi*; *Tushda kechgan umrlar*; *Ona lochin vidosi*; *Besh bolali yigitcha*; *Qishdan qolgan qarg‘alar*; *Daydi qizning daftari* - badiiy asarlarning nomlari.

Gap orqali ifodalangan matn komponentlari vazifasida ham so‘zlar qatnaShadi: *Seni Vatan kutadi*. *O‘zbekiston – mustaqillik diyori* kabilar.

Lekin matn tilshunosligi muammolarini bir so‘zli, birikma yoki biror sodda gap bilan ifodalangan matnlar asosida o‘rganish, unchalik maqsadga muvofiq emas. Chunki bunday matnlarga tayanib til sistemasi birliklarining nutqqa ko‘chirilishiga oid masalalar tavsifini mukammal holatda amalga oshirib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, kichik matnlardan mikro va makrosistema haqida, matn komponentlarining semantik va sintaktik bog‘lanishi xususida ham to‘liq ma’lumot ololmaymiz. Shuning uchun matn tilshunosligi masalalarini katta matnlar, hech bo‘lmaganda, matn maqomidagi murakkab sintaktik qurilmalar asosida o‘rganish maqsadga muvofiqdir. M.Abdupattoev bunday sintaktik qurilmalarni supersintaktik birlik (SSB)lar termini bilan nomlagan edi<sup>3</sup>. Prof.YO.Tojiev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “nutq albatta, so‘z-gap, gap, qo‘shma gap ko‘rinishlari, undan yuqoriroq, murakkabroq bo‘lgan, masalan, abzats, period, supersintaktik butunlik, murakkab sintaktik butunlik, fraza yoki jumla, oyat kabi nutq birliklaridan tashkil topganligi ham hammaga ma’lum. Faqat, Shuni aytish kerakki, hozirgi tilshunoslikda *supersintaktik butunlik* mohiyati bilan matn mohiyati (ularga berilayotgan ta’riflar, izohlaShlar) bir

---

<sup>3</sup> Абдупаттоев М.Т. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. НДА. – Тошкент, 1998. – Б. 4-6.

xildek. Ularning tub farqi hajmdami yoki boshqa jihatlardami ekanligi ham aniq hal etilmagan”<sup>4</sup>.

Hozirgi zamon tilshunosligida matn komponentlari tasnifi masalasi ham ancha murakkabdir, Chunki mustaqil soʻzdan boshlab, gap, murakkab sintaktik qurilmalar, abzats, bob kabilarning baricha matn komponentlari jumlasiga kiradi va ular matn tarkibida pogʻonali (ierarxik) munosabatga kirishadi. Quyida ana Shulardan baʼzilariga toʻxtab oʻtamiz.

Matn bir soʻz bilan yoki soʻz birikmasi bilan ifodalanganda uning komponenti vazifasida mustaqil soʻz keladi. Masalan, *“Yulduzli tunlar”*, *“Chayon yili”*, *“Hijron kunlarida”*, *“Yillar armoni”*, *“Yoshlik devoni”*, *“Istambul fojiasi”*, *“Mungli koʻzlar”*, *“Jannati odamlar”*, *“Ufq boʻsagʻasida”*, *“Kelinlar qoʻzgʻoloni”*, *“Avlodlar dovoni”*, *“Chorqol yoʻlbarsi”* singari soʻz birikmasi orqali ifodalangan matnlarni ikki komponentli deb ataymiz.

Matn komponenti soʻz birikmasi tarzida kelishi ham mumkin. Lekin soʻz birikmasini biror jiddiy zarurat tugʻilgandagina matn komponenti tarzida oʻrganiladi. Odatda katta matnlar bir nechita gapdan tashkil topgan boʻladi. Shuning uchun gap matnning asosiy komponenti sanaladi: *Ayvonda kitob oʻqib oʻltirgan Gavharshod begim goho sahifalardan koʻzini olib, oʻsha togʻlar atrofida oʻralaShadigan bulutlarga oʻychan tikiladi. Baland togʻ tizmasi ustidan oShib oʻtolmaydigan ogʻir qora bulutlar choʻqqilar boshiga shamol boʻroni keltirishi, doʻl yogʻdirishi begimning qoʻlidagi Yazdiy “Zafarnoma”sining tahlikali voqealariga oʻxShab ketadi* (P.Qodirov. Ona lochin vidosi).

Berilgan matn ikki komponentli boʻlib, bu komponentlar ketma-ket kelmoqda. Agar mazkur matn komponentlarining ichki qurilishini tahlil etish lozim boʻlsa, har bir gapni alohida oʻrganish va ularning nechita soʻzdan tashkil topayotganligiga eʼtibor beriladi: Matnning birinchi komponenti oʻn olti soʻzning, ikkinchisi esa oʻttiz soʻzning oʻzaro munosabatidan tashkil topmoqda. Aytish lozimki, matn tarkibiga kirgan barcha gaplar bir-biri bilan maʼno jihatidan ham sintaktik jihatdan ham bogʻlangan boʻladi. Ammo bu

---

<sup>4</sup> Тожиев Ё. “Матн”га ёндашув // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами). У-чиқиши. – Тошкент: “Академнашр”, 2010. – Б. 200..



bog‘lanishni gap tarkibidagi so‘zlar bog‘lanishi bilan tenglashtirmaslik lozim. Chunki gap komponentlarining biri bosh bo‘lak, boshqalari esa ikkinchi darajali bo‘lak tarzida sintaktik vazifa bajaradi. Matn komponentlarining o‘zaro bog‘lanishi esa, birinchi navbatda gaplarning ma‘nolariga asoslanadi. Shuning uchun ham bunda “bog‘lanishli nutq” tushunchasidan foydalanish o‘rinlidir.

Murakkab sintaktik qurilma komponentlari o‘zaro ikki xil bog‘lanadi. Ularning birini teng bog‘lanish deb, ikkinchisini esa ergash bog‘lanish deb nomlaymiz. Shunga binoan murakkab sintaktik qurilmalarni ham farqlab o‘rganamiz:

1. *Tursunboy yuvinib uyga o‘tib ketdi-da, bir ozdan keyin kiyinib chiqdi. U chinakam birov havas qilsa arziydigan yigit bo‘lgandi* (Said Ahmad. Ufq).

2. *Kuchi, g‘ayrati taniga sig‘maydigan bu yigit kocha eshigi oldida o‘tirib, atayin kuchini ko‘rsatib qo‘yish uchun eshak qo‘shilgan aravaning orqasidan tortib yurgizmay qo‘yar, qopdagi bug‘doymi, unmi, nima bo‘lsa tishi bilan ko‘tarib irg‘itardi* (Said Ahmad. Ufq).

Keltirilgan misollarning birinchisida komponentlari teng bog‘lanishli, ikkinchisida esa komponentlari munosabatlari ergash bog‘lanishga asoslangan murakkab sintaktik qurilmalarni ko‘ramiz.

Matn komponentlari vazifasida abzats ham keladi. Abzats, albatta, tom ma‘noda matn sanaladi. Biroq u katta matn tarkibida uning komponenti hisoblanadi, chunki matn tarkibidagi fikr tugalligi bir necha abzats sathida beriladi. Abzats matn tarkibida, xususan, semantik jihatdan muhim mavqega egadir. Buni matnda ifodalanayotgan umumiy xabarning qismlarga bo‘lib berilishida yanada aniqroq ko‘rish mumkin. Chunki har bir abzats matnning ma‘lum bir mazmuniy parchasini taqozo etadi:

*Nizomjon birdan lohas bo‘lib yana yostiqa bosh qo‘ydi. Badani go‘yo kuyib ketgandek bo‘ldi. Bu odamlarga ortiqcha taShvish bo‘ldi-ku, endi ko‘rmagani Shu qoldimi?*

*Ko‘zi ilinib uyquga ketdi. Jannat xola uning ustiga Ikromjonning to‘nini yopib yostig‘ini tuzatdi. Nizomjon g‘arq terga pishgan, Chakkalaridan marjon-marjon ter qo‘yyapti* (Said Ahmad. Ufq).

Ko‘rinadiki, misol sifatida berilgan har ikki matn ham ma‘nolariga ko‘ra bir-biri bilan bog‘lanmoqda. Abzats katta matn tarkibida qo‘llanilar ekan, o‘Sha matnning umumiy

ma'nosi bilan qandaydir yo'sinda bog'langan bo'ladi. Bunday bog'lanish, yuqorida stilistik usul tarzida ko'rib o'tganimiz singari, ikki matn o'rtasida kuzatilmasligi ham mumkin. Lekin har bir abzats katta matnda ifodalangan umumiy ma'noning qandaydir parchasi bilan u yoki bu tarzda aloqador bo'ladi.

Katta matn tarkibida keluvchi komponentlar o'z grammatik kategoriyalariga ko'ra bir xil bo'lmaydi, albatta. Ularning biri so'z, ikkinchisi so'z birikmasi, uchinchisi esa gap, to'rtinchisi murakkab sintaktik qurilma, beshinchisi abzats kabi kategoriyalarda bo'lishi mumkin. Ammo ana shu kategoriyalardagi har bir komponent sintaktik va semantik fajllashuvi jihatidan pog'onali munosabatni taqozo etadi<sup>5</sup>. Quyida ana Shu masala tavsifiga qisqacha to'xtab o'tamiz.

Matn bir so'z bilan ifodalangan bo'lsa, unda til birliklarining pog'onali munosabati fonema, morfema va so'zlar misolida kuzatiladi<sup>6</sup>. Masalan, *kitobxonlarga* so'zi bilan ifodalangan matn komponentlarining pog'onali munosabatiga e'tibor beraylik. Bunda 13 fonema ishlatilgan bo'lib, ularning har biri o'zlariga tegishli morfema tarkibida fajllashmoqda: *kitob +xon+lar+ga*.

Mazkur morfemalar esa so'zning tarkibiy qismlari sifatida sintagmatik qator sathida fajllashmoqda.

Matn so'z birikmasi bilan ifodalangan bo'lganda ham pog'onali munosabat yuqorida eslatib o'tilgan morfemalar misolida bo'ladi, zotan, so'z birikmasi nominativ birlikni taqozo etadi. Agar so'z birikmasini gapning sathida o'rganadigan bo'lsak, pog'onali munosabat so'z birikmasi va gap kategoriyalari o'rtasida vujudga keladi: *Maktabimiz bog'i Chiroyli* (maktabimiz bog'i, bog' Chiroyli). Biroq bunday vaziyatda so'z birikmasi matn maqomida bo'lmaydi.

Matn gap bilan ifodalangan bo'lsa, pog'onali munosabat so'z va gap doirasida vujudga keladi: *O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat*. Ayni paytda qo'llanilayotgan har bir so'z gap tarkibida sintaktik va semantik faollik olmoqda.

---

<sup>5</sup> Хайруллаев Х.З. Нутқ бирликларининг поғонали муносабати. Монография. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2008. – Б. 26-48.

<sup>6</sup> Хайруллаев Х.З. Тил ва нутқ бирликларининг поғонали муносабати. ДДА. – Тошкент, 2010. – Б. 21-22.

Matn komponentlari gap yoki murakkab sintaktik qurilmalar bilan ifodalanganda ular orasidagi pogʻonali (ierarxik) munosabat birmuncha murakkablashadi. Boshqacha aytganda, gap murakkab sintaktik qurilma yoki matn tarkibida sintaktik faollik oladi. Murakkab sintaktik qurilma esa, oʻz navbatida, abzats yoxud katta matn sathida sintaktik aktuallik kasb etadi. Abzatsning sintaktik faolligi ham, oʻz navbatida, oʻzidan katta bob yoki matnda taʼminlanadi. Shuning uchun bir bob tarkibida yoki boblarga boʻlinmagan matn tarkibida bir paytning oʻzida bir necha abzats sintaktik faollik olishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Matn komponentlari va ularning tasnifi haqida soʻzlang.
2. Soʻz birikmasi orqali ifodalangan matnda pogʻonali munosabatning namoyon boʻlishi haqida maʼlumot bering.
3. Murakkab sintaktik qurilma, supersintaktik butunlik (SSB) orqali ifodalangan matnda pogʻonali munosabatning namoyon boʻlish usullarini aytib bering.
4. Katta matn tarkibida komponentlarning pogʻonali munosabati qanday aks etadi?.

## 11- MAVZU

### MATNDAGI POGʻONALI MUNOSABAT HAQIDA PROF. B.TURSUNOVNING FIKRI

#### Reja:

1. Matn komponentlari haqida tushuncha bering.

2. Soʻz, soʻz birikmasi va gap matn komponentlari sifatida .

Murakkab sintaktik butunlik, diskurs va abzats matn komponentlari sifatida.

2. Matn komponentlarining pogʻonali (ierarxik) munosabati haqida.

Matn komponentlarining oʻzaro paradigmatic va sintagmatic munosabatlari haqida.

*Tayanch soʻz va iboralar:* matn komponentlari, yakka soʻz va matn, soʻz birikmasi va matn, gap va matn, matnda pogʻonali munosabat, murakkab sintaktik qurilma va matn, abzats va matn.

Hozirgi kunga kelib matn lingvistikasi tilshunoslikning alohida sohasi sifatida Shakllandi, bu sohada yangidan-yangi umumlashmalar qilinmoqda. Bu sohaning Shakllanishi va rivojida taniqli olim, prof. B.Tursunovning alohida hissasi bor edi. Xuddi Shu olim taShabbusi bilan Samarqand Shahrida matn tahliliga bagʻishlangan bir necha marta

xalqaro va respublika ilmiy anjumanlari o‘tkazilgan. Shulardan 1998 va 2000 yillarda uyushtirilgan ilmiy anjumanlar o‘z ko‘lami jihatdan matn lingvistikasi taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi<sup>1</sup>. Bu anjumanlarning birida prof.B.Tursunov ilovali qurilmalarni matnning sintaktik-stilistik kategoriyasi sifatida o‘rganish hamda ularning matndagi pog‘onali munosabati haqida muhim fikr-mulohazalarni bildirgan edi<sup>2</sup>.

Avvalo shuni aytish kerakki, matn bir so‘zdan, so‘z birikmasidan, va bir gapdan ham iborat bo‘lishi mumkin. Bunday matnlarning birinchisi bir komponentli bo‘ladi. Bunga maxsus qo‘llanishli so‘zlar misol bo‘la oladi. Masalan: 1. “*Sarob*”, “*Sumbul*”, “*Turnalar*”, “*Ayajonlarim*”, “*Diyonat*”, “*Umid*”, “*Hukm*”, “*Ufq*”, “*G‘ildirak*”, “*Sadoqatnoma*”, “*Muhabbatnoma*”, “*Kuyov*”, “*Jimjitlik*”, “*Alpomish*” – badiiy asarlarnig nomlari (ideonimlar yoki bibliionimlar); 2. “*ToShkent*”, “*O‘zbekiston*”, “*London*” – xaritalar nomlari h.k.

So‘z birikmasi orqali ifodalangan matn ham ko‘proq biror san’at asarining nomi (ideonim) sifatida voqealanadi: *Ot bilan suhbat*; *Ko‘hna dunyo*; *Ulug‘bek hazinasi*; *Qaytar dunyo*, *Yulduzli tunlar* kabilar.

Ayni paytda bunday matnlar ikki komponentli sanaladi va bu orqali bir so‘zli matndan farqlanadi. Biroq so‘z birikmasi bilan ifodalangan matn faqat ikki komponentli emas, balki ko‘p komponentli bo‘lishi ham mumkin: *Menga etib kelmagan xat*; *Ikki eShik orasi*; *Tushda kechgan umrlar*; *Ona lochin vidosi*; *Besh bolali yigitcha*; *Qishdan qolgan qarg‘alar*; *Daydi qizning daftari* - badiiy asarlarning nomlari.

Gap orqali ifodalangan matn komponentlari vazifasida ham so‘zlar qatnaShadi: *Seni Vatan kutadi*. *O‘zbekiston – mustaqillik diyori* kabilar.

Lekin matn tilshunosligi muammolarini bir so‘zli, birikma yoki biror sodda gap bilan ifodalangan matnlar asosida o‘rganish, unchalik maqsadga muvofiq emas. Chunki bunday matnlarga tayanib til sistemasi birliklarining nutqqa ko‘chirilishiga oid masalalar tavsifini

---

<sup>1</sup> Лингвистическая интерпретация специального текста и активизация обучения иноязычному общению. Материалы международной теоретической конференции 28-30 сентября 1998 года. – Самарканд: СамГУ, 1998. – 254 с.; Матн ва унинг талқини (хвлқаро илмий-назарий конференция материаллари). – Самарканд: СамДЧТИ нашри, 2000. – 255 б.

<sup>2</sup> Турсунов Б.Т. Ягона синтактик-стилистик категория остида // Матн ва унинг талқини (хвлқаро илмий-назарий конференция материаллари). – Самарканд: СамДЧТИ нашри, 2000. – Б. 10-14.

mukammal holatda amalga oshirib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, kichik matnlardan mikro va makrosistema haqida, matn komponentlarining semantik va sintaktik bog‘lanishi xususida ham to‘liq ma’lumot ololmaymiz. Shuning uchun matn tilshunosligi masalalarini katta matnlar, hech bo‘lmaganda, matn maqomidagi murakkab sintaktik qurilmalar asosida o‘rganish maqsadga muvofiqdir. M.Abdupattoev bunday sintaktik qurilmalarni supersintaktik birlik (SSB)lar termini bilan nomlagan edi<sup>3</sup>. Prof.YO.Tojiev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “nutq albatta, so‘z-gap, gap, qo‘shma gap ko‘rinishlari, undan yuqoriroq, murakkabroq bo‘lgan, masalan, abzats, period, supersintaktik butunlik, murakkab sintaktik butunlik, fraza yoki jumla, oyat kabi nutq birliklaridan tashkil topganligi ham hammaga ma’lum. Faqat, Shuni aytish kerakki, hozirgi tilshunoslikda *supersintaktik butunlik* mohiyati bilan matn mohiyati (ularga berilayotgan ta’riflar, izohlashlar) bir xildek. Ularning tub farqi hajmdami yoki boshqa jihatlardami ekanligi ham aniq hal etilmagan”<sup>4</sup>.

Hozirgi zamon tilshunosligida matn komponentlari tasnifi masalasi ham ancha murakkabdir, Chunki mustaqil so‘zdan boshlab, gap, murakkab sintaktik qurilmalar, abzats, bob kabilarning baricha matn komponentlari jumlasiga kiradi va ular matn tarkibida pog‘onali (ierarxik) munosabatga kirishadi. Quyida ana Shulardan ba’zilariga to‘xtab o‘tamiz.

Matn bir so‘z bilan yoki so‘z birikmasi bilan ifodalanganda uning komponenti vazifasida mustaqil so‘z keladi. Masalan, “*Yulduzli tunlar*”, “*Chayon yili*”, “*Hijron kunlarida*”, “*Yillar armoni*”, “*Yoshlik devoni*”, “*Istambul fojiasi*”, “*Mungli ko‘zlar*”, “*Jannati odamlar*”, “*Ufq bo‘sasida*”, “*Kelinlar qo‘zg‘oloni*”, “*Avlodlar dovoni*”, “*Chorqol yo‘lbarisi*” singari so‘z birikmasi orqali ifodalangan matnlarni ikki komponentli deb ataymiz.

Matn komponenti so‘z birikmasi tarzida kelishi ham mumkin. Lekin so‘z birikmasini biror jiddiy zarurat tug‘ilgandagina matn komponenti tarzida o‘rganiladi. Odatda katta matnlar bir nechta gapdan tashkil topgan bo‘ladi. Shuning uchun gap matnning asosiy komponenti

---

<sup>3</sup> Абдупаттоев М.Т. Ўзбек матнида суперсинтактик бутунликлар. НДА. – Тошкент, 1998. – Б. 4-6.

<sup>4</sup> Тожиев Ё. “Матн”га ёндашув // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами). У-чиқиши. – Тошкент: “Академнашр”, 2010. – Б. 200..

sanaladi: *Ayvonda kitob o‘qib o‘ltirgan Gavharshod begim goho sahifalardan ko‘zini olib, o‘sha tog‘lar atrofida o‘ralaShadigan bulutlarga o‘ychan tikiladi. Baland tog‘ tizmasi ustidan oShib o‘tolmaydigan og‘ir qora bulutlar cho‘qqilar boshiga shamol bo‘roni keltirishi, do‘l yog‘dirishi beginning qo‘lidagi Yazdiy “Zafarnoma”sining tahlikali voqealariga o‘xShab ketadi* (P.Qodirov. Ona lochin vidosi).

Berilgan matn ikki komponentli bo‘lib, bu komponentlar ketma-ket kelmoqda. Agar mazkur matn komponentlarining ichki qurilishini tahlil etish lozim bo‘lsa, har bir gapni alohida o‘rganish va ularning nechita so‘zdan tashkil topayotganligiga e‘tibor beriladi: Matnning birinchi komponenti o‘n olti so‘zning, ikkinchisi esa o‘ttiz so‘zning o‘zaro munosabatidan tashkil topmoqda. Aytish lozimki, matn tarkibiga kirgan barcha gaplar bir-biri bilan ma‘no jihatidan ham sintaktik jihatdan ham bog‘langan bo‘ladi. Ammo bu bog‘lanishni gap tarkibidagi so‘zlar bog‘lanishi bilan tenglaShtirmaslik lozim. Chunki gap komponentlarining biri bosh bo‘lak, boshqalari esa ikkinchi darajali bo‘lak tarzida sintaktik vazifa bajaradi. Matn komponentlarining o‘zaro bog‘lanishi esa, birinchi navbatda gaplarning ma‘nolariga asoslanadi. Shuning uchun ham bunda “bog‘lanishli nutq” tushunchasidan foydalanish o‘rinlidir.

Murakkab sintaktik qurilma komponentlari o‘zaro ikki xil bog‘lanadi. Ularning birini teng bog‘lanish deb, ikkinchisini esa ergash bog‘lanish deb nomlaymiz. Shunga binoan murakkab sintaktik qurilmalarni ham farqlab o‘rganamiz:

1. *Tursunboy yuvinib uyga o‘tib ketdi-da, bir ozdan keyin kiyinib chiqdi. U chinakam birov havas qilsa arziydigan yigit bo‘lgandi* (Said Ahmad. Ufq).

2. *Kuchi, g‘ayrati taniga sig‘maydigan bu yigit kocha eshigi oldida o‘tirib, atayin kuchini ko‘rsatib qo‘yish uchun eShak qo‘Shilgan aravaning orqasidan tortib yurgizmay qo‘yar, qopdagi bug‘doymi, unmi, nima bo‘lsa tishi bilan ko‘tarib irg‘itardi* (Said Ahmad. Ufq).

Keltirilgan misollarning birinchisida komponentlari teng bog‘lanishli, ikkinchisida esa komponentlari munosabatlari ergash bog‘lanishga asoslangan murakkab sintaktik qurilmalarni ko‘ramiz.

Matn komponentlari vazifasida abzats ham keladi. Abzats, albatta, tom ma‘noda matn sanaladi. Biroq u katta matn tarkibida uning komponenti hisoblanadi, chunki matn

tarkibidagi fikr tugalligi bir necha abzats sathida beriladi. Abzats matn tarkibida, xususan, semantik jihatdan muhim mavqega egadir. Buni matnda ifodalanayotgan umumiy xabarning qismlarga bo'lib berilishida yanada aniqroq ko'rish mumkin. Chunki har bir abzats matnning ma'lum bir mazmuniy parchasini taqozo etadi:

*Nizomjon birdan lohas bo'lib yana yostiqa bosh qo'ydi. Badani go'yo kuyib ketgandek bo'ldi. Bu odamlarga ortiqcha taShvish bo'ldi-ku, endi ko'rmagani Shu qoldimi?*

*Ko'zi ilinib uyquga ketdi. Jannat xola uning ustiga Ikromjonning to'nini yopib yostig'ini tuzatdi. Nizomjon g'arq terga pishgan, Chakkalaridan marjon-marjon ter qo'yyapti* (Said Ahmad. Ufq).

Ko'rinadiki, misol sifatida berilgan har ikki matn ham ma'nolariga ko'ra bir-biri bilan bog'lanmoqda. Abzats katta matn tarkibida qo'llanilar ekan, o'Sha matnning umumiy ma'nosi bilan qandaydir yo'sinda bog'langan bo'ladi. Bunday bog'lanish, yuqorida stilistik usul tarzida ko'rib o'tganimiz singari, ikki matn o'rtasida kuzatilmasligi ham mumkin. Lekin har bir abzats katta matnda ifodalangan umumiy ma'noning qandaydir parchasi bilan u yoki bu tarzda aloqador bo'ladi.

Katta matn tarkibida keluvchi komponentlar o'z grammatik kategoriyalariga ko'ra bir xil bo'lmaydi, albatta. Ularning biri so'z, ikkinchisi so'z birikmasi, uchinchisi esa gap, to'rtinchisi murakkab sintaktik qurilma, beshinchisi abzats kabi kategoriyalarda bo'lishi mumkin. Ammo ana shu kategoriyalardagi har bir komponent sintaktik va semantik fajllashuvi jihatidan pog'onali munosabatni taqozo etadi<sup>5</sup>. Quyida ana Shu masala tavsifiga qisqacha to'xtab o'tamiz.

Matn bir so'z bilan ifodalangan bo'lsa, unda til birliklarining pog'onali munosabati fonema, morfema va so'zlar misolida kuzatiladi<sup>6</sup>. Masalan, *kitobxonlarga* so'zi bilan ifodalangan matn komponentlarining pog'onali munosabatiga e'tibor beraylik. Bunda 13 fonema ishlatilgan bo'lib, ularning har biri o'zlariga tegishli morfema tarkibida fajllashmoqda: *kitob +xon+lar+ga*.

---

<sup>5</sup> Хайруллаев Х.З. Нутқ бирликларининг поғонали муносабати. Монография. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2008. – Б. 26-48.

<sup>6</sup> Хайруллаев Х.З. Тил ва нутқ бирликларининг поғонали муносабати. ДДА. – Тошкент, 2010. – Б. 21-22.

Mazkur morfemalar esa soʻzning tarkibiy qismlari sifatida sintagmatik qator sathida fajllashmoqda.

Matn soʻz birikmasi bilan ifodalangan boʻlganda ham pogʻonali munosabat yuqorida eslatib oʻtilgan morfemalar misolida boʻladi, zotan, soʻz birikmasi nominativ birlikni taqozo etadi. Agar soʻz birikmasini gapning sathida oʻrganadigan boʻlsak, pogʻonali munosabat soʻz birikmasi va gap kategoriyalari oʻrtasida vujudga keladi: *Maktabimiz bogʻi Chiroyli* (maktabimiz bogʻi, bogʻ Chiroyli). Biroq bunday vaziyatda soʻz birikmasi matn maqomida boʻlmaydi.

Matn gap bilan ifodalangan boʻlsa, pogʻonali munosabat soʻz va gap doirasida vujudga keladi: *Oʻzbekiston – kelajagi buyuk davlat*. Ayni paytda qoʻllanilayotgan har bir soʻz gap tarkibida sintaktik va semantik faollik olmoqda.

Matn komponentlari gap yoki murakkab sintaktik qurilmalar bilan ifodalanganda ular orasidagi pogʻonali (ierarxik) munosabat birmuncha murakkablashadi. Boshqacha aytganda, gap murakkab sintaktik qurilma yoki matn tarkibida sintaktik faollik oladi. Murakkab sintaktik qurilma esa, oʻz navbatida, abzats yoxud katta matn sathida sintaktik aktuallik kasb etadi. Abzatsning sintaktik faolligi ham, oʻz navbatida, oʻzidan katta bob yoki matnda taʼminlanadi. Shuning uchun bir bob tarkibida yoki boblarga boʻlinmagan matn tarkibida bir paytning oʻzida bir necha abzats sintaktik faollik olishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Matn komponentlari va ularning tasnifi haqida soʻzlang.
2. Soʻz birikmasi orqali ifodalangan matnda pogʻonali munosabatning namoyon boʻlishi haqida maʼlumot bering.
3. Murakkab sintaktik qurilma, supersintaktik butunlik (SSB) orqali ifodalangan matnda pogʻonali munosabatning namoyon boʻlish usullarini aytib bering.
4. Katta matn tarkibida komponentlarning pogʻonali munosabati qanday aks etadi?.



**12- MAVZU**  
**MATNDA GUMON OLMOSHLARINING AYRIM**  
**SEMANTIK VA FUNKSIONAL-USLUBIY**  
**XUSUSIYATLARI**

**Reja:**

1. Olmoshlarning tasnifiy belgilari haqida tushuncha
2. Gumon olmoshlarining orqali matnda mavhumlik, noaniqlik, gumon ma'nolarining ifodalanish xususiyatlari haqida.
3. Gumon olmoshlari matn tarkibida aktualizator sifatida.

*Tayanch soʻz va iboralar:* soʻz turkumi, mustaqil soʻz turkumi, olmosh, gumon olmoshi, soʻroq olmoshlari, olmoshlarda kelishik, egalik, koʻplik qoʻshimchalari, noaniqlik, gumon maʼnosi, funksional-uslubiy xususiyat, matnda olmoshning aktualizatorlik vazifasi.

Olmoshlar ot, sifat, son, ravish soʻz turkumlari oʻrnida, hatto, bir gap yoki matn oʻrnida nutqiy ixchamlik uchun foydalaniladigan soʻzlar boʻlib, ular nutq jarayonida nutqiy aloqa vazifasini bajaradi. Olmoshlarning har bir semantik turi matn tarkibida nutqiy aloqa vazifasini, deytik (ishora qilishi, koʻrsatish) vazifasini bajaradi [TTIL, 74-75]. Olmoshlarning barcha semantik turlari uslubiy jihatdan vazifadoshlik (sinonimik) va taʼsirchanlik (emotsional-ekspressiv) ifodasiga koʻra bir-biridan farq qiladi. Oʻzbek tilida gumon olmoshlari predmet, belgi yoki hodisa haqidagi noaniq tasavvurni bildirib, ularga umumiy, mavhum (abstrakt) va taxminli ishora qilishii bilan xarakterlanadi<sup>1</sup>. Gumon olmoshlari nomaʼlumlikni – soʻzlovshi shaxs, subʼekt avval uchratmagan yoki tushuntirib bera olmaydigan narsa-hodisa tushunchasini bildiradi. Gumon olmoshlari orasida faol qoʻllanuvchi *qandaydir* olmoshida ana Shu mavhumlik, nomaʼlumlikning ayrim jihatlari

---

<sup>1</sup> Бу ҳақда қаранг: Ўзбек тили грамматикаси. Икки томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 359; Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 318 ва бошқалар.

ro'yobga chiqadi yoki aktuallaShadi. Masalan: *Qoshlari bir-biriga tutaShgan, qisilgan ko'zlari to'rda surat bo'lib qolgan Fazilatga qadalgan, lunjlari ichiga botib ketgan qoramtir yuzida g'azab emas, yo'q, qandaydir cheksiz bir alam muhrlangan* (O.Yoqubov. Diyonat). Keltirilgan matn tarkibidagi "qandaydir" gumon olmoshi juda ham cheksiz, poyonsiz g'am-alam bilan to'lgan qahramon ichki dunyosini ochishhga vosita bo'lgan. Endi publitsistik uslub namunasi bo'lgan quyidagi parchaga e'tiborni qarataylik: *Kecha kechqurun osmondan qandaydir noma'lum jism uchib tushdi* ("Xalq so'zi"). Bu parchada ifodalovchi mavhumlik, gumon ottenkasi ikki so'zda – ham "noma'lum" so'zida, ham "qandaydir" gumon olmoshida oo'yobga Chiqmoqda. Shu o'rinda keltirilgan parchada "qandaydir" gumon olmoshi ortiqchadek, grammatik pleonazm (ortiqchalik) hodisasi sodir bo'layotgandek tuyuladi. Agar biz yuqorida keltirilgan gapning boshqacha variantini o'zaro qiyoslasak, matn tarkibida "qandaydir" gumon olmoshining funksional o'rni o'z-o'zidan anglashldi: *Kecha kechqurun osmondan qandaydir noma'lum jism uchib tushdi // kecha kechqurun osmondan noma'lum jism uchib tushdi*. Bu parchalar qiyosi shundan dalolat beradiki, "qandaydir" olmoshining matnda qo'llanishi bilan shu matn yordamida ifodalanayotgan noma'lumlik ottenkasi kuchli, ta'sirchan tarzda namoyon bo'ladi hamda o'sha noma'um narsaning qandayligiga qiziqish ottenkasi ham ro'yobga Chiqadi. Shunga ko'ra tilshunos olimlar gumon olmoshlari va boshqa ayrim tur olmoshlari matnda qo'llanilishi bilan uslubiy aktualizatorlik xususiyati namoyon bo'lishini alohida ta'kidlab ko'rsatmoqdalar<sup>2</sup>. Shunga ko'ra, gumon olmoshlarining funksional-semantik xususiyatlari o'rganilayotganda ularni matn tarkibidagi boshqa til birliklari bilan o'zaro uyg'unligini aniqlaSh, Shu asosda *qandaydir, nimadir, qachondir, qaergadir, kimdir* singari gumon olmoshlari anglatgan semantik-uslubiy ottenkalarni mikromatn qurShovida belgilash lozim bo'ladi.

Shuni unutmazlik lozimki, gumon olmoshlaridan matnda foydalanish hammavaqt ham funksional-uslubiy jihatdan kutilgan natijani beravermaydi, ya'ni ular orqali oddiygina

---

<sup>2</sup> Сулейманова О.А. Местоименные актуализаторы *весь и целый* в современном русском языке // Филологические науки. 1985. № 4. – С. 18-22; Смирнов Ю.Б. Семантико-функциональные особенности неопределенных местоименных прилагательных // Русский язык в школе. 1985. № 4. – С. 14-16; Хамроев М.А. Ҳозирги ўзбек тилидаги кўрсатиш олмошларининг функционал-семантик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2009. – Б. 51-57.

ma'lumlik-noma'lumlik xususiyati ifodalanadi-yu, lekin bu matndan muhim, emotsional ta'sirchanlikni kutish qiyin bo'ladi. Masalan: *Men ko'Chadan nimadir topib oldim* (Xalq so'zi). Publitsistik uslubga xos oddiy xabar mazmunidagi bu gapda "*nimadir*" olmoshi oddiygina noma'lumlik ma'nosini ifodalashga xizmat qilmoqda. Bu matn tarkibidagi gumon olmoshidan qo'ShimCha funksional-uslubiy xoslanishni kutish qiyin.

Endi badiiy uslubga xos quyidagi matnga diqqat qilaylik: *Negadir burchakka qisilib, mum tishlab olgan Fazilat ortiq chidab turolmadi. Birdan ovozinin boricha uvvos tortib yig'lab yubordi* (O.YOqubov. Diyonat). Keltirilgan matn boshida qo'llangan "*negadir*" gumon olmoshi o'z xatti-harakatidan qattiq pushamon bo'lib, asablari taranglaShgan Fazilat ichki kecnmalariga ishora qilmoqda. Qahramon eri Jabbor tirik bo'la turib, Bo'riboevning aldovlariga uchib, unga tegib olgan, eri frontdan kelganini eshitib, nima qilishiini bilmay turgan idora hsobchisi Fazilatning qalb tug'yoni ifodalanishiga "*negadir*" gumon olmoshi aktualizatorlik (ishora qiluvhilik) vazifasini bajaradi. Bunday paytda gumon olmoshlarining matndagi qo'shimcha ma'no xususiyati, uslubiy jihatlari haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi.

Gumon olmoshlaridan matnda so'zlovchiga ko'proq ma'lum bo'lgan predmet, voqea-hodisalarga nisbatan qo'llaSh mantiqqa to'g'ri keladi. Masalan: *Va ko'p hollarda, ma'naviyat haqida beriladigan savollarga har xil, ba'zan esa bir-biriga qarama-qarShi, qandaydir noaniq, sayoz javoblarni ham eShitishga to'g'ri keladi* (I.Karimov. YU.m., 18). Keltirilgan matnda "*qandaydir*" gumon olmoshi o'zidan keyingi "noaniq", "sayoz" kabi mavhumlikni bildiruvchi so'zlarni ma'no jihatdan to'ldirib, uslubiy jihatdan kuchaytirib kelishga xizmat qilgan, ya'ni bu matnda "*qandaydir*" gumon olmoshi stilistik aktualizator vazifasini bajarib kelmoqda.

Shunisi muhimki, noaniqlik, gumon ma'nosini bildiruvchi *kimdir, nimadir, qaysidir, qayoqdadir, qanaqadir, qandaydir, qachondir* olmoshlariga kelishik, egalik va ko'plik qo'shimchalari **-dir** elementidan oldin qo'shiladi, bunday grammatik holat noaniqlik, gumon ma'nosining matnda kuchli tarzda ta'kidlanishiga xizmat qiladi: *...bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi. Qaerdadir bo'shliq paydo bo'ldimi, hech shubhasiz, uni albatta kimdir to'ldirishga harakat qiladi* (I.Karimov. YU.m., 12);

Saida nimanidir mulohaza qilib, majlisda Qalandarovga heya narsa demadi (A.Qahhor. SinChalok) kabilar.

O'zbek tilida gumon olmoshi ba'zi so'roq olmoshlariga "ham" yordamchisini qo'shish orqali ham hosil qilinadi. Shunisi muhimki, "ham" yordamchisi so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar yoki ko'makchilardan keyin qo'shiladi: Tolibjon nima bilan ham o'z fikrini isbotlamoqchi bo'ldi, lekin uddasidan chiqa olmadi (Said Ahmad. Jimjitlik) kabilar.

O'zbek tilida "birov" so'zi ko'pincha gumon olmoshi sifatida qo'llanilib, *begona, boshqa, notanish, noaniq odam, noaniq Shaxs, allakim, kimdir* singari ma'nolarini alohida ta'kid bilan ifodalashga xizmat qiladi: – *Tomorqani birov ko'tarib ketarmidi, turaveradi-da, - dedi kampir o'g'li hoziroq ketmonni kuo'tarib tomorqa tomon jo'nashidan hadiksirayotgandek* (SH.Bo'taev. Dasta rayhon) kabilar.

Ba'zi so'zi ko'plik qo'shimchasini olgan holda gumon olmoshi vazifasini bajarishga xizmat qiladi. Aslida "ba'zi" so'zi noaniq belgi, xususiyat ma'nosini bildirib, matn tarkibida ko'pincha sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi hamda bu so'z "ayrim" so'zi bilan ma'nodoShlik hosil qiladi. Qiyoslang: *ba'zi odamlar // ayrim odamlar; ba'zi uylar // ayrim uylar*.

Shunday qilib, o'zbek tilida gumon olmoshlari so'roq olmoshlariga –*dir, alla-* elementlarini qo'shib hosil qilinadi, "birov, biron, biror" so'zlari ham gumon olmoshi ma'nosida qo'llaniladi hamda bu olmoshlar matn tarkibida noaniqlik, gumon ma'nolarini kuchli ta'kid, alohida ta'kid yo'li bilan ifodalab, matnga xilma-xil ekspressiv holatlarni ro'yobga chiqaradi, ba'zan esa matnda aktualizatorlik vazifasini bajaradi. Matnda "bir nima", "qay bir", "ba'zi", "ba'zilar" kabi so'zlar ham o'rni bilan gumon, noaniqlik ma'nolarini ifodalashga vosita bo'ladi.

### **Nazorat savollari:**

- 1.Olmoshlarning tasnifiy belgilari haqida tushuncha bering.
2. Gumon olmoshlari orqali matnda mavhumlik, noaniqlik, gumon ma'nolarining ifodalanish xususiyatlari, qanday kechqurun?

3. “Ba’zi”, “ayrim”, “bir nima” kabi so‘zlarning matn tarkibida olmosh vazifasida qo‘llanishi haqida so‘zlab bering.
4. Gumon olmoshlari matn tarkibida qay vaqtda aktualizator sifatida qo‘llaniladi?.

### **13- MAVZU**

#### **MATNDA JAMLOVCHI OLMOSHLARNING AYRIM FUNKSIONAL-USLUBIY XUSUSIYATLARI**

##### **Reja:**

1. O‘zbek tilida olmosh turkumiga oid so‘zlarning asosiy tasnifiy belgilari
2. Jamlovchi olmoshlar orqali matnda to‘dalik, jamlik, belgilash ma’nolarining ifodalanish xususiyatlari.
3. Jamlovchi olmoshlarning matn tarkibida aktualizator sifatida qo‘llanishi.

***Tayanch so‘z va iboralar:** so‘z turkumi, mustaqil so‘z turkumi, olmosh, jamlovchi olmosh, so‘roq olmoshlari, jamlovchi olmoshlarda kelishik, egalik, ko‘plik qo‘shimchalari, to‘dalik, jamlash, belgilash ma’nosi, funksional-uslubiy xususiyat, matnda jamlovchi olmoshning aktualizatorlik vazifasi.*

Qayd etilganidek, olmoshlar ot, sifat, son, ravish so‘z turkumlari o‘rnida, hatto, bir gap yoki matn o‘rnida nutqiy ixchamlik uchun foydalaniladigan so‘zlar bo‘lib, ular nutq jarayonida nutqiy aloqa vazifasini bajaradi. Olmoshlarning har bir semantik turi matn tarkibida nutqiy aloqa vazifasini, deytik (ishora qilishi, ko‘rsatish) vazifasini bajaradi [TTIL, 74-75]. Olmoshlarning barcha semantik turlari uslubiy jihatdan vazifadoshlik (sinonimik) va ta’sirchanlik (emotsional-ekspressiv) ifodasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan: *Hammaga yaxshi ma’lumki, O‘zbekiston aholisi ko‘p millatli mamlakat hisoblanadi. Bu yurtida yuzga yaqin millat va elat vakillari yaShaydi* (O‘zb. ovozi). Keltirilgan matnda ikkita olmosh turi qo‘llangan bo‘lib, birinchi gap belgilash olmosh “hamma” bilan boshlangan, kirish birikma tarkibida qo‘llangan bu olmoshni uning vazifadoshi “barcha” bilan almashtirish mumkin, bunday almashtiruv o‘sha gapning emotsional-ekspressiv xususiyatiga ta’sir etmaydi. Matn tarkibidagi 2-gap “bu” ko‘rsatish

olmoshi bilan boshlangan, bu olmosh matnda deytik (ishora qilishi) funksiyasiga ega, shu bilan birga bu soʻz matndagi ana shu ikki gapni semantik jihatdan bogʻlash, munosabatga kiritish, ularning oʻzaro yaxlitligini taʼminlash uchun ham xizmat qiladi.

Oʻzbek tiliga doir darslik va qoʻllanmalarda taʼkidlashicha, jamlash-belgilash olmoshlari predmet va shaxslarning yigʻindisini, toʻdasini bildiradi yoki ularni ayirib, taʼkidlab koʻrsatadi. Shunga koʻra jamlash-belgilash olmoshlari jamlash va belgilash olmoshlari deb ikki kichik guruhga ajratib oʻrganilmoqda<sup>1</sup>. I.Suyarov oʻz nomzodlik ishida belgilash olmoshlarini quyidagicha uch guruhga ajratib tasnif qiladi: a) umumlashtiruvchi-belgilash olmoshlari: *hamma, barcha, bari, butun, tamom, jami, bor*; b) yakka-ayiruv belgilash olmoshlari: *har, har kim, har nima, har qanday* kabi; v) qisman-ayiruv belgilash olmoshlari: *baʼzi, ayrim, bir xil* kabi.

Tilshunos olimlar jamlashni ifodalovchi belgilash olmoshlariga *hamma, bari, jami, barcha, butun, yalpi* kabi soʻzlarni kiritadilar. Matn tarkibida bu olmoshlar qatorida eng funksional jihatdan faollari *hamma* va *barcha* olmoshlaridir.

“*Hamma*” olmoshi predmet hamda shaxslar oʻrnida qoʻllanib, ot xarakterida, predmet belgisini koʻrsatib, sifat xarakterida keladi hamda predmet yoki shaxslar toʻdasini, yoki ularning belgisini ifodalashga xizmat qiladi, matn komponentlarini mantiqiy jihatdan bogʻlash, munosabatga kiritishda asosiy deytik vosita sanaladi: *YAponiya yoki Janubiy Koreyani olaylik. Bu mamlakatlarning Ikkinchi jahon urushidan keyin qanday ogʻir ahvolga tushib qolganini hammamiz yaxshi bilamiz* (I.Karimov. YU.maʼ., 26); *Tariximiz sahifalari Shundan dalolat beradiki, yurtimiz rivoji hamma zamonlarda ham bir tekis kechmagan* (I.Karimov. YU.maʼ., 50); *Eng yomoni, bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni oʻzi tugʻilib oʻsgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuygʻularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd boʻlgan shaxsga aylantirishga qaratilganida namoyon boʻlmoqda* (I.Karimov. YU.maʼ., 13) kabilar.

---

<sup>1</sup> Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1-қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 311; Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 311-312; Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 232 ва бошқалар.

O‘TIL-5da qayd qilinishicha, “*hamma*” olmoshi forscha so‘z bo‘lib, “Shaxs, narsa, uning belgisi, soni va boshqa xususiyatlarini jamlab yoki ajratib ko‘rsatadi, shu tarzda belgilaydi” [O‘TIL-5, U, 500]. Bu lug‘atda “*barcha, jami, butun*” olmoshlarining “*hamma*” olmoshi bilan o‘zaro sinonimik munosabatga kirishuvi ta’kidlab ko‘rsatilgan [O‘TIL-5, U, 500].

“*Hamma*” olmoshi matn tarkibida ot vazifasida qo‘llanganida egalik va kelishik qo‘shimchalarini qabul qilib, funksional jihatdan turli xil sintaktik vazifalarni bajaradi: *Hammamizga ma’lumki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi da’vatlarga amal qilishiga intiladigan odam ko‘pincha turli qiyinchliklar, hatto azobu uqubatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas* (I.Karimov. YU.ma’, 21) kabilar.

Olmoshlarning ayrimlari o‘zaro sinonimik uyalar yoki qatorlarga birlashadi. Lekin ana Shunday bir sinonimik uya (qator)ni tashkil etuvchi ma’nodoSh olmoshlarni hamisha ham biri o‘rnida ikkinchisini almaShtirib qo‘llab bo‘lmaydi. Masalan, lug‘atlarda ta’kidlashicha, *hamma, barcha, butun, bari, bor, jami, butkul, tamom, bor-yo‘q* so‘zlari bir sinonimik qatorni tashkil etadi [O‘TSIL, 267]. Bu so‘zlarning asosiy vazifasi shaxs, narsa, belgi, xususiyat bildiruvchi so‘zlar o‘rnida qo‘llanib, umumiylik, jamlik ma’nosini ifodalashdan iboratdir. Masalan: *Barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydigan tomoni shundaki, bizning ezgu intilishlarimiz zamirida ham ana Shunday pok niyat, buyuk ishonch mujassam* (I.Karimov. Yu.ma’, 172). Keltirilgan misoldagi “*barchamizga*” belgilash olmoshini yuqorida keltirilgan so‘zlardan faqat “*hammamizga*” so‘zi bilan almaShtirib qo‘llash mumkin, chunki bunday almaShinuv matnda uslubiy g‘alizlikka olib kelmaydi: *Barchamizga (hammamizga) g‘urur va iftixor bag‘ishlaydigan tomoni shundaki, bizning ezgu intilishlarimiz zamirida ham ana Shunday pok niyat, buyuk ishonch mujassam* (I.Karimov. YU.ma’, 172).

Ba’zan bir matn tarkibida o‘zaro ma’nodoSh bo‘lgan “*hamma*” va “*barcha*” olmoshlari qo‘llanadi. Bunday qo‘llanish takrordan, uslubiy g‘alizlikdan saqlanish uchun xizmat qiladi. Masalan: *Biz o‘z taqdirimizni o‘z qo‘limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga*

*suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda mana shunday olijanob intilishlar bilan yaShayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo‘lda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barichani aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz* (I.Karimov. Yu.ma‘., 3).

Ba‘zan jamlik ma‘nosini kuchaytirish uchun bir matn tarkibida “*hamma*” olmoshi takror qo‘llanadi hamda ular bir-birini to‘ldirishga, emotsional-ekspressiv ta‘sirini o‘shirishga xizmat qiladi: *Ittifoqo, Shu payt, bozor yonidan o‘tishda hamma narsadan xabardor, hamma joyda hoziru nozir, laqabi “ayos” – bozor oqsoqoli Ahmad ibn Moraz ham paydo bo‘lib, halloslab kelib Temur Malikka peShkaSh Chiqdi...* (Mirmuxsin. Temur Malik) kabilar.

“*Jami*” // “*jamiki*” olmoshlari ham kam qo‘llansa-da, semantik jihatdan “*hamma*”, “*barcha*”, “*bari*”, “*butun*” kabi belgilash olmoshlariga muvofiq keladi: *Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir* (I.Karimov. YU.ma‘., 83) kabilar.

Shunday qilib, kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, jamlovchi-belgilash olmoshlari o‘zbek adabiy tilining barcha funksional uslublari xos matnlarda qo‘llanib, xilma-xil funksional-uslubiy xususiyatlarga ega bo‘ladi.

### **Nazorat savollari:**

1. O‘zbek tilida olmosh turkumiga oid so‘zlarning tasnifiy belgilarini ayting.
2. Jamlovchi olmoshlar orqali matnda to‘dalik, jamlik, belgilash ma‘nolarining ifodalanish xususiyatlarini so‘zlab bering.
3. *Hamma, barcha, butun, bari, bor, jami, butkul, tamom, bor-yo‘q* so‘zlarining o‘zaro ma‘nodoshlik munosabati hamda ularning matn tarkibida jamlovchi, belgilash olmoshlari vazifasida qo‘llanishi haqida ma‘lumot bering.
4. Jamlovchi olmoshlarning matn tarkibida aktualizator sifatida qo‘llanish xususiyatlarini ayting.



**14- MAVZU**  
**BADIIY MATNLARDA LAQABLARNING**  
**AYRIM USLUBIY XUSUSIYATLARI HAQIDA**

**Reja:**

1. O‘zbek tilida antroponimlar va ularning tasnifiy belgilari.
2. Antroponimlarning badiiy matnda qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganishning ahamiyati.
3. Badiiy matnda (“Temur Malik”, “Mironshoh Mirzo” tarixiy romanlarida) laqablarning funksional-uslubiy xususiyatlari.

*Tayanch so‘z va iboralar:* onomastika, antroponimika, antroponim, ism, laqab, taxallus, introponimik seriyalar, badiiy asarda qahramon ismi, badiiy asarda qahramon laqabi, onomapoetika, ismlarning funksional-semantik xususiyatlari, laqablar badiiy matnda uslubiy vosita sifatida.

Ma’lumki, inson nomlari (onomastika sohasi) bilan bog‘liq yoki kishilarga atab qo‘yilgan laqablar (o‘z ismiga nisbatan yana biror bir belgi-xususiyatiga qarab atab qo‘yilgan ot so‘z turkumiga xos leksemalar) antroponimlardir. Antroponimlar guruhiga ism, laqab, taxallus kabilar kiradi. To‘laqonli badiiy obrazning yuzaga kelishida qahramonning portreti, tashqi qiyofasi, nutqi, monolog va dialoglari bilan bir qatorda uning ismi, laqabi yoki taxallusi ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun jahon adabiyotining yirik vakillari o‘z asarlari qahramonlarining ismlariga ham alohida e’tibor berishgan, qahramonga munosib ism topish o‘ziga xos san’atkorlik belgisi deb baholangan. Ulug‘ rus yozuvchisi A.P.Chexov qahramon ismining badiiy asar uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutib, jumladan, shunday degan edi: “faqat asar qahramonlarining nutqlaridagina emas, balki ularning ismlari va familiyalarida ham chuqur soddalik va hayotiylik bo‘lishi kerak. Binobarin, qahramonning nomi asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini chuqurlashtirib, uning milliy ruhini, xalqchilligini kuchaytirishda, asardagi obrazlar va voqealarni tipiklashtirishda muayyan rol o‘ynaydi”<sup>1</sup>. Masalaga ana shu nuqtai nazardan

---

<sup>1</sup> Цитата куйидаги асардан олинди: Қосимов У. Ёзувчининг сирлари (Абдулла Қаххор сабоқлари). – Тошкент, 1995. – Б. 56.

qaraganda, badiiy matnda, jumladan, tarixiy romanlarda qoʻllangan ismlar (antroponimlar)ning funksional-semantik xususiyatlarini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, tarixiy romanlarda, jumladan taniqli yozuvchi Mirmuhsinning “Temur Malik” romanida qoʻllangan antroponimlar oʻSha asarda tasvirlangan XIII-XIV asrlar tarixiy voqeligiga mos boʻlishiga erishilgan. Mirmuhsin bu asarida koʻproq oʻSha davr, yaʼni XII-XIV asr eski oʻzbek adabiy tilida, turkiy xalqlar orasida keng qoʻllangan kishi ismlari, laqablar va taxalluslardan oʻrinli foydalanishga intiladi.

Yozuvchi “Temur Malik” romani ustida oʻn yil mehnat qilgan edi (1975-1985). 1985 yilda asar dastlab “Sharq yulduzi” jurnalida eʼlon qilindi, keyinchalik “Xoʻjand qalʼasi” nomi bilan alohida kitob holida nashr etilgandi. Yozuvchi bu asarni qayta ishlab, uning keyingi nashrlarida asarni “Temur Malik” (“Xoʻjand qalʼasi”) nomi bilan nashr etishni maʼqul koʻrdi. Bu asarga soʻngsoʻz yozgan, tarixchi olim H.Ziyoev toʻgʻri taʼkidlaganidek, “romanning Chingizxon istilo qilgan joylarda, xususan, Oʻtrorda, Xoʻjandda va Urganchda qilgan yovuzliklariga bagʻishlangan sahifalari katta qiziqish bilan oʻqiladi”<sup>2</sup>.

“Temur Malik” tarixiy romani matnida boshqa leksik vositalar singari laqablar ham muhim tasviriy ahamiyat kasb etgan. Masalan, romandagi asli samarqandlik sardor Muhammad Intizom “*Mextar Bodiyaalldoyi Samarqandiy soniy*” laqabiga ega (T.M., 107). Yozuvchining eslatishicha, *Mextar Bodiyaalldoyi Samarqandiy soniy* - jangnomalardagi afsonaviy aygʻoqchilarning ismlaridir (T.M., 107). Shu bilan birga bu aygʻoqchilar sardorining “*Mehtarbod*”, “*kamak Kayyoniy*”, “*saltanatning oʻtkir xanjari*” kabi laqablari ham bor: “- *Mana oʻqing, azizim. Siz na Mehtarbod va na Kamak Kayyoniy ekansiz!..*” (T.M., 294).

Asarning bosh qahramoni Temur Malik “Fili Mahmud” laqabiga ega: “*Temur Malik ibn Mahmud* – oʻttiz yoʻshlarga borgan barvasta, elkalari keng, qoʻl-oyoqlari uzun, yoʻgʻon ovozli kishi... *Baʼzan kulgisiniyu qahrini yuzidan aniq sezib boʻlmas, Shu sababli ham uni fili Mahmud” derdilar – ellik qadamCha erdan tegirmon toʻshini elkada koʻtarib kelib,*

---

<sup>2</sup> Зиёев Х. “Темур Малик” романи // Мирмуҳсин. Темур Малик. Тарихий роман. – Тошкент, 1985. – Б. 443. Услубий қўлланмада бу романдан олинган мисоллар асарнинг шу нашридан келтирилади, кавс ичида Т.м., қисқартмаси билан роман саҳифаси кўрсатилади.

charx ustiga o‘rnatib berganidan tashqari, gap ko‘tatar, har qanday noxush xabar oldida shachrab ketmas, bo‘ronlarga qoyadek chidamli edi, “Fili Mahmud” laqabi ham shundan bo‘lsa kerak” (T.M., 5). Romanda ana shu laqab ba‘zan so‘z o‘yiniga, askiyaga asos bo‘lib xizmat qiladi:

“ - ...Sizga tenglaSholmas ekanmen. Bu og‘ir xodalar sherning emas, filning ham (“Fil” so‘zi bilan u Temur Malikka ishora qildi) yuragini o‘ynatib yuboradi.

- Filning ham bo‘ladigani bo‘ldi. Yuring, daryoda bir cho‘milib kelamiz... (T.M., 128-129).

Mo‘g‘ullar esa Temur Malikni “qora Irvess” - “qora Qoplon” laqabi bilan yuritishgan: “Tunda qora “Irvess” paydo bo‘lib, posbonlarni echinib yotgan joyida qonga belab, qilich bilan chopib, nayza bilan chanchib... ketishi mo‘g‘ullarning tinkasini quritdi. Ular tun bo‘yi uxlamay “Irvess”ni kutadigan, poylab Chiqadigan bo‘lib qoldilar” (T.M., 300) kabilar.

Asarda ayrim xotin-qizlar ham o‘z laqablariga ega. Bu jihatdan XorazmShohning onasi – Turkon xotun obrazi xarakterlidir. U o‘ta makkor, o‘g‘li – XorazmShohning ishiga ham bo‘lar-bo‘lmasga aralashaveradigan ayol bo‘lib, asarda u “Xudovandi Jahon”, “Qari tulki”, “Buyuk enamiz” laqablari bilan ham yuritiladi: “Sultonning in‘omiga sazovor bo‘lish va buni sulton o‘z qo‘li bilan topShirishi - katta voqea. Xo‘jandlik Mahmud Malik o‘g‘li Temurning saltanatga sadoqati keyinchalik Xo‘jandga hokim etib tayinlanishiga asos bo‘lgan edi. Bu devqomat yigitning “Xudovandi Jahon” – Turkon xotunga itoatkorligi, unga doimo qo‘li ko‘ksida, salomini kanda qilmasligi, ayniqsa, hamisha burgutday Chaqnab turishi qahri qattiq Turkon xotunning diqqatini ham jalb etgan edi” (T.M., 43); “...Xudovandi jahon – Turkon xotun enamizni “Qari tulki” atamishlar... Xo‘jand qal‘asini mustahkam ta‘mir laShdan maqsad XorazmShohga qarshi turish emish” (T.m.,76); “...Shahzodadan yaShirmang, mening “qismatim”dan xabardor. Zinhor-bazinhor buyuk Enamiz maqsadingizdan voqif bo‘lmasun...” (T.M., 78) kabilar.

Romanning bir o‘rnida Turkon xotunning Xorazmshohlar davlatidagi ulug‘ligi raqqosa Nigina beginning hatti-harakati bilan qiyoslanadi: “Ayollar o‘rtasida ham “Ulug‘likda Turkon bo‘l, er bag‘rida Niginayi jahon bo‘l...” degan gap ham yurardi” (T.M., 58).

Romanda salbiy mazmunli laqabga ega bo'lgan ayollardan biri Binafsha bekadir. Temur Malikning xotini Oychechakning kanizagi bo'lgan bu xotin “Qora qanjiq” – “Olaqanjiq”, “ko'rpa tagidagi ilon” laqabiga ega: *“Binafsha beka ham Gurganndan Oychechak bilan birga kelgan, bu enaganing ham Turkon xotunga aloqadorligini Temur Malik allaqachon sezgan. U hamma narsani kavlaShtirib, hamma gapga burnini tiqardi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Temur Malik bilan Shohmurod Ko'histoniy uni “Qora qanjiq” deb atashardi o'zaro. Temur Malik... Binafsha beka ko'rpa tagidagi ilon ekanini unutmadi. Chunki saltanat sha'niga tegadigan har bir gap Gurgannga etib borishi, “Qora qanjiq”ning shaharda odamlari borligi Muhammad Intizom orqali unga ham ma'lum edi”* (T.M., 75); *“Baland ayvon zinasida ro'para kelgan mo'g'ul qorovuli ichkariga kirib, Binafsha bekani boshlab chiqdi. “Olaqanjiq” oqsoqoldan bola topilganini eshitib, xursand bo'lganidan yig'lab yubordi”* (T.M., 314) kabilar.

Romanda “hamma joyda hoziru nozir” bozor oqsoqoli Ahmad ibn Morazning laqabi “ayos” edi: “Ittifoqo, shu payt bozor yonidan o'tishda hamma narsadan xabardor, hamma joyda hoziru nozir, laqabi “ayos” – bozor oqsoqoli Ahmad ibn Moraz ham paydo bo'lib, halloslab kelib Temur Malikka peShkaSh Chiqdi” (T.M., 10).

Asarda Temur ismli obrazlar ham ikkita. Biri – Xo'jand hokimi, mohir sarkarda Temur Malik bo'lsa, ikkinchisi – xoin, qochoq Temurdir. Uning barvasta qomati va ismi Temur ekanligiga ishonib, SHohmurod Ko'histoniy bu barvasta yigitni jangchilar safiga qo'Shadi: *“Devqomat bo'lgani bilan palag'da tuxumdan chiqqanligi... yuragimga Shubha solgan edi. La'natining nomi ham “Temur”. shubham to'g'ri – u iblis bo'lib chiqdi!”* (T.M., 240); *“Nojins, attang qochibdi, lekin qo'limizga tushmay iloji yo'q! Men bu xoinning Afrosiyobdek qaddu qomatiga, murtiga qarabmanu yuragiga qaramabman. Ko'zim ko'r ekan. Men bir Chayonni bag'rimizga olibman...”* (T.M., 240).

Romanda mo'g'ullarning sarkardalari *So'qtu no'yon va Uloq nuyon* ismlari juda ko'p marta takrorlanadi, ularning o'zlariga xos xarakterini, jizzakilik, toSh bag'irlik, yovuzlik, makkorlik, ishratparastlik xususiyatlarini ochishh maqsadida yozuvchi ularning har biriga mos mo'g'ulcha laqablardan ham foydalanadi. Masalan, *So'qtu no'yonning* laqabi mo'g'ulcha “*xulgana*” (“*sichqon*”) bo'lsa, *Uloq no'yonning* laqabi “*Chono*”

(“qashqir”)dir: *“Movaraunnahr tuprog‘iga o‘tishda u Xo‘jand, undan to o‘shu O‘zgangacha borishni sinalgan “sergiyi” (harbiy boshliq)lari So‘qtu no‘yon bilan Uloq no‘yonlarga topShirdi. Ularning katta o‘ttiz besh yoshda, laqabi “Xulgana” (sichqon) edi. Yumaloqligi, tishlarining o‘tkirligi, pitirlab tez yurishi sababli Shu laqabni olgan bo‘lsa kerak. Ikkinchisi o‘ttiz uch yoshda bo‘lib, laqabi “Chono” (qashqir), “Udirdagch” (yo‘lboshchi, ya‘ni Chingizxon) bu ikki no‘yonga Udegey, Chig‘atoyu Botuxondek e‘timod qo‘ygan...”* (T.M., 187) kabilar.

Taniqli yozuvchi Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasining uchinchi kitobi - “Mironshoh Mirzo” tarixiy romanida ham ayrim antroponimlarning etimologiyasi, xalq orasida Shunday nomlanishning sabablari ochib berilgan. Masalan, Amir Temur o‘zining sevimli nabirasi Ulug‘bekka o‘z otasi *Muhammad Tarag‘ay* nomini beradi, shunday ulug‘ nomning avlodlari orasidan o‘chib ketmasligi uchun shu nomni tanlaganini, “*Ulug‘bek*” esa uning laqabi ekanini Sohibqironning quyidagi so‘zlaridan bilib olish mumkin:

*“...Nabiramizni eski udumlarga ko‘ra, otamizning ismlari birlan atag‘oymiz! Toki ul zot ruhlari Shod bo‘lsun, har lahza, har on yodlanib tursunlar! Bas, uning nomi Muhammad Tarag‘aydur!*

*-Biroq uni chorlag‘onda tabarruk ismni ulug‘lab, urintirmaslik lozim, Shu sababdan laqabini “Ulug‘bek” deb tanladuk. Olloh taolo anga ulug‘lik, buyuk martaba ato etsun!”* (U.s., SH, 287)<sup>3</sup>.

Yoki Amir Temurning sodiq do‘sti Jahonshoh ibn Joku yagona qiziga Sog‘inch bika deb ism qo‘yadi. Buning sababi otaning quyidagi ichki nutqi, o‘y-kecnmalari orqali ochib berilgan: *“Demak, Sog‘inch bika jinlarga uchramagan... Eh, Sog‘inch, Sog‘inch! Qaydanam senga shu ismni qo‘yg‘on ekanmen! Mana endi, sog‘intirib ketding!...”* – deb o‘yladi xorib-ezilgan ota” (U.sal., Sh 266).

Asardagi dovyurak, bahodir yigitlardan biri Ahiy Jabbordir. Shu ism oldidan keltirilgan “*ahiy*” so‘ziga ham asarda Ayboj o‘g‘lon so‘rog‘iga ko‘ra quyidagicha izoh beriladi:

---

<sup>3</sup> Мухаммад Али. Улуғ салтанат. Тетралогия. Учинчи китоб. Мироншоҳ Мирзо. Тарихий роман. – Тошкент: “Шарк” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2010. – 416 б. Ишда бу романдан олинган мисоллар асарнинг шу нашридан келтирилади, қавс ичида У.с., Ш, қисқартмаси билан роман саҳифаси кўрсатилади.

*“- Yonayapman, jigarim suv bo‘lib oqyapti, oh... – mungsiradi otaShnok Ayboj o‘g‘lon. – Bahodir janoblari... Maylimi, so‘rasam? Agar... endi-da... oh... agar, bordi-yu... o‘z ichimingizni menga ilinsangiz, tirik qolishim aniq, yo‘q esa o‘lamen... Qulog‘imga tushmish erdikim, bitta nonning yarmini muhtojga berganni saxiy derlar. O‘zi och-u nonni hammasini muxtojga berganni ahiy deb ulug‘laydurlar... Siz ahiysiz, ahiy, Axiy Jabbor Bahodir... Javonmardlardan ekanligingiz haqida eShitg‘onmen...”* (U.s., SH, 259).

Asardagi personajlarga ism tanlashda yozuvchining yana bir mahorati Shunda ko‘rinadiki, *Sog‘inCh bika* o‘zi zaifa bo‘lsa-da, mard, jasur qiz, u yoShligidan yigitlardek jang qilishini, ot minishni maShq qilgan. Shu sababli o‘ziga yigitcha ism – Arg‘unShohni tanlab, sevgilisi Muhammad Sultonni izlab Samarqanddan Chiqib ketadi, uning qo‘Shiniga borib qo‘Shiladi. O‘zini sipohi yigitlarday tutib, o‘z muhabbati uchun kurashadi. Buni *Sog‘inCh bika* (Arg‘unShoh)ning Muhammad Sultonga yo‘llagan maktubidan ham sezish mumkin: *“Bas... Maktub bitayotg‘on kimsa... Arg‘unShoh, zukko va aqlli yigit, sipoh... Aslida Arg‘unShoh ermas, yo‘q, yo‘q, sizning suyg‘oningiz... Shunday deya olurmenmu, avf etg‘oysiz... bir beChora, Sho‘rlik, o‘ksiz, aftoda, notavonlar notavoni Sog‘inCh bikadur...”* (O‘.s., SH, 337).

Asarda ayrim personajlar xatti-harakati bilan bog‘liq holda ularga ismiga aloqador kinoyali laqablar ham to‘qilgan. Bu esa romanning ta‘sirchanligini, obrazlilikini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, *Sog‘inch* bikaning erkakcha xarakteri tufayli uni dugonalari *“Avbosh bika”* deb chaqirishadi. Aslida *“avbosh”* eskirgan forsha-tojikcha so‘z bo‘lib, *“bezori, badkirdor, sayoq”* ma‘nolarini bildiradi (O‘TIL-5, 1, 29): *“- Voy, Sog‘inch o‘lgur, rosa hammamizni qo‘rqitib yubording-ku! Qayoqqa yo‘qolding? Shundan gapir! Birov Zarafshonga tushib ketdi deydi, yana qochib ketdi deyishadimi-ey... Avbosh bika deganlari ham bejiz emas ekan-da”* (U.s., SH, 357). Qizning otasi ham uni ana Shu xususiyatidan kelib chiqib, *“avbosh qiz”* deydi: *“...Orqavarotdan Arg‘unShoh degan yigitni surishtirdi, uning Samarqandga jo‘nab ketganini bildi. Demak, “avbosh” qizi endi Samarqandda ekan...”* (U.s., SH, 329). Kanizak Sarvinoz ham yo‘qolgan *Sog‘inch* bikaning topilgani haqida qizning otasi JaxonShoh ibn Jokuga yozgan xatida yana qizning *“avbosh”*ligini

eslatadi: “...*O*llohning inoyati birlan, “avbosh” Sog‘inCh bika qizimiz, xudoga Shukur, sog‘-salomat uyimizga qaytib keldi!...” (U.s., SH, 329).

Sog‘inch bika esa qarddon dugonalari Zubaydabonuni “vovvovxon”, Bilqis begimni esa “dumboqqina” laqablari bilan “siylaydi”: *“Iloyo, jonday dugonalarim vovvovxon Zubaydabonu birlan dumboqqina Bilqis begimlarga qo‘Chqorday kuyovlar ato etsin...”* (U.s., Sh, 357).

Mironshoh Mirzo aySh-ishratga berilib ketgani uchun o‘z atrofidagilarning barichaga turli xil laqablar qo‘yib olgan edi. Masalan, Abdulmo‘min Go‘yanda yaxShi raqsga tushgani uchun davrdagilar unga “*Sarvinoz*” deb laqab qo‘ygan edilar: “- *Sarvinoz!* – *amr etdi xiyla to‘lishib qolgan Mironshoh Mirzo halloslab so‘riga yaqinlaShar ekan. – O‘yinga-a-a!..*

*Qiyqiriq ko‘tarildi.*

“*Sarvinoz*” – Abdulmo‘min Go‘yandaning davradagi laqabi. U o‘yinni qiyvorgani, qizlarday eShilib raqs tusha olgani uchun shunday laqab olgan. Nadimlarning barichada laqab bor, chunonchi, Xoja Marog‘iyi “*O‘yinch*”, Mavlono Ko‘histoniyni “*Raqqos*”, Ardasher Changiyni “*Jilvagar*”, Qutbiddin Noyiyni “*Sho‘xiy*”, Habib Udiyni “*Nozicha*” deb atardilar” (U.s., Sh, 390).

Sohibqiron Amir Temurning qizi Sulton Baxt begim esa oilaviy hayotda notinChligi, eri temuriylar davlatiga xoinlik qilgani uchun o‘zini Sulton Badbaxt begim deb hisoblardi. Buni Sulton Baxt begimning ichki kecnmalari, o‘y-xayollari tasviri berilgan quyidagi matn ham yaqqol tasdiqlaydi: “*Sen-Chi, Baxt?* – *so‘radi o‘zidan o‘zi alam girdobida... – Xudo Shohid, ichingda Amir SHohmalik janoblarini sevarding. Ha, sevarding, ammo sevging uchun kurashding-mu?.. Agar kurashganingda, anovi er yutkur mal’un telbaning qo‘lida ezilgan guldek xor bo‘lmasding-ku?.. Endi Sulton Badbaxt begimga aylanib o‘ltiribsen!...”* (U.s., SH, 370).

Shunday qilib, badiiy matnlarda, jumladan, yozuvchi Mirmuhsinning “Temur Malik” va Muhammad Alining “Mironshoh Mirzo” tarixiy romanlarida laqablar asarda tasvirlangan tarixiy davr – mo‘g‘ul bosqinChilariga qarShi kurash, temuriylar davlatini mustahkamlaSh davri haqida kitobxonlarga aniq tasavvur berish uchun xizmat qiladi. O‘zbek badiiy

matnda laqablarning funksional-uslubiy xususiyatlari esa maxsus kuzatishlar talab qiladigan alohida muammo sanaladi. Nomshunos olimlarning ta'kidlashlariga ko'ra, "o'zbek tarixiy nomshunosligining dolzarb muammolari orasida laqab va taxalluslarni o'rganish ishi alohida o'rin tutadi. Chunki qadimgi davrlarga borganimiz sari nomlar va laqablar orasida farq kamaya boradi va umuman laqablarning nomdosh vositasi sifatidagi roli ortib boradi. Umuman laqab va taxalluslarni faqatgina nominativ (nomdosh) vositasi sifatida o'rganish etmaydi, balki ularni badiiy-uslubiy vosita tarzida tadqiq qilishi ham muhimdir. Bunday kuzatuvlarda ism, laqab va taxalluslar orasidagi atoliq otlarga xos umumiylik va o'zaro farqlarni ochib berish alohida ahamiyatga egadir".

Nazorat savollari:

1. O'zbek tilida antroponimlar va ularning tasnifiy belgilari ayting.
2. Ismlar, taxalluslar va laqablarning o'zaro munosabati, ularning antroponimlar tizimida tutgan o'rin haqidagi fikrlarni bayon qiling.
3. Antroponimlarning badiiy matnda qo'llanish xususiyatlarini tahlil qiling.
4. Badiiy matnda ("Temur Malik", "Mironshoh Mirzo" tarixiy romanlarida) laqablarning funksional-uslubiy xususiyatlari talqin eting.

## **15- MAVZU** **BADIIY MATN TILI USTIDA ISHLASH-MATN TAHRIRI** **MASALALARI.**

### **Reja:**

1. O'zbek tilida antroponimlar va ularning tasnifiy belgilari.
2. Antroponimlarning badiiy matnda qo'llanish xususiyatlarini o'rganishning ahamiyati.
3. Badiiy matnda ("Temur Malik", "Mironshoh Mirzo" tarixiy romanlarida) laqablarning funksional-uslubiy xususiyatlari.

*Tayanch so'z va iboralar:* onomastika, antroponimika, antroponim, ism, laqab, taxallus, antroponimik seriyalar, badiiy asarda qahramon ismi, badiiy asarda qahramon laqabi, onomapoetika, ismlarning funksional-semantik xususiyatlari, laqablar badiiy matnda uslubiy vosita sifatida.



Ma'lumki, inson nomlari (onomastika sohasi) bilan bog'liq yoki kishilarga atab qo'yilgan laqablar (o'z ismiga nisbatan yana biror bir belgi-xususiyatiga qarab atab qo'yilgan ot so'z turkumiga xos leksemalar) antroponimlardir. Antroponimlar guruhiga ism, laqab, taxallus kabilar kiradi. To'laqonli badiiy obrazning yuzaga kelishida qahramonning portreti, tashqi qiyofasi, nutqi, monolog va dialoglari bilan bir qatorda uning ismi, laqabi yoki taxallusi ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun jahon adabiyotining yirik vakillari o'z asarlari qahramonlarining ismlariga ham alohida e'tibor berishgan, qahramonga munosib ism topish o'ziga xos san'atkorlik belgisi deb baholangan. Ulug' rus yozuvchisi A.P.Chexov qahramon ismining badiiy asar uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutib, jumladan, shunday degan edi: "faqat asar qahramonlarining nutqlaridagina emas, balki ularning ismlari va familiyalarida ham chuqur soddalik va hayotiylik bo'lishi kerak. Binobarin, qahramonning nomi asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini chuqurlashtirib, uning milliy ruhini, xalqchilligini kuchaytirishda, asardagi obrazlar va voqealarni tipiklashtirishda muayyan rol o'ynaydi"<sup>1</sup>. Masalaga ana shu nuqtai nazardan qaraganda, badiiy matnda, jumladan, tarixiy romanlarda qo'llangan ismlar (antroponimlar)ning funksional-semantik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, tarixiy romanlarda, jumladan taniqli yozuvchi Mirmuhsinning "Temur Malik" romanida qo'llangan antroponimlar o'Sha asarda tasvirlangan XIII-XIV asrlar tarixiy voqeligiga mos bo'lishiga erishilgan. Mirmuhsin bu asarida ko'proq o'Sha davr, ya'ni XII-XIV asr eski o'zbek adabiy tilida, turkiy xalqlar orasida keng qo'llangan kishi ismlari, laqablar va taxalluslardan o'rinli foydalanishga intiladi.

Yozuvchi "Temur Malik" romani ustida o'n yil mehnat qilgan edi (1975-1985). 1985 yilda asar dastlab "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilindi, keyinchalik "Xo'jand qal'asi" nomi bilan alohida kitob holida nashr etilgandi. Yozuvchi bu asarni qayta ishlab, uning keyingi nashrlarida asarni "Temur Malik" ("Xo'jand qal'asi") nomi bilan nashr etishni ma'qul ko'rdi. Bu asarga so'ngso'z yozgan, tarixchi olim H.Ziyoev to'g'ri ta'kidlaganidek, "romanning Chingizxon istilo qilgan joylarda, xususan, O'trorda,

---

<sup>1</sup> Цитата куйидаги асардан олинди: Қосимов У. Ёзувчининг сирлари (Абдулла Қаххор сабоқлари). – Тошкент, 1995. – Б. 56.

Xo‘jandda va Urganchda qilgan yovuzliklariga bag‘ishlangan sahifalari katta qiziqish bilan o‘qiladi”<sup>2</sup>.

“Temur Malik” arixiy romani matnida boshqa leksik vositalar singari laqablar ham muhim tasviriy ahamiyat kasb etgan. Masalan, romandagi asli samarqandlik sardor Muhammad Intizom “*Mextar Bodiyaalloyi Samarqandiy soniy*” laqabiga ega (T.M., 107). Yozuvchining eslatishicha, *Mextar Bodiyaalloyi Samarqandiy soniy* - jangnomalardagi afsonaviy ayg‘oqchilarning ismlaridir (T.M., 107). Shu bilan birga bu ayg‘oqchilar sardorining “*Mehtarbod*”, “*kamak Kayyoniy*”, “*saltanatning o‘tkir xanjari*” kabi laqablari ham bor: “- *Mana o‘qing, azizim. Siz na Mehtarbod va na Kamak Kayyoniy ekansiz!..*” (T.M., 294).

Asarning bosh qahramoni Temur Malik “*Fili Mahmud*” laqabiga ega: “*Temur Malik ibn Mahmud – o‘ttiz yoShlarga borgan barvasta, elkalari keng, qo‘l-oyoqlari uzun, yo‘g‘on ovozli kishi... Ba‘zan kulgisiniyu qahrini yuzidan aniq sezib bo‘lmas, Shu sababli ham uni “fili Mahmud” derdilar – ellik qadamCha erdan tegirmon toShini elkada ko‘tarib kelib, charx ustiga o‘rnatib berganidan tashqari, gap ko‘tatar, har qanday noxush xabar oldida shachrab ketmas, bo‘ronlarga qoyadek chidamli edi, “Fili Mahmud” laqabi ham shundan bo‘lsa kerak*” (T.M., 5). Romanda ana shu laqab ba‘zan so‘z o‘yiniga, askiyaga asos bo‘lib xizmat qiladi:

“ - ...Sizga tenglaSholmas ekanmen. Bu og‘ir xodalar sherning emas, filning ham (“*Fil*” so‘zi bilan u Temur Malikka ishora qildi) yuragini o‘ynatib yuboradi.

- Filning ham bo‘ladigani bo‘ldi. Yuring, daryoda bir cho‘milib kelamiz... (T.M., 128-129).

Mo‘g‘ullar esa Temur Malikni “*qora Irvess*” - “*qora Qoplons*” laqabi bilan yuritishgan: “*Tunda qora “Irvess” paydo bo‘lib, posbonlarni echinib yotgan joyida qonga belab, qilich bilan chopib, nayza bilan chanchib... ketishi mo‘g‘ullarning tinkasini quritdi. Ular tun bo‘yi uxlamay “Irvess”ni kutadigan, poylab Chiqadigan bo‘lib qoldilar*” (T.M., 300) kabilar.

---

<sup>2</sup> Зиёев Х. “Темур Малик” романи // Мирмуҳсин. Темур Малик. Тарихий роман. – Тошкент, 1985. – Б. 443. Услубий қўлланмада бу романдан олинган мисоллар асарнинг шу нашридан келтирилади, кавс ичида Т.м., қисқартмаси билан роман саҳифаси кўрсатилади.

Asarda ayrim xotin-qizlar ham o'z laqablariga ega. Bu jihatdan XorazmShohning onasi – Turkon xotun obrazi xarakterlidir. U o'ta makkor, o'g'li – XorazmShohning ishiga ham bo'lar-bo'lmasga aralashaveradigan ayol bo'lib, asarda u “*Xudovandi Jahon*”, “*Qari tulki*”, “*Buyuk enamiz*” laqablari bilan ham yuritiladi: “*Sultonning in'omiga sazovor bo'lish va buni sulton o'z qo'li bilan topShirishi - katta voqea. Xo'jandlik Mahmud Malik o'g'li Temurning saltanatga sadoqati keyinchalik Xo'jandga hokim etib tayinlanishiga asos bo'lgan edi. Bu devqomat yigitning “Xudovandi Jahon” – Turkon xotunga itoatkorligi, unga doimo qo'li ko'ksida, salomini kanda qilmasligi, ayniqsa, hamisha burgutday Chaq nab turishi qahri qattiq Turkon xotunning diqqatini ham jalb etgan edi*” (T.M., 43); “*...Xudovandi jahon – Turkon xotun enamizni “Qari tulki” atamishlar... Xo'jand qal'asini mustahkam ta'mirlaShdan maqsad XorazmShohga qarShi turish emish*” (T.m.,76); “*...Shahzodadan yaShirmang, mening “qismatim” dan xabardor. Zinhor-bazinhor buyuk Enamiz maqsadingizdan voqif bo'lmasun...*” (T.M., 78) kabilar.

Romanning bir o'rnida Turkon xotunning Xorazmshohlar davlatidagi ulug'ligi raqqosa Nigina beginning hatti-harakati bilan qiyoslanadi: “*Ayollar o'rtasida ham “Ulug'likda Turkon bo'l, er bag'rida Niginayi jahon bo'l...*” degan gap ham yurardi” (T.M., 58).

Romanda salbiy mazmunli laqabga ega bo'lgan ayollardan biri Binafsha bekadir. Temur Malikning xotini Oychechakning kanizagi bo'lgan bu xotin “Qora qanjiq” – “Olaqanjiq”, “ko'rpa tagidagi ilon” laqabiga ega: “*BinafSha beka ham Gurganjdan Oychechak bilan birga kelgan, bu enaganing ham Turkon xotunga aloqadorligini Temur Malik allaqachon sezgan. U hamma narsani kavlaShtirib, hamma gapga burnini tiqardi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Temur Malik bilan Shohmurod Ko'histoniy uni “Qora qanjiq” deb atashardi o'zaro. Temur Malik... BinafSha beka ko'rpa tagidagi ilon ekanini unutmadi. Chunki saltanat sha'niga tegadigan har bir gap Gurganjga etib borishi, “Qora qanjiq”ning shaharda odamlari borligi Muhammad Intizom orqali unga ham ma'lum edi*” (T.M., 75); “*Baland ayvon zinasida ro'para kelgan mo'g'ul qorovuli ichkariga kirib, BinafSha bekani boshlab chiqdi. “Olaqanjiq” oqsoqoldan bola topilganini eshitib, xursand bo'lganidan yig'lab yubordi*” (T.M., 314) kabilar.

Romanda “hamma joyda hoziru nozir” bozor oqsoqoli Ahmad ibn Morazning laqabi “ayos” edi: “Ittifoqo, shu payt bozor yonidan o‘tishda hamma narsadan xabardor, hamma joyda hoziru nozir, laqabi “ayos” – bozor oqsoqoli Ahmad ibn Moraz ham paydo bo‘lib, halloslab kelib Temur Malikka peShkaSh Chiqdi” (T.M., 10).

Asarda Temur ismli obrazlar ham ikkita. Biri – Xo‘jand hokimi, mohir sarkarda Temur Malik bo‘lsa, ikkinchisi – xoin, qochoq Temurdir. Uning barvasta qomati va ismi Temur ekanligiga ishonib, SHohmurod Ko‘histoniy bu barvasta yigitni jangchilar safiga qo‘shadi: “Devqomat bo‘lgani bilan palag‘da tuxumdan chiqqanligi... yuragimga Shubha solgan edi. La‘natining nomi ham “Temur”. shubham to‘g‘ri – u iblis bo‘lib chiqdi!” (T.M., 240); “Nojins, attang qochibdi, lekin qo‘limizga tushmay iloji yo‘q! Men bu xoinning Afrosiyobdek qaddu qomatiga, murtiga qarabmanu yuragiga qaramabman. Ko‘zim ko‘r ekan. Men bir Chayonni bag‘rimizga olibman...” (T.M., 240).

Romanda mo‘g‘ullarning sarkardalari So‘qtu no‘yon va Uloq nuyon ismlari juda ko‘p marta takrorlanadi, ularning o‘zlariga xos xarakterini, jizzakilik, toSh bag‘irlik, yovuzlik, makkorlik, ishratparastlik xususiyatlarini ochish maqsadida yozuvchi ularning har biriga mos mo‘g‘ulcha laqablardan ham foydalanadi. Masalan, So‘qtu no‘yonning laqabi mo‘g‘ulcha “xulgana” (“sichqon”) bo‘lsa, Uloq no‘yonning laqabi “Chono” (“qashqir”)dir: “Movaraunnahr tuprog‘iga o‘tishda u Xo‘jand, undan to o‘shu O‘zgangacha borishni sinalgan “sergiyi” (harbiy boshliq)lari So‘qtu no‘yon bilan Uloq no‘yonlarga topShirdi. Ularning katta o‘ttiz besh yoshda, laqabi “Xulgana” (sichqon) edi. Yumaloqligi, tishlarining o‘tkirligi, pitirlab tez yurishi sababli Shu laqabni olgan bo‘lsa kerak. Ikkinchisi o‘ttiz uch yoshda bo‘lib, laqabi “Chono” (qashqir), “Udirdagch” (yo‘lboshchi, ya‘ni Chingizxon) bu ikki no‘yonga Udegey, Chig‘atoyu Botuxondek e‘timod qo‘ygan...” (T.M., 187) kabilar.

Taniqli yozuvchi Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasining uchinchi kitobi - “Mironshoh Mirzo” tarixiy romanida ham ayrim antroponimlarning etimologiyasi, xalq orasida Shunday nomlanishning sabablari ochib berilgan. Masalan, Amir Temur o‘zining sevimli nabirasi Ulug‘bekka o‘z otasi Muhammad Tarag‘ay nomini beradi, shunday ulug‘

nomning avlodlari orasidan o‘chib ketmasligi uchun shu nomni tanlaganini, “*Ulug‘bek*” esa uning laqabi ekanini Sohibqironning quyidagi so‘zlaridan bilib olish mumkin:

*“...Nabiramizni eski udumlarga ko‘ra, otamizning ismlari birlan atag‘oymiz! Toki ul zot ruhlari Shod bo‘lsun, har lahza, har on yodlanib tursunlar! Bas, uning nomi Muhammad Tarag‘aydur!*

*-Biroq uni chorlag‘onda tabarruk ismni ulug‘lab, urintirmaslik lozim, Shu sababdan laqabini “Ulug‘bek” deb tanladuk. Olloh taolo anga ulug‘lik, buyuk martaba ato etsun!”* (U.s., SH, 287)<sup>3</sup>.

Yoki Amir Temurning sodiq do‘sti Jahonshoh ibn Joku yagona qiziga Sog‘inch bika deb ism qo‘yadi. Buning sababi otaning quyidagi ichki nutqi, o‘y-kecnmalari orqali ochib berilgan: *“Demak, Sog‘inch bika jinlarga uchramagan... Eh, Sog‘inch, Sog‘inch! Qaydanam senga shu ismni qo‘yg‘on ekanmen! Mana endi, sog‘intirib ketding!...”* – deb o‘yladi xorib-ezilgan ota” (U.sal., Sh 266).

Asardagi dovyurak, bahodir yigitlardan biri Ahiy Jabbordir. Shu ism oldidan keltirilgan “*ahiy*” so‘ziga ham asarda Ayboj o‘g‘lon so‘rog‘iga ko‘ra quyidagicha izoh beriladi:

*“- Yonayapman, jigarim suv bo‘lib oqyapti, oh... – mungsiradi otaShnok Ayboj o‘g‘lon. – Bahodir janoblari... Maylimi, so‘rasam? Agar... endi-da... oh... agar, bordi-yu... o‘z ichimingizni menga ilinsangiz, tirik qolishim aniq, yo‘q esa o‘lamen... Qulog‘imga tushmish erdikim, bitta nonning yarmini muhtojga berganni saxiy derlar. O‘zi och-u nonni hammasini muxtojga berganni ahiy deb ulug‘laydurlar... Siz ahiysiz, ahiy, Axiy Jabbor Bahodir... Javonmardlardan ekanligingiz haqida eShitg‘onmen...”* (U.s., SH, 259).

Asardagi personajlarga ism tanlashda yozuvchining yana bir mahorati Shunda ko‘rinadiki, *Sog‘inCh bika* o‘zi zaifa bo‘lsa-da, mard, jasur qiz, u yoShligidan yigitlardek jang qilishini, ot minishni maShq qilgan. Shu sababli o‘ziga yigitcha ism – Arg‘unShohni tanlab, sevgilisi Muhammad Sultonni izlab Samarqanddan Chiqib ketadi, uning qo‘Shiniga borib qo‘Shiladi. O‘zini sipohi yigitlarday tutib, o‘z muhabbati uchun

---

<sup>3</sup> Мухаммад Али. Улуғ салтанат. Тетралогия. Учинчи китоб. Мироншоҳ Мирзо. Тарихий роман. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2010. – 416 б. Ишда бу романдан олинган мисоллар асарнинг шу нашридан келтирилади, қавс ичида У.с., Ш, қисқартмаси билан роман саҳифаси кўрсатилади.

kurashadi. Buni Sog'inCh bika (Arg'unShoh)ning Muhammad Sultonga yo'llagan maktubidan ham sezish mumkin: *“Bas... Maktub bitayotg'on kimsa... Arg'unShoh, zukko va aqlli yigit, sipoh... Aslida Arg'unShoh ermas, yo'q, yo'q, sizning suyg'oningiz... Shunday deya olurmenmu, avf etg'oysiz... bir beChora, Sho'rlik, o'ksiz, aftoda, notavonlar notavoni Sog'inCh bikadur...”* (O'.s., SH, 337).

Asarda ayrim personajlar xatti-harakati bilan bog'liq holda ularga ismiga aloqador kinoyali laqablar ham to'qilgan. Bu esa romanning ta'sirchanligini, obrazlilikini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Sog'inch bikaning erkakcha xarakteri tufayli uni dugonalari *“Avbosh bika”* deb chaqirishadi. Aslida *“avbosh”* eskirgan forsha-tojikcha so'z bo'lib, *“bezori, badkirdor, sayoq”* ma'nolarini bildiradi (O'TIL-5, 1, 29): *“- Voy, Sog'inch o'lgur, rosa hammamizni qo'rqitib yubording-ku! Qayoqqa yo'qolding? Shundan gapir! Birov Zarafshonga tushib ketdi deydi, yana qochib ketdi deyishadimi-ey... Avbosh bika deganlari ham bejiz emas ekan-da”* (U.s., SH, 357). Qizning otasi ham uni ana Shu xususiyatidan kelib chiqib, *“avbosh qiz”* deydi: *“...Orqavarotdan Arg'unShoh degan yigitni surishtirdi, uning Samarqandga jo'nab ketganini bildi. Demak, “avbosh” qizi endi Samarqandda ekan...”* (U.s., SH, 329). Kanizak Sarvinoz ham yo'qolgan Sog'inch bikaning topilgani haqida qizning otasi JaxonShoh ibn Jokuga yozgan xatida yana qizning *“avbosh”*ligini eslatadi: *“...Ollohning inoyati birlan, “avbosh” Sog'inCh bika qizimiz, xudoga Shukur, sog'-salomat uyimizga qaytib keldi!...”* (U.s., SH, 329).

Sog'inch bika esa qadrdon dugonalari Zubaydabonuni *“voyvoyxon”*, Bilqis begimni esa *“dumboqqina”* laqablari bilan *“siylaydi”*: *“Iloyo, junday dugonalarim voyvoyxon Zubaydabonu birlan dumboqqina Bilqis begimlarga qo'Chqorday kuyovlar ato etsin...”* (U.s., Sh, 357).

Mironshoh Mirzo aySh-ishratga berilib ketgani uchun o'z atrofida gilarining barichaga turli xil laqablar qo'yib olgan edi. Masalan, Abdulmo'min Go'yanda yaxshi raqsga tushgani uchun davrdagilar unga *“Sarvinoz”* deb laqab qo'ygan edilar: *“- Sarvinoz! – amr etdi xiyla to'lishib qolgan Mironshoh Mirzo halloslab so'riga yaqinlaShar ekan. – O'yinga-a-a!..*

*Qiyqiriq ko'tarildi.*

*“Sarvinoz” – Abdulmo‘min Go‘yandaning davradagi laqabi. U o‘yinni qiyvorgani, qizlarday eShilib raqs tusha olgani uchun shunday laqab olgan. Nadimlarning barichada laqab bor, chunonchi, Xoja Marog‘iyini “O‘yinchi”, Mavlono Ko‘histoniyni “Raqqos”, Ardasher Changiyni “Jilvagar”, Qutbiddin Noyiyni “Sho‘xiy”, Habib Udiyini “Nozicha” deb atardilar” (U.s., Sh, 390).*

Sohibqiron Amir Temurning qizi Sulton Baxt begim esa oilaviy hayotda notinChligi, eri temuriylar davlatiga xoinlik qilgani uchun o‘zini Sulton Badbaxt begim deb hisoblardi. Buni Sulton Baxt begimning ichki kecnmalari, o‘y-xayollari tasviri berilgan quyidagi matn ham yaqqol tasdiqlaydi: *“Sen-Chi, Baxt? – so‘radi o‘zidan o‘zi alam girdobida... – Xudo Shohid, ichingda Amir SHohmalik janoblarini sevarding. Ha, sevarding, ammo sevging uchun kurashding-mu?.. Agar kurashganingda, anovi er yutkur mal’un telbaning qo‘lida ezilgan guldek xor bo‘lmasding-ku?.. Endi Sulton Badbaxt begimga aylanib o‘ltiribsen!...” (U.s., SH, 370).*

Shunday qilib, badiiy matnlarda, jumladan, yozuvchi Mirmuhsinning “Temur Malik” va Muhammad Alining “Mironshoh Mirzo” tarixiy romanlarida laqablar asarda tasvirlangan tarixiy davr – mo‘g‘ul bosqinChilariga qarshi kurash, temuriylar davlatini mustahkamlaSh davri haqida kitobxonlarga aniq tasavvur berish uchun xizmat qiladi. O‘zbek badiiy matnida laqablarning funksional-uslubiy xususiyatlari esa maxsus kuzatishlar talab qiladigan alohida muammo sanaladi. NomShunos olimlarning ta’kidlashlariga ko‘ra, “o‘zbek tarixiy nomShunosligining dolzarb muammolari orasida laqab va taxalluslarni o‘rganish ishi alohida o‘rin tutadi. Chunki qadimgi davrlarga borganimiz sari nomlar va laqablar orasida farq kamaya boradi va umuman laqablarning nomdaSh vositasi sifatidagi roli orta boradi. Umuman laqab va taxalluslarni faqatgina nominativ (nomlaSh) vositasi sifatida o‘rganish etmaydi, balki ularni badiiy-uslubiy vosita tarzida tadqiq qilishi ham muhimdir. Bunday kuzatuvlarda ism, laqab va taxalluslar orasidagi atoqli otlarga xos umumiylik va o‘zaro farqlarni ochib berish alohida ahamiyatga egadir”.

### **Nazorat savollari:**

1. O‘zbek tilida antroponimlar va ularning tasnifiy belgilari ayting.

2. Ismlar, taxalluslar va laqablarning o‘zaro munosabati, ularning antroponimlar tizimida tutgan o‘rni haqidagi fikrlarni bayon qiling.
3. Antroponimlarning badiiy matnda qo‘llanish xususiyatlarini tahlil qiling.
4. Badiiy matnda (“Temur Malik”, “Mironshoh Mirzo” tarixiy romanlarida) laqablarning funksional-uslubiy xususiyatlari talqin eting.

**16- MAVZU**  
**“MATN TILSHUNOSLIGI” FANIDA KOGNITIV**  
**TAHLIL VA PRAGMALINGVISTIKA**  
**IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH**

**Reja:**

1. Matn tilshunosligida kognitiv tilshunoslikning aloqasi.
2. Konsept, ssenariy, skript, freym, geshtalt kabi kognitiv hodisalarning matn tarkibida namoyon bo‘lish xususiyatlari.
3. Matnni o‘rganishning kommunikativ-pragmatik yo‘nalishi haqida tushuncha.
4. Deyksis va nutqiy muloqot mazmunining matnda ifodalanishi.
5. Diskursning tushunishi va uning matn tarkibidagi o‘rni.

***Tayanch so‘z va iboralar:** voqelikning lisoniy va kognitiv idroki, konsept, geshtalt, skript, freym, spenariy kabi kognitiv hodisalarning matn bilan munosabati konsept turlarining o‘zbek matnlarida ifodalanish usullari, matnda parametrlash va optimallashtirish usullari, deyksis va deyktik iboralarning matn tarkibida namoyon bo‘lishi.*

“Lingvistika” (o‘zbek tili) ixtisosligi bo‘yicha ta’lim olayotgan magistrnlarga 2000-yilda “Matn tilshunosligi” fani kiritilgan edi. Shundan keyin bu fandan ma’ruzalar matni va uslubiy qo‘llanma tuzib nashr etildi<sup>1</sup>. Bu ishlarda “Nutqda tilning qo‘llanilishi va matn tilshunosligi”, “Matn tilshunosligining o‘rganilish tarixi”, “O‘zbek tilshunosligida matn va uni o‘rganish muammolari”, “Matn va uning komponentlari”, “Matn komponentlarining pog‘onali munosabati”, “Matn va nutq derivatsiyasi”, “Mikro va makromatn munosabati”,

---

<sup>1</sup> Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. Маърузалар матни. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. – 86 б.; Турниёзов Н., Йўлдошев Б. Матн тилшунослиги. Услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – 96 б.



“Matn va nutq derivatsiyasi”, “Matn tilshunosligi va dialog muammosi”, “Matn strukturasi sintagmalarga bo‘linishi” kabi mavzularni o‘rganish ko‘zda tutilgan. Lekin hozirgi kunga kelib, matn tilshunosligining tadqiqot doirasi yanada kengaydi. Shunga ko‘ra Shu fan bo‘yicha ishlab chiqilgan namunaviy o‘quv dasturi tarkibiga matnning kognitiv tilshunosligi bilan munosabati hamda matn va pragmatolingvistika muammolarini o‘rganishni ham kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Bu o‘rinda dastlab kognitiv tilshunoslikning predmeti va vazifalari, “Kognitiv tilshunoslik” tushunchasining mohiyati va uning matn tilshunosligi bilan aloqadorligi muammosi o‘rganilishi lozim. Shundan keyin kognitologiyaning tayanch nuqtasi va matn turlari, kognitiv fonologiya va uning matnni o‘rganishdagi o‘rni haqida ma’lumot berish yaxshi samara beradi.

XX asrdan boshlab nazariy tilshunoslikda til tizimi va lisoniy faoliyat tadqiqiga butunlay yangicha yondashuvlar talab etila boshladi. Ayni shu davrda tilshunoslik fanining turg‘unlashgan yoki an‘anaviy uslub va xulosalari keskin taraqqiy etayotgan intellektual axborot texnologiyalari amaliyotida yuzaga kelayotgan savollarga javob bera olmasligi ma’lum bo‘ldi. Jumladan til tizimini va nutqiy faoliyat mahsuli bo‘lgan matn qurilishini Shu patgacha filologik nuqtai nazardan tahlil qilib kelayotgan bu fan doirasi endilikda idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilishi faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriyalar bilan kengaydi. Natijada, tilshunoslikning matiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv fan sohalarini bilan hamkorlikka ehtiyoji yanada kuchaydi.

Til tizimi va lisoniy faoliyatni har tomonlama tadqiq qilishi, ularga xos hodisalarning belgi-xususiyatlarini batafsil yoritish uchun tilshunoslikning turli sohalarini biriktiradigan, ularning baricha uchun bir xilda tayanch nuqtasi xizmatini o‘taydigan umumlashgan tahlil tizimini topish lozimligi Boduen de Kurtene, E.Sapir kabi olimlar tomonidan bir necha bor ta’kidlangan<sup>2</sup>. Samarqandlik olim Shahriyor Safarofning

---

<sup>2</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: “Сангзор” нашриёти, 2006. – 91 б.

\*Когнитив атамасининг мазмуни инглизча “cognitive”-билишга оид сўзи билан ҳам боғлиқ. Лекин билишни фаҳмлаш, тушуниш каби ҳаракат-одат хусусиятлари билан ҳам боғлашади. Бундай хусусият қайтариқ ҳаракат-одат натижасида юзага келган фаҳлаш, тушуниш ҳайвонларда ҳам қисман бўлсада бор. Шу боис, билиш ҳақида гап кетганда, фақатгина лотинча “cognition”, яъни “ақл, тафаккур ҳодисасини тасаввур қилиш билан чекланмасдан, балки “cogitatorium” – тафаккур

yoʻzishicha, keyingi davrlarda tilshunoslar bunday tayanchni kognitologiya (tlotincha “cognitive science”<sup>\*</sup> – tafakkur haidagi fan)dan topganday boʻlmoqda. Soʻzsiz, lingvistik tahlil – kognitiv tahlilning bir turi, uning maʼlum bir koʻrinishida namoyon boʻlishidir. Tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalar hamkorligi kognitiv faolliyat asosida voqelanuvchi hodisadir. Kognativ tilshunoslikning asosiy vazifasi inson ongida kesadigan mental jarayonlarni lisoniy faoliyat bilan bogʻliq holda oʻrganishdir. Kognitiv tilshunoslik ham insonning bilish faoliyati fanlari tarkibiga kiradi\*. Negaki, lisoniy bilimsiz voqeni bilish, kechayotgan voqea-hodisalar haqidagi axborotni aks ettiruvchi mantiqiy strukturalarni lisoniy ifodalashning imkoni yoʻq. Voqelikning lisoniy bilish nazariyasiga tayangan holda xulosa qilishi mumkinki, grammatik birliklarnig mazmuniy asosi qandaydir tashqi hodisalar, xususiyatlardan tashkil topmasdan, balki insonning tashqi dunyo bilan munosabati zaminida yuzaga keladigan kognitiv jarayon, holatlarning aks topishidan iboratdir. Umuman, kognitologiya mustaqil fan boʻlib, shakllanishi 1956 yildan boshlangan. Kognitologiya va kognitiv tilshunoslik sohasi haqida filologiya fanlar doktori, SamDCHI professori Shahriyor Safarovning ilmiy-tadqiqotlarida batafsil maʼlumotlar berilgan. Olimning “Kognitiv tilshunoslik” risolasida “Konseptning lisoniy jarayoni”, kognitologiya tadqiqotlarda talqin etilgan “ssenariy”, “skrip”, “freym”, “geshtalt” kabi muhim masalalar haqida ham fikr-mulohazalar bayon qilingan<sup>3</sup>.

Taʼkidlash joizki, konsept masalasida Evropa va rus tilshunosligida maʼlum darajada maxsus tadqiqotlar va fikrlar mavjud boʻlsa-da, oʻzbek tilshunosligida “konsept” sohasida qarashilar endigina yuzaga kelmoqda . Ushbu sohada soʻnggi yillarda, mustaqillik davrlarida baʼzi ishlar yuzaga keldi. Ularda konsept atamasining maʼnosi har xil izohlanishidan konsept mohiyatining koʻp qirrali ekanligidan dalolat beradi. Biz ushbu majmuamizda asosan rus olimlari V.I. Karasik, S.G, Vorkachevlarning va oʻzbek olimlaridan Oʻ.Q, Yusupov, A.A. Abuazizov, A.E, Mamatov, Sh. Safarov, D.U.Ashurova,

---

фаолияти шахсини ҳамда бу фаолият билан боғлиқ бўлган барча турдаги номентал (ижтимоий, маданий, лисоний) ҳодисаларни ҳам ҳисобга олиш керак (Ш.С.).

<sup>3</sup> Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: “Сангзор” нашриёти, 2006.-91 б.

M.Djusupov kabi olimlarning fikr-muloxazalaridan foydalandik. Ushbu olimlarning fikrlaridan quyidagi xulosaga keldik.

**Konsept** ko'p sathli mental tuzilma sifatida inson tomonidan dunyoni o'zlashtirish natijalarini jamlaydi. Idrok qilishiga asoslangan borliq konseptualizatsiyasi yuzaga kelish shakli nomayon bo'ladi, tushunchaning paydo bo'lishiga olib keladi. Konseptning mazmuni bir umumiy ma'no bilan birlashgan leksik birliklar orqali ifoda qilinadi va leksik-semantik birliklar yig'indisini ifodalashda "kurtak", "maydon", "guruh", "soyabon", "doyra" kabi atamalar keng tilga olinadi. Bu atamalar mohiyati bo'yicha bir-biri bilan bevosita semantik jihatdan bog'liqdir.

Samarqandlik tilshunos olim Shahriyor Safarovning "Kognativ tilshunoslik" risolasida yozillishicha mental tuzilma – konseptning lisoniy belgiga o'tish jarayoni qanday kechishi masalasi bahsli mavzu sifatida qaraladi. Olimning bo'yicha, dastlabki o'rinda konseptning lisoniy modiylaShuvi ong va til tizimi o'rtasidagi hamkorlikning mahsuli ekanligini unutmash kerak. Konsept Shakllanishining boshlang'ih nuqtasi voqelik bo'lagi (predmet) haqidagi tasavvur – obrazning yuzaga kelishidir. Bu obraz oddiy sxema yoki shakl bo'lib qolmasdan, balki mazmunli hodisadir.

Boshqacha aytganda, sub'ekt obrazning oddiy shaklini ko'rmaydi yoki uning mazmunini idrok qilmaydi, u mazmunli obrazni idrok etadi. Xuddi shu mazmunli obraz lisoniy belgiga aylanadi va bu belg ma'nosining o'zagini tashkil etadi. Lekin voqelik – ong – lisoniy belgi o'rtasidagi bunda uzviylikni oddiy takrorlash ko'rinishida talqin etmaslik kerak. Chunki ong voqelikni lisoniy belgi vositasida oddiygina aks ettirmaydi, balki sub'ekt uchun muhim bo'lgan belgi-xususiyatlarni ajratadi hamda ular asosida idrok etilayotgan ob'ekt (predmet-hodisa)ning namunaviy modelini yaratadi. Ongning bu turdagi analitik – tahliliy faoliyati amalga oshirishida lisoniy belgilarning roli alohida e'tiborga loyiq.

Konseptning hosil bo'lishi va uning lisoniy voqelanishida umumiylik (umumlashtirish) xususiyati alohida rol o'ynaydi. Bunda nomlanadigan predmet – voqelikning alohida, yaqqol ko'zga tashlanadigan va seziladigan belgisi avval farqlanadi, keyin esa ushbu belgining butun bir guruh uchun umumiyligi e'tiborga olinadi. Masalan,

inson his-tuygʻulari tushunchasi bilan bogʻliq konseptida lingvosemantik xususiyatlarini olib qaraylik. Bu konsept doirasida “mehr-muhabbat, baxt, doʻstlik, yurak (qalb) kabi inson his-tuyhusiga xos mental belgilar butun bir guruh sifatida umumiyliги hisobida birlashtiriladi...

Tafakkur va lisonni bogʻlovchi “koʻprik” boʻlishni uqtirgan va mazkur vazifani oʻtaydigan “oraliq til” mavjudligi haqidagi ilmiy farazni taklif qilgan olim Yu.N.Koraulov ushbu tilning strukturasi, tushunishi haqida savol tugʻilishi mumkinligini ham unutmaydi. Bunda u oraliq til birliklari qatoriga “obraz, geShtal, sxema, freym, propozitsiya, kartna, simvol, formula, diagramma, soʻz” kabilarni kirtadi..

Boshqa bir qator olimlar esa xotirada egallagan bilimning aks topishini ifodalovchi tuzilmalar qatorini “skrip, ssenariy, kognativ model, mental model, situatsiya modeli” kabilarni ham kiritadilar. Ushbu strukturaviy birliklar qanchalik bir-birlaridan farq qilishlariga qaramasdan, umumiy bir xususiyatga egadirlar. Ular tafakkurda toʻplangan va saqlanayotgan axborot qismlarini asrovchi “quticha”dirlar. Ushbu “quticha”larning tarkibi va ish faoliyati xotira faoliyati bilan bogʻliq <sup>4</sup>.

Shahriyor Safarovning yuqorida qayd etilgan risolasida oraliq til birliklaridan “ssenariy, skript, freym, geshtalt” kabilar haqida quyidagicha fikrlar qayd etilgan.

**Ssenariy** biror bir tipik hodisani oʻzaro bogʻliq faktlar uzviyligini aks ettiruvchi namunaviy shakl (struktura) misolida yoritilishidir. Ushbu namunaviy struktura maʼlum voqelik boʻlagiga oid harakatlar, holatlar uzviy munosabatlaridan iborat (masalan restoranda tushlik, dars jarayoni, institutga qabul, muzey ziyorati va hokazolar).

Senariy (senarios) tushunchasini kognitologiyaga oid tadqiqotlar doirasiga birinchilardan boʻlib sunʼiy intellekt boʻyicha mutaxassislar R.Shenk va R.Abelsonlar kiritishgan. Va ularning talqinicha, ushbu tushuncha voqealar ketma-ketligini, ularning oʻzaro bogʻliqligini koʻrsatish uchun zarur. Har bir ssenariy tarkibida slotlar (kichik namunadagi qismlar) ajratiladi va bu slotlarda voqea ishtirokchilarining roli, maqsadi

---

<sup>4</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 12-33.

kabilar o‘z aksini topadi. Masalan, magazin yoki do‘kon. Undagi turli xil maxsulotlarni xarid qilishi ssenarisini kuzataylik.

**Ssenariy: do‘kon**

**Rollar:** mijoz, sotuvchi, xazinachi.

**Maqsad;** oila(ro‘zg‘or)uchun zarur maxsulotlarni xarid qilishi uchun do‘konga borish.

1-sahna: do‘konga kirish:

Maxsulotlarni ko‘zdan kechirish,

Maxsulotlar narxi bilan tanishish,

Sotuvchi bilan maslahatlashish (muloqotga kirishish),

Maxsulotlarni tanlash.

2-sahna: tanlangan narsalarni ma’lum bir buyumga yoki xaridor uchun ajratilgan aravachaga solish va uni xazinachi oldiga olib kelish.

3-sahna: aravachadagi maxsulotlarning hisob-kitobini magazinchidan so‘rash, pulini to‘lash, to‘lov chekini olish, do‘kondan chiqib ketish.

Ko‘rinib turibdiki, har bir harakat (voqea)lar bir-biri bilan ketma-ketligini, ularning o‘zaro bog‘liqligini kuzatish mumkin. Oldingi harakat keyingisiga shart-sharoit tayyorlaydi.

Ajratilayotgan har bir sahna (“do‘konga kirish”, “maxsulot tanlash”, “hisob-kitob” kabilar umumlashgan kognitiv strukturalar (ssenariy, skript, konsept kabilar) uchun o‘ziga xos “qurilish material” rolini o‘taydi.

Odatda, kompyuter tilshunosligida ssenariyalarga ajratish uslubi asosan matn qurilishi tahlilida qo‘llaniladi (Sh.S).

**Skript** (inglizcha script co‘zining tub ma’nosi “qo‘lyozma bitik”dir) namunaviy konseptual tuzilmalarning bir turi sifatida qaralib, u inson tafakkurida aks etayotgan borliqdagi voqealarning me’yoriy ketma-ketlikning namunasidir. Skript tarkibiy tushunishi jihatidan ssenariga juda ham yaqin turadi, hatto ayrim hollarda uni to‘lg‘icha takrorlaydi. Skript tarkibiga kiruvchi voqealarning sabab-oqibat munosabatlari asosida, tizimiy

bog‘lanishi, ketma-ketligi hamda ushbu voqealarning stereotip takrorlanuvchanlik xususiyati uning asosiy tavsifiy belgisi sifatida qaraladi.

Skriptlar tushunishi va tarkibiy qismlari joylashuv tartibidagi farqlarga nisbatan oddiy va murakkab tarkibli bo‘lishi mumkin. Oxirgi turdagilarni “makroskriptlar” deb atashadi. “Makroskript” bir necha oddiy va murakkab tarkibli bo‘lishi mumkin. Masalan, oila qurish, to‘y” makroskripti “to‘y maslahati”, “sovchilik”, “non uShatish”, “to‘y tayyorgarligi”, “to‘y sarpolari, kelin sepi-sandig‘ini ko‘rsatish”, “to‘yning boshlaSh maslahati”, “to‘y (kelin dasturxonini va kuyov sarposilarini) jo‘natish”, “fotiha to‘yi”, “nikoh(ZAKS)dan o‘tish va nikoh o‘qitish”, “nahor oShi va yoShlar to‘yi (vechiri)”, “yuz ochtishi”, “kelin va kuyov chaqiruvi” kabi qator oddiy skriptlarni qamrab oladi. Ammo makroskript Shakllanishi uchun hodisalarning xronologik ketma-ketligi doimo talab qilinishi Shart emas. Masalan, “uruSh” makroskripti “armiya”, “hujum”, “g‘alaba”, “mag‘lubiyat” kabi.

**Freym** ham konseptual birliklardan biridir. Kognitiv qoliplar (konsept, obraz) bo‘yicha bilimni ixchamlaShtirish uchun Shu konseptual tizim birliklari (freym, skript, ssenariy, geshtalt kabilar) tusini olmohi kerak.

Insoning har qanday axborotni egallaShi bevosita uning xotirasida saqlanayotgan oldingi tajribasi va bilim doirasi miqyosida amalga oShadi. Har bir Shaxs ongida “freymlar to‘ri to‘plami” mavjudki, ushbu to‘plam bilim va idrok faoliyatini ma’lum ko‘rinishidagi andoza”lar asosida amalga oShishini ta’minlaydi.

Freym xuddi Shu gurdagi andozali strukturalar qatoriga kiradi. “Freyme”(Frame) tushunchasining ilmiy qo‘llanishiga kiritilishi kompyuterni dunyoviy dilim imkoniyatlari bilan ta’minlash va siyosiy intellekt nazariyasini rivojlantirish borasidagi intilishlar bilan bog‘liq. Kompyuter bilimlari bo‘yicha mutaxassis Marvin Minskiy freymni “andozali voqelik holatini aks ettiruvchi axborot strukturasi”, deb ta’riflaydi. “Freym” tushunchasini tilshunoslikka birinchilardan bo‘lib Ch.Fillmor tadbiq etgan.

Tilshunos Charlz Fillmor talqinidcha freym tajribani andozaga soluvchi kognitiv tuzilma bo‘lib, ushbu tuzilma lisoniy birliklar natijasida Shakllanadi hamda konseptning negizini tashkil qiladi. “Freym” tushunchasining tor ma’nodagi ushbu talqini noqulayliklar

tuhdirayotganligini sezgan Charlz Fillmor keyinchalik freym – kognitiv tuzilmalar ekanligini alohida ta’kidlaydi va bu tuzilmalarni bilish soʻzlar vositasida Shartli ifodalangan konsept mundarijasida nazarga tutilishini qayd etadi.

Umuman, tilshunos Shahriyor Safarov “freym” haqidagi olimlarning fikrlarini xulosalab, freymning murakkab mantiqiy qurilma ekanligini ta’kidlaydi va buni Freymning murakkab tarkibli tuzilma ekanligini isbotini M.Minskiyning asosiy struktura tarkibida subfreymlar (kichik freymlar) ajralishi haqidagi ta’kididan ham sezish mumkin, deydi (Sh.S.41-46-betlar).

**“Geshtalt”** olmoncha “gestalt” – obraz, struktura, yaxlit Shakl ma’nolarini ifodalovchi tushuncha boʻlib, XX asrning birinchi choragida olmon psixologlari V.Keler, M.Vertxaymer, K.Dunkerlarning amaliy tajribalari asosida predmetlarning xususiyatlarini mantiqan yangi munosabatlarda, bogʻlanishlarda boʻlishini tasavvur qilishi vositasida aniqlash mumkin degan xulosa bilan yangi oqim – geshtaltpsixologiyaning Shakllanishiga turtki boʻldi. “Geshtalt” atamasining mazmun-mohiyatiga qaralsa, boshqacha aytganda, “geshtalt” tushunchasi ruhiy tuzilmalar, obrazlarning oʻziga xos yaxlitlikni ta’minlovchi belgi va xususiyatlarning umumlashmasini anglatadi. Sh.Safrovning yozishicha, voqelikni idrok etish va ruhan his etish yaxlitlikni koʻrishdan boshlanadi. Bilish jarayonida yaxlit va uning boʻlaklari oʻrtasidagi jonli aloqani eʼtirof etish geshtalt nazariyasi tamoyillari va tahlil uslublarini inkor qilmaydi. Geshtaltpsixologiya ham yaxlitlikning boʻlaklarni idrok eʼtishdagi taʼsir rolini alohida ta’kidlaydi hamda boʻlaklarning yaxlitlik tarkibida birlashtiruvchi faktorlarni topish vazifasini qoʻyadi.

Xuddi Shu narsani borliqni idrok etishning “geshtalt qonuniyatlari” yoki “geshtalt tamoyillari”da koʻrish mumkin. Bulardan ayrimlarining koʻrinishi quyidagicha:

- “yaqinlik tamoyili” : bir-biriga yaqin joylashgan elementlar oʻzaro bogʻliq holda idrok qilinadi;
- “oʻxshashlik tamoyili”: bir-biriga monand elementlar yagona bir boʻlak yoki qism sifatida idrok qilinadi;
- “yopiqlik tamoyili”: idrok harakati berk (tugallangan) Shaklga yoʻnaltirilad;

- “davomiylik tamoyili”: alohida elementlar o‘rtasidagi uzilishi kam bo‘lsa, ular yaxlitlik sifatida idrok etadilar.

Voqeliklardagi ob’ektlarni yaxlitlikda xolis idrok etilishi xuddi Shu tamoyillarga asoslanadi. Masalan, turli ko‘rinishdagi uy binolari suratini solishtirsak, ularning barichasida umumiy elementlar bor ( devor, tom, dereza, eShik va hokazolar). Biz bu suratlarni birinchi ko‘rganimizda binolarni alohida qismlarga ajratmaymiz, aksincha, faqatgina bino sifatida ko‘ramiz. Bunda yaxlitlik idroki, geshtalt tamoyillari amal qiladi: Binoning barcha qismlari bir-biriga yaqin, bog‘liq (“yaqinlik tamoyili”); binoning eShiklari bir xil (“o‘xShaShlik tamoyili”); binoning barcha elementlari bir-birini davom ettiradi, o‘zaro aloqada (“davomiylik tamoyili”).

Yaxlitlik va bo‘laklarning bu turdagi munosabati bevosita bo‘laklarning yaxlitga “tobe” bo‘lishida namoyon bo‘ladi hamda ushbu tabelik quyidagi qonuniyatlarda o‘z aksini topadi:

- 1) yagona bir element turli yaxlit tuzilmalar tarkibida turlicha idrok qilinadi;
- 2) obrazning ayrim elementlari almastirilsa-yu, lekin ular o‘rtasidagi munosabatlar o‘rami saqlansa, obrazning umumiy strukturasi o‘zgarmaydi;
- 3) ayrim hollarda ma’lum bir bo‘laklar tushub qolganda ham yaxlitlik saqlanadi.

Xullas, geshtaltning kognitiv tilshunoslikdagi elementi, ayniqsa, matn tushunishini o‘rganishda muhimdir. Matn tilshunosligida uzoq davr induktiv metod hkmronlik qilgani malum. Matnni qismlar yig‘indisidan iborat deb qarashi, tahlilni yig‘ma analitik usulda bajarish natijasida bu tahlildan gap sintaksisidan nariga o‘tmaslik xafi tug‘ildi. Bunday xafdan bo‘yichaaning yagona yo‘li tahlilni yaxlitlikdan qismlarga yo‘naltirish, geshtalt nazariyasiga murojaat qilishidir. Zero, har qanday matn yagona bir mavzu, g‘oyani yoritilishidir. G‘oyaning yagonaligi qismlarining mavzu doirasida birikishini, yaxlitlikni talab qiladi. Qismlar mazmuni esa yaxlit mavzuning epizodidir.

Shu bilan birga matnni o‘rganishning kommunikativ-pragmatik yo‘nalishi va uning asosiy muammolari, matnni Shakllantirishda parametrlaSh va optimallaShtirish usullarining roli, N.Xomskiy ta’limoti va uning matnda lisoniy qobiliyatning o‘rnini o‘rganishdagi ahamiyati, bilvosita nutqiy muloqot va matnning semantika hamda pragmatikaga



munosabati, bilvosita nutqiy aktlarning ifoda va mazmun jihatdan turlari, ularning matn bilan aloqadorligi, nutqiy akt nazariyasi va matnda kommunikativ maqsadning ifodalanish yoʻllari, nutqiy akt mazmunining Shakllanishi va uning matndagi inʼikosi kabi qator masalalarni ham “Matn tilshunosligi” fanida oʻrganish maqsadga muvofiq.

Hozirgi zamon nazariy tilshunosligining rivojlanish jarayonidan kelib chiqqan holda “Matn tilshunosligi” fanida magistrantlarga deysis va nutqiy muloqot matni, matnda mazmunning ifodalanish yoʻllari, matnda mantiqiy va lisoniy umumlashtirish, uning deysis bilan munosabati, deyktik iboralar va ularning bola nutqida matnni Shakllantirishdagi oʻrni, Shaxs deysisi va uning matnni Shakllantirish imkoniyatlari, makon va zamon deysislari, ularning matnni Shakllantirishdagi oʻrni, emotsional deysis, sotsial deysis va graudonimiya (darajalanish)ning matn tarkibidagi oʻziga xos belgilari ham oʻrganilishi zarur.

Umuman olganda, “Matn tilshunosligi”da nutqiy muloqot tizimi, diskursning matnning tarkibiy qismi sifatidagi tushunishi va uning komponent tahlili, muloqot strukturasi tarkib topishi va bunda diskursning matn tarkibiy qismi sifatidagi oʻrni, nutqiy muloqot tizimining koʻp bosqichli xarakteri va diskurs hamda matn tushunchalari, diskurs lisonning gapdan yuqori turadigan sathi sifatida va uning matn tilshunosligidagi oʻrni singari qator dolzarb pragmalinqvistik muammolar ham yoritilishi maqsadga muvofiq<sup>7</sup>. Buning uchun “Matn tilshunosligi” fani boʻyicha rejada koʻzda tutilgan maʼruza va amaliy maShgʻulotlar miqdorini koʻpaytirish, Shu fan boʻyicha tuzilgan namunaviy oʻquv dasturini kelgusida qayta ishlab, toʻldirilgan holda nashr ettiramiz, degan fikrdamiz.

### **Mavzu boʻyicha savollari:**

1. Matn tilshunosligida kognativ tilshunoslik va uning belgilari haqida nimalarni bilasiz?
2. Matnda konseptning lisoniy voqelanish jarayoni.
3. Ssenariy, skript, freym, geshtalt kabi kognitiv hodisalari haqida tushuncha bering.

## **17- MAVZU**

---

<sup>7</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий ёти, 2008. – Б. 201-228.

## **PUBLISISTIK MATNNING (XABAR, TANQIDIY MAQOLA, FELETON, PAMFLET KABI) TURLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS BELGILARINI IZOHLASH.**

Maqola - publitsistik uslubga xos janr. Maqolada kundalik ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar tahlil qilinadi; nazariy, ommaviy jihatdan umumlashtiriladi; davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar ilg‘or ish tajribalari aks ettiriladi. Turli nuqsonlar tanqid qilinadi. Matbuotda bosh maqola, nazariy va targ‘ibot maqola, muammoli maqola keng qo‘llaniladi. Bosh maqola (yoki tahririyat tomonidan yoziladigan maqola) tahririyatning eng mas‘uliyatli maqolasi hisoblanadi. Ushbu maqolada ichki va xalqaro hayotga doir muhim masalalarni o‘quvchilarga yetkazish - asosiy vazifa hisoblanadi. Bunday maqola ma‘lum bir masala yuzasidan yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi kamchiliklarni ochib tashlashi, har bir ishning asosiy haqiqiy yo‘lini belgilab berishi lozim. Prezident farmonlari, Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan davlat va hukumat hujjatlari, qarorlari, qonunlari davrning dolzarb masalalari bosh maqolada yoritiladi. Nazariy maqola va targ‘ibot maqolaning asosiy vazifasi mustaqillik, milliy g‘oya, istiqloq mafkurasining asoslari va prinsiplarini; ilmiy maqolaning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o‘quvchining g‘oyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat. Muammoli maqolada esa munozara va bahs asosiy o‘rinda bo‘ladi hamda muallif o‘z qarashlarini o‘rtaga tashlaydi. Maqola so‘zi keng ma‘noda gazeta, jurnal, radio, televideniye, shuningdek, to‘plamlardagi ilmiy asarlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

### **1-AMALIY MAVZU**

#### **“MATN TILSHUNOSLIGI” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

##### **Reja:**

1. Matn shunoslik fani va uning o‘rganish ob‘ekti.
2. Matn shunoslik fanining maqsadi va vazifasi.

**TAYANCH so‘z va iboralar:** magistr, matn, komponentlar, abzats, diskurs, supersintaktik butunlik (SSB), murakkab sintaktik qurilma (MSQ), nutq derivasiyasi, “derivat”, “operand”, “operator” va “hosila”, mikro va makromatn, deyktik ibora va h.

##### **Mavzu bo‘yicha savollar**

1. “Matn tilshunosligi” fani qaysi sohadagi ilmiy tadqiqotlar ko‘llamiga kiradi?

2. Mazkur maxsus o'quv kursida maqsadni amalga oshirish uchun qanday vazifalarni amalga oshiri lozim bo'ladi?
2. "Matn tilshunosligi" fani nimalar haqida ma'lumotlar beradi?

## **2-AMALIY MAVZU**

### **MATN VA UNING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISH TARIXI.**

#### **Reja:**

1. Jahon tilshunosligida matnshunoslikning yuzaga kelishi va o'rganilishi.
2. Jahon lingvistikasida (chex, nemis, polyak tilshunosligida) matn muammolari.
3. Rus tilshunosligida matn lingvistikasi fanining paydo bo'lishi.
4. Jahon matnshunosligida matn turlari va uni o'rganish muammolari.

#### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Matn lingvistikasi muammolarining tilshunoslikda o'rganilish tarixi haqida qisqacha ma'lumot.
2. K.Gauzenblaz, R.Xarveg va M.Mayenova kabi olimlarning matn tilshunosligiga doir qarashlari.
3. Matn tilshunosligi masalalarini o'rganishda M.Pfyutse, R.Bart, T.van Deyk kabi olimlarning o'rni.
4. K.Kojevnikova, YA.Korjenskiy va K.E.Xaydolfning matn tilshunosligiga doir qarashlari haqida.
5. E.A.Referovskaya, A.A.Leontev, M.V.Lyapon, I.R.Galperin kabi rus tilshunoslarining matn strukturasi va komponentlarini o'rganish sohasidagi qarashlari.
6. Matnning umumnazariy masalalari, uning pragmatikasi va stilistikasi muammolari tadqiqida V.G.Gak, T.M.Nikolaeva, G.Ya.Solganik, R.A.Budagov, V.V.Odinsov kabi olimlarning xizmatlari.

## **3-AMALIY MAVZU**

### **O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MATN VA UNI O'RGANISH MUAMMOLARI, KATEGORIYASI O'RGANILISHI**

#### **Reja:**

1. O'zbek tilshunosligida matn nazariyasining kirib kelishi, bunda A.G'ulomov, N.Turniyozov, A.Mamajonov, M.Hakimov, S.Boymirzaeva, M.Yo'ldoshev kabi olimlarning tadqiqotlari.

***Tayanch so'z va iboralar:** matn, matnshunoslik, kogerent, pragmatika, mikromatn, makromatn, ilmiy matn, badiiy matn, kommunikativ nutqiy butunlik, nutq generatsiyasi, matn kogeziyasi, matn retrospeksiya.*

## **4-AMALIY MAVZU**

## **MATN TILSHUNOSLIGIDA NUTQ DERIVATSIYASI MUAMMOLARINI O'RGANISH.**

### **Reja:**

1. Nutq va nutqiy faoliyat haqida F.de Sossyur ta'limoti.
2. XX asrning 50-yillarida nutq lingvistikasiga e'tibor. V.Skalichka, E.Koseriunning fikrlari.
3. Nutq derivatsiyasi va uning matnni shakllantirishi masalasidagi nuqsonlar.

### **Mavzu bo'yicha savollar:**

1. Tilning jamiyatdagi o'rni va vazifasi haqida tushuncha.
2. Tilning sistemalik xarakteri va strukturasi orasidagi munosabat.
3. Tilning belgilik xususiyati va uning nutq jarayonidagi in'ikosi.
4. Til belgisi va uning o'ziga xos sifatlari.
5. Matn tarkibida so'zning lug'aviy (leksik) va grammatik ma'nolarini farqlash tamoyillari.
6. Ferdinand de Sossyurning "til va nutq" dixotomiyasi haqidagi ta'limoti haqida tushuncha.
7. Til birliklarining mavhum va ko'p ma'noli xarakteri, nutq birliklarining esa konkret va yakka ma'noлик xususiyati.
8. Lisoniy va nutqiy ortiqchalikning umumiy hamda farqli belgilari

## **5-AMALIY MAVZU**

### **NUTQDA TIL BIRLIKLARINING QO'LLANILISHI VA MATN TUSHUNCHASIGA ALOQASI.**

#### **Reja:**

1. Ferdinand de Sossyurning til sistemasi va "til va nutq dixotomiyasi ta'limoti, amerikalik tilshunos G. Glisonning tildagi "ortiqchalik" va Praga tilshunosi
2. A. Martine va N. Turniyozovlarning "monema" va uning ko'rinishlari haqidagi fikrlari.  
***TAYANCH so'z va iboralar:** nutq derivatsiyasi, operand, til va nutqning o'zaro munosabati, nutqiy faoliyat,*

## **6-AMALIY MAVZU**

### **MATNDA SINTAKTIK ALOQANI TA'MINLOVCHI LEKSIK VOSITALAR.**

#### **Reja:**

1. Matn komponentlarining o'zaro sintaktik bog'lanishi haqida tushuncha.

2. Matn komponentlarining o‘zaro sintaktik bog‘lanishida leksik takror, sinonimik munosabatlar, olmoshlar, kirish so‘z va birikmalar hamda bog‘lovchilarning o‘rni haqida.

**Tayanch so‘z va iboralar:** matn, matn komponentlari, matn komponentlarining sintaktik aloqasi, iatnda sintaktik aloqani ta’minlovchi vositalar, leksik takror, olmoshlar, sinonim so‘zlar, abzatslararo sintaktik munosabat.

## **7-AMALIY MAVZU**

### **MATN KOMPONENTLARINING SEMANTIK VA PROGMAITIK**

### **MUNOSABATLARI**

#### **Reja:**

1. Matnda ifodalanadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va radikal semantik munosabatlar haqida tushuncha.

3. Mantiq va til kategoriyalarining o‘zaro aloqasi hamda farqli tomonlari va o‘zbekCha matnlarning sintaktik va pragmatik tahlili haqida.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Matn va uning xarakterli belgilari, matn – nutq maxsuli sifatida, matndagi semantik munosabat, radikal semantik munosabat, bevosita semantik munosabat, bog‘lanishli nutq, matn komponentlarining pragmatik munosabati, “grammatik gap” va “mantiqiy hukm”, abzats makromatn komponenti sifatida.

#### **Nazorat savollari:**

1. Matnda ifodalanadigan radikal semantik munosabat haqida tushuncha.
2. Matnda ifodalanadigan bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri semantik munosabat xususiyatlari.
3. Mantiq va til kategoriyalarining o‘zaro aloqasi hamda farqli tomonlari.
4. O‘zbekcha matnlarning sintaktik va pragmatik tahlili haqida.

## **8-AMALIY MAVZU**

### **MATN KOMPONENTLARINING POG‘ONALI MUNOSABATI.**

#### **Reja:**

1. Matn komponentlariaro semantik va grammatik munosabatlar.
2. Matn tarkibida ichki va tashqi sintagmatik munosabatlar.
3. Matn tarkibida funksional pragmatik munosabatlar.
4. Matnda modallikning ifodalanishi.

#### **Nazorat savollari:**

- 1.”Murakkab sintaktik qurilma” termini haqida tushuncha bering.

2. Matnning murakkab sintaktik qurilma bilan o‘zaro munosabati haqida ma’lumot bering.

3. Matnda periodlarning qo‘llanish xususiyatlari haqida so‘zlang.

4. Gap va matnning sintaktik tahlili orasidagi umumiy hamda farqli holatlar aytib bering.

## **9-AMALIY MAVZU**

### **MATNDA GUMON OLMOSHLARINING AYRIM SEMANTIK VA FUNKSIONAL-USLUBIY XUSUSIYATLARI.**

#### **Reja:**

1. Olmoshlarning tasnifiy belgilari haqida tushuncha

2. Gumon olmoshlarining orqali matnda mavhumlik, noaniqlik, gumon ma’nolarining ifodalanish xususiyatlari haqida.

3. Gumon olmoshlari matn tarkibida aktualizator sifatida.

*Tayanch so‘z va iboralar: so‘z turkumi, mustaqil so‘z turkumi, olmosh, gumon olmoshi, so‘roq olmoshlari, olmoshlarda kelishik, egalik, ko‘plik qo‘shimchalari, noaniqlik, gumon ma’nosi, funksional-uslubiy xususiyat, matnda olmoshning aktualizatorlik vazifasi.*

#### **Nazorat savollari:**

1. Olmoshlarning tasnifiy belgilari haqida tushuncha bering.

2. Gumon olmoshlari orqali matnda mavhumlik, noaniqlik, gumon ma’nolarining ifodalanish xususiyatlari, qanday kechqurun?

3. “Ba’zi”, “ayrim”, “bir nima” kabi so‘zlarning matn tarkibida olmosh vazifasida qo‘llanishi haqida so‘zlab bering.

4. Gumon olmoshlari matn tarkibida qay vaqtda aktualizator sifatida qo‘llaniladi?.

## **10-AMALIY MAVZU**

### **MATNDA JAMLOVCHI OLMOSHLARNING AYRIM FUNKSIONAL-USLUBIY XUSUSIYATLARI.**

#### **Reja:**

1. O‘zbek tilida olmosh turkumiga oid so‘zlarning asosiy tasnifiy belgilari

2. Jamlovchi olmoshlar orqali matnda to‘dalik, jamlilik, belgilash ma’nolarining ifodalanish xususiyatlari.
3. Jamlovchi olmoshlarning matn tarkibida aktualizator sifatida qo‘llanishi.

***Tayanch so‘z va iboralar:** so‘z turkumi, mustaqil so‘z turkumi, olmosh, jamlovchi olmosh, so‘roq olmoshlari, jamlovchi olmoshlarda kelishik, egalik, ko‘plik qo‘shimchalari, to‘dalik, jamlash, belgilash ma’nosi, funksional-uslubiy xususiyat, matnda jamlovchi olmoshning aktualizatorlik vazifasi.*

## **11-AMALIY MAVZU**

### **BADIIY MATNLARDA LAQABLARNING AYRIM USLUBIY XUSUSIYATLARI HAQIDA**

#### **Reja:**

1. O‘zbek tilida antroponimlar va ularning tasnifiy belgilari.
2. Antroponimlarning badiiy matnda qo‘llanish xususiyatlarini o‘rganishning ahamiyati.
3. Badiiy matnda (“Temur Malik”, “Mironshoh Mirzo” tarixiy romanlarida) laqablarning funksional-uslubiy xususiyatlari.

***Tayanch so‘z va iboralar:** onomastika, antroponimika, antroponim, ism, laqab, taxallus, introponimik seriyalar, badiiy asarda qahramon ismi, badiiy asarda qahramon laqabi, onomapoetika, ismlarning funksional-semantik xususiyatlari, laqablar badiiy matnda uslubiy vosita sifatida.*

## **1-SEMINAR MAVZU**

### **“MATN TILSHUNOSLIGI” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

#### **Reja:**

1. Matn shunoslik fani va uning o‘rganish ob’ekti.
2. Tilning jamiyatdagi o‘rni va vazifasi, uning o‘ziga xos belgilari
3. Murakkab sintaktik qurilma va matn maqomi

***Tayanch so‘z va iboralar:** magistr, matn, komponentlar, abzats, diskurs, supersintaktik butunlik (SSB), murakkab sintaktik qurilma (MSQ), nutq derivasiyasi, “derivat”, “operand”, “operator” va “hosila”, mikro va makromatn, deyktik ibora va h.*

## **Mavzu bo'yicha savollar**

1. "Matn tilshunosligi" fani qaysi sohadagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamiga kiradi?
2. Mazkur maxsus o'quv kursida maqsadni amalga oshirish uchun qanday vazifalarni amalga oshiri lozim bo'ladi?
3. "Matn tilshunosligi" fani nimalar haqida ma'lumotlar beradi?

### **2-SEMINAR MAVZU**

#### **JAHON TILSHUNOSLIGIDA MATN TILSHUNOSLIK SOHASINING VUJUDGA KELISHI.**

##### **Reja:**

1. Jahon tilshunosligida matn tilshunoslik sohasining vujudga kelishi.
2. Matn muammosining ruz va chet el tilshunosligida o'rganilish tarixi haqida
3. Tilning jamiyatdagi o'rni va vazifasi, uning o'ziga xos belgilari.

### **3-SEMINAR MAVZU**

#### **TILNING JAMIYATDAGI O'RNI VA VAZIFASI, UNING O'ZIGA XOS BELGILARI.**

##### **Reja:**

1. Tiplari va uning komponentlari.
2. Murakkab sintaktik qurilma va matn maqomi.
3. Mikro va makromatn munosabati.

### **4-SEMINAR MAVZU**

#### **MATN STRUKTURASINING SINTAGMALARGA BO'LINISHI.**

##### **Reja:**

1. Matn strukturasi nutq materialining yaxlitlangan ko'rinishi sifatida.
2. Matn tarkibida sintagmalarning o'rni.
3. Matn strukturasi sintagmalarga bo'linishi.

### **5-SEMINAR MAVZU**

#### **MATNNING ICHKI VA TASHQI SINTAGMALARGA BO'LINISHI HAQIDA.**

##### **Reja:**

1. Matnning sintagmalarga bo'linishi haqidagi turli qarashlar.
2. Badiiy matn va ilmiy matn ko'rinishlarining sintagmalarga bo'linishdagi farqli holatlar.
3. Matn derivatsiyasi.
4. Matn va nutq derivatsiyasi.



## **6-SEMINAR MAVZU**

### **MATN TILSHUNOSLIGIDA MIKROMATN, MAKROMATN, MURAKAAB SINTAKTIK QURILMA, DIALOG, ICHKI NUTQ MATNINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI**

#### **Reja:**

1. "Matn", "kontekst" "mikromatn", makromatn" "matn bog'lovchilari" kabi atamalarning turlicha izohlanishini.
2. Matn tilshunosligida ularning o'ziga xos belgilarini sharhlash.

## **7-SEMINAR MAVZU:**

### **OG'ZKUI VA YOZMA MATN**

#### **Reja:**

1. Minimal matn
2. Maksimal matn
3. Matn tiplarining o'ziga xos belgilarini izohlash.

## **8-SEMINAR MAVZU:**

### **MATN VA ABZATS**

#### **Reja:**

1. Matn va diskurs
2. Matn va gap, ularning o'zaro munosabati
3. Hajmi va mazmuni haqida tegishli ilmiy ma'lumotlar berilib,
4. Matn turlarini farqlash mezonlari tushuntirish.

## **9-SEMINAR MAVZU:**

### **MATNNING GRAMMATIK STRUKTURASI, MATNNING FUNKSIONAL- SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH**

#### **Reja:**

1. A.Nurmonov xizmatlari
2. B.O'rinboev xizmatlari
3. M.Hakimov xizmatlari

4. M.Yoʻldoshev xizmatlari
5. S. Boymirzaeva kabi olimlarning xizmatlari

#### **10-SEMINAR MAVZU:**

### **MATNNING “KONSEPT”, “SENARIY”, “FREYM”, “SKRIPT”, “GESHTALT” KABI KOGNITOLOGIK HODISALAR BILAN MUNOSABATI.**

#### **Reja:**

1. “Konsept” tushunchasining mohiyati va uning matn tilshunosligi bilan aloqadorligi.
2. “Baxt va baxtsizlik”, “aql va aqlsizlik” konseptlarining oʻzbek matnlarida ifodalanish usullari.
3. “Konsept” tushunchasining mohiyati va uning matn tilshunosligi bilan aloqadorligi.
4. “Baxt va baxtsizlik”, “aql va aqlsizlik” konseptlarining oʻzbek matnlarida ifodalanish usullari.

### **MATN TILSHUNOSLIGI” FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI**

1. Ikki va undan ortiq gaplarning oʻzaro semantik va sintaktik jihatdan bogʻlanishidan tashkil topgan butunlikka ..... deyiladi.  
A) murakkab qoʻshma gap;  
V) murakkablashgan sodda gap;  
S) murakkab matn butunligi;  
D) murakkab sintaktik butunlik.
2. “Bogʻlanishli nutq” (“svyaznaya rehh”) tushunchasi ... bilan aloqador.  
A) gap;  
V) soʻz;  
S) matn;  
D) soʻz birikmasi.
3. Matnda ifodalanayotgan semantik munosabat quyidagi ikki turga boʻlinadi:  
A) semantik va bevosita;  
V) radikal va bevosita;  
S) sintaktik va semantik;  
D) radikal va sintaktik.
4. “Murakkab sostavli gaplarda maʼlum bir mazmun munosabati ifodalangani, ohangda tugallik boʻlgani uchun, bu xil gap qurilmalari oʻziga xos belgiga ega boʻlgan va ular .... deb nomlanadi” (Gʻ.Abdurahmonov).  
A) matn;  
V) sintaktik butunlik;  
S) murakkab sintaktik qurilma;

D) period.

5. Matn tarkibidagi grammatik jihatdan to'liq shakllangan nisbiy mustaqil gaplarning semantik jihatdan birikuvidan tashkil topgan sintaktik qurilmalarga ... deyiladi.

A) murakkab matn;

V) supersintaktik butunlik;

S) murakkab sintaktik qurilma;

D) murakkab period.

6. "Qo'shma gap ikki yoki undan ortiq nisbiy tugallangan (kommunikativ ma'noli) xabar parchalarini tashkil etuvchi gaplarning o'zaro ongli ravishdagi birikuv natijasini taqozo etar ekan, uning strukturasi matnga xos jiddiy belgilar mavjudligidan kelib chiqmog'imiz va buni e'tirof etmog'imiz lozim", - degan fikr muallifini aniqlang.

A. P.A.Lekant.

V. M.V.Lyapon.

S. A.A.Zalevskaya.

D. E.Kurilovich.

7. "Ichki bog'lanishli bo'lgan, muloqot maqsadida mazmunan o'zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi matndir", - degan ta'rif muallifi.....

A. R.Bart.

V. R.Xarveg.

S. M.Pfyutse.

D. M.Mayenova.

8. T. Van Deyk matn va uning o'ziga xos tabiatini .....ga bog'lab o'rgangan edi.

A) paradigmatika.

V) germeneytika.

S) pragmatika.

D) distributsiya.

9. Matnning tilning mazmuniy jihatdan tugallangan eng yuqori ideal kommunikativ birlik, deb tushungan olimi.....

A. K.Kojevnikova.

V. M.Mayenova.

S. E.A.Referovskaya.

D. T.M.Nikolaeva.

10. Matn funksional jihatdan tugallangan nutq birligi, degan ta'rif muallifini aniqlang.

A. V.P.Grigorev.

V. A.A.Leontev.

S. M.V.Lyapon.

D. E.A.Referovskaya.

11. "Qo'shma gapning ma'no strukturasi va matn" (1986) nomli asar muallifi.....

A. V.G.Gak.

V. M.V.Lyapon.

S. T.M.Nikolaeva.

D. E.A.Referovskaya.

12. “Chet el tilshunosligida yangiliklar” nomli ilmiy to‘planning USH-chiqishi “Matn lingvistikasi”ga katta so‘z boshi yozgan olimlar.....

A. M.Mayenova.

V. E.A.Referovskaya.

S. K.Kojevnikova.

D. T.M.Nikolaeva.

13. Matnga berilgan quyidagi ta’rif muallifi va asar nomini aniqlang: “Matn deb tugallangan, yozma ko‘rinishda voqelangan, sarlavha va turli leksik, grammatik, mantiqiy, uslubiy munosabatlar asosida bog‘dangan gapdan yuqori birliklardan tarkib topgan hamda ma’lum bir muloqot maqsadi, pragmatik rejaga ega bo‘lgan nutqiy ijod mahsuliga aytiladi”.

A. V.V.Odinov. stilistika teksta.

V. I.R.Galperin. Tekst kak ob’ekt lingvisticheskogo issledovaniya.

S. G.YA. Sintaksicheskaya stilistika.

D. E.A.Referovskaya. Kommunikativnaya struktura teksta.

14. Kontekstda so‘z dinamikasini she’riy matnlar tahlili asosida o‘rgangan o‘zbek olimi.....

A. M.Hakimov;

V. S.Meliev;

S. M.Yo‘ldoshev;

D. I.Qo‘Chqortoev.

15. “Matn sintaksisi” (2002) nomli asar mualliflari.....

A. M.Yo‘ldoshev, A.Mamajonov;

V. M.Abdupattoev, H.Usmonov;

S. A.Mamajonov, M.Abdupattoev;

D. H.Usmonov, M.Yo‘ldoshev.

16. “Baddiy matn va lisoniy tahlil” qo‘llanmasi (1995)ning muallifi.....

A. M.Hakimov;

V. M.Yo‘ldoshev;

S. M.To‘xsanov;

D. J.Lapasov.

17. “Maxsus matnning lingvistik talqini va chet tillarida muloqot qilishini fajllashtirish” mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman o‘tkazilgan Shahar va yil...

A. Toshkent, 1997.

V. Samarqand, 1998.

S. Samarqand, 2002.

D. Farg‘ona, 2000.

18. Vaqt ma’noli so‘zlar matni shakllantirish va uning yaxlitligini ta’minlashda temporal maydonning boshqa birliklari hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishini aniqlagan olimlar...

A. M.Qurbonova;

V. Sh.Iskandarova;

S. M.Hakimova;

D. R.Sayfullaeva.

19. Matnning modalligi va undagi temporal mazmun semantikasi tahliliga doir tadqiqotlar yaratgan olimlar...

A. M.Hakimova;

V. Sh.Shahobiddinova;

S. Sh.Iskandarova;

D. S.Boymirzaeva.

20. "Matn"ga yondoshuv" nomli maqola muallifi, nashr qilingan yili...

A. M.Yo'ldoshev, 2008;

V. D.Muhamedova, 2009;

S. YO.Tojiev, 2010;

D. H.Shamsiddinov, 2011.

21. Matnda qo'llaniladigan ortiqcha so'zlar nutqiy .... deb ataladi.

A. okkazionalizm;

V. konnotatsiya;

S. denotatsiya;

D. pleonazm.

22. "Qaysi kuni yig'lab ketdi bir mo'ysafid Chol" (A.Oripov). Keltirilgan matnda qanday lisoniy hodisa aks etgan.

A. leksik okkazionalizm;

V. semantik pleonazm;

S. nutqiy konnotatsiya;

D. sintaktik metaforizatsiya.

23. A.Martine ta'limotiga ko'ra, nutqda (matnda) til birliklari-ning sintaktik jihatdan fajllashadigan eng kichik birligi ..... deb ataladi.

A) monema;

V) morfema;

S) frazema;

D) sintaksema.

24. A.Martine nutqning eng kichik birligini quyidagi uch turga ajratgan edi:

A) tobe, okkazional, avtonom semema;

V) funksional, distributiv, tobe monema;

S) avtonom, okkazional, konnotativ leksema;

D) avtonom, funksional, tobe monema.

25. Matn orqali ifodalangan voqealarning tafakkurdagi idroki Shaklini aks ettiruvchi konseptning ssenariy tushunishini qoliplaSh-tirishda bajarilayotgan harakat ..... markaz vazifasini bajaradi.

A) predikativ;

V) ishoraviy;

S) strukturaviy;

D) paradigmatic.

26. InglizCha qo'lyozma, yozuv ma'nosini bildirgan namunaviy konseptual tuzilmaning nomi.....

A) ssenariy;

V) skript;

S) freym;

D) diskurs.

27. *Men bordim-ku. Siz nega bormadingiz?* Keltirilgan matnda *-ku* yuklamasi qanday vazifalarni bajarmoqda?

A. ta'kid va remaga urg'u berish;

V. qo'shimcha mazmun va semantik murojaat;

S. semantik pleonazm va ta'kid;

D. remaga urg'u berish va semantik murojaat.

28. "Matn har tomonlama mukammal holatga keltirilgan yozma nutq mahsulidir", - degan fikr muallifini toping.

A. K.Gauzenblaz;

V. P.A.Lekant;

S. I.R.Galperin;

D. M.V.Lyapon.

29. Matnni ham nutqiy faoliyat mahsuli, ham nutqiy faoliyat natijasi sifatida talqin etgan olim...

A. R.Xarveg;

V. K.Gauzenblaz;

S. A.Boguslavskiy;

D. I.R.Galperin.

30. Matn tarkibida qo'llaniladagin *birinchidan, ikkinchidan, xullas, demak* kabi so'zlar qanday vazifani bajaradi?

A) matn presuppozitsiyasi;

V) matn konnotatsiyasi;

S) matnning ishora belgilari;

D) matn bog'lovchilari.

31. "Hozirgi tilshunoslikda supersintaktik butunlik (SSB) mohiyati bilan matn mohiyati, ularga berilayotgan ta'riflar, izohlashlar bir xildek. Ularning tub farqi hajmdami yoki boshqa jihatlardami ekanligi ham aniq hal etilmagan", - degan fikr muallifini aniqlang.

A. M.Hakimov;

V. M.Yo'ldoshev;

S. M.Qurbonova;

D. YO.Tojiev.

32. "Nutq birliklarining pog'onali munosabati" (2008) nomli monografiya muallifi....

A.YO.Tojiev;

V.X.Xayrullaev;

S.M.Hakimov;

D.M.Yo'ldoshev.

33. Olmoshlarning har bir semantik turi matn tarkibida ishora qilishi yoki .... funksiyani bajaradi.

A) deyktik;

V) distributiv;

- S) ierarxik;  
D) perseptiv.
34. Inson nutqining matn sifatidagi asosiy xususiyatlaridan biri uning ..... ekanligidir.  
A) mazmunli;  
V) pog'onali;  
S) bog'lanishli;  
D) strukturali.
35. Matn sifatida reallaShgan bog'lanishli nutq komponentlarining o'zaro sintaktik munosabatlari .... qatorda voqelanadi.  
A) paradigmatic;  
V) syntagmatic;  
S) ierarxik;  
D) distributiv.
36. Matn tarkibidagi har bir Shakllanishning oxirgi natijasi .....ni taqozo etadi.  
A) signifikat;  
V) predikat;  
S) derivat;  
D) affrikat.
37. Matn tarkibida namoyon bo'ladigan andozali voqelik holatini aks ettiruvchi axborot strukturasi nomi....  
A) geshtalt;  
V) freym;  
S) skript;  
D) konsept.
38. Matnni o'rganishda geshtalt tushunchasini tilshunoslikka birinchilardan bo'lib tatbiq etgan olim.....  
A. M.Vertxaymer;  
V. K.Dunker;  
S. V.Keler;  
D. J.Lakoff.
39. "Matn va kommunikativ strategiya" nomli maqola (2011) muallifi....  
A. M.Qurbonova;  
V. S.Boymirzaeva;  
S. D.Muhamedova;  
D. D.Xudoyberganova.
40. Leksik takrorning matn tarkibida bajaradigan vazifasi....  
A) matn komponentlarini o'zaro ta'kidlash;  
V) matn komponentlarini o'zaro bog'lash;  
S) matn komponentlarini o'zaro kuchaytirish;  
D) matn komponentlarini o'zaro presuppozitsiyalash.
41. Olmoshlarning matn tarkibidagi vazifasi....  
A) matn komponentlarini o'zaro ta'kidlash;  
V) matn komponentlariga sintaktik faollik bag'ishlash;

S) matn komponentlarini o‘zaro bog‘lash;

D) matn komponentlarini o‘zaro presuppozitsiyalash.

42. Tilshunos uchun eng muhimi tafakkur birligi bo‘lgan konseptning tilda (aniqrog‘i, nutqda, matnda) aks etishini ta‘minlovchi strukturalar, harakatlar va qoidalarni aniqlashdan iboratdir”, - degan fikr muallifi va asar nomini aniqlang.

A. SH.Safarov. Pragmalingvistika;

V. M.Yo‘ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi;

S. SH.Safarov. Kognitiv tilshunoslik;

D. S.Boymirzaeva. Matn modalligi.

43. Matnda biror tipik hodisaga xos o‘zaro bog‘liq faktlarning ularning uzviyligini aks ettiruvchi namunaviy Shakl misolida yoritilishiga .... deyiladi.

A) ssenariy;

V) geshtalt;

S) freym;

D) skript.

44. “O‘zbek tilida periodlar” muammosini tadqiq etib, nomzodlik ishi himoya qilgan olim....

A. M.Hakimov;

V. G‘.Abdurahmonov;

S. A.Mamajonov;

D. A.Abdupattoev.

45. “Har bir SSB bu o‘z bog‘lanishi, rivoji va tugallanmasiga ega bo‘lgan miniatyura holidagi hikoya (matn)dir”, - degan fikr muallifi.....

A. L.M.Lyapon;

V. G.Ya.Solganik;

S. I.R.Galperin;

D. V.V.Odinov.

46. Matnda katta sintaktik strukturaning vujudga kelishi uchun poydevor (asos) vazifasini bajaruvchi semantik strukturaga .... deyiladi.

A) avtonom struktura;

V) tub struktura;

S) yaxlit struktura;

D) mavhum struktura.

47. Murakkab sintaktik qurilma ko‘rinishidagi matn teng yoki bog‘lanishli komponentlar munosabatining vaysi birini taqozo etishidan qat’iy nazar unda .....belgisi bo‘ladi.

A) ustokkazionallik;

V) ustparadigmatiklik;

S) ustdistributivlik;

D) ustpredikativlik.

48. “*Ne‘mat Aminov adabiyotda, hayotda vijdon qo‘ng‘irog‘ini chalib ketdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi...*” (O‘zAS, 14.07.2006). Keltirilgan matnda qanday tasviriy vosita qo‘llangan.

A) okkazonalizm;



V) oksyumaron;

S) metafora;

D) metonimiya.

49. Matn tarkibida tafakkur birligi sifatida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotgan hodisaga ....deyiladi.

A) ssenariy;

V) konsept;

S) skript;

D) freym.

50. Bilim olish va saqlash, uni amalda qo'llash va uzatish manbai, va nihoyat, uni shakllantiruvchi til tizimi hamda uning birligi bo'lgan matn ..... tahlil ob'ekti bo'la oladi.

A) perseptiv;

V) distributiv;

S) kommunikativ;

D) kognitiv.

51. "Matn va uning talqini" mavzuidagi xalqaro ilmiy anjuman o'tkazilgan Shahar va yilni aniqlang.

A. Toshkent, 1997;

V. Samarqand, 2002;

S. Samarqand, 2000;

D. Buxoro, 1999.

52. O'quvchi ongida matn qismlarining lokal mazmuni emas, balki .... mazmuni qayta tiklanadi.

A) funksional;

V) global;

S) radikal;

D) gradual.

53. "Har qanday matn ortida lisoniy tizimlarni egallagan muayyan shaxs turadi", - degan fikr muallifi....

A. Yu.N.Karaulov;

V.R.A.Budagov;

S. T.M.Nikolaeva;

D. G.Ya.Solganik.

54. Matnda til egasi so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish tilshunoslikda yangi ..... tilshunoslik sohasining Shakllanishiga olib keldi.

A) funksional-pragmatik;

V) kognitotsentrik;

S) antropotsentrik;

D) struktural-semantik.

**"Matn tilshunosligi" fanidan mustaqil ish  
mavzulari**

### **1. Matn lingvistikasi tilshunoslikning yangi sohasi sifatida.**

Tayanch iboralar: matn, matn turlari, lingvistika, uning matn bilan munosabati.

### **2. Matn lingvistikasining predmeti, maqsad va vazifalari.**

Tayanch iboralar: matn, matnni o'rganish usullari. Matn tilshunosligining qismlari va turlari.

### **3. Matn lingvistikasining boshqa fanlar bilan aloqasi va ular qatorida tutgan o'rni.**

Tayanch iboralar: matn tilshunosligi va adabiyotshunoslik, lingvopoetika, nutq madaniyati, stilistika, morfologiya, sintaksis.

### **4. Lingvostilistika, funksional stilistika va matn lingvistikasining o'zaro aloqadorligi.**

Tayanch iboralar: matn tilshunosligi va lingvostilistika, matn va funksional tahlil

### **5. Matn lingvistikasining asosiy yo'nalishlari.**

Tayanch iboralar: matn, matn turlari, matn tilshunosligining shakllanishi va asosiy muammolari, matn tilshunosligining tarkibiy qismlari, matn lingvistikasi va kommunikativ tilshunoslik, matn tilshunosligi va pragmatik tilshunoslik.

### **6. "Matn", "kontekst" tushunchasi va uning mohiyati.**

Tayanch iboralar: matn, "matn" atamasining turli xil ta'riflari, matn komponentlari, matn birliklari, mikromatn, makromatn, kontekst va uning turlari, vertikal kontekst.

### **7. Badiiy matn va uning o'ziga xos xususiyatlari.**

Tayanch iboralar: Badiiy matn, she'riy matn, nasriy matn, dramatik matn, badiiy matn va ekspressivlik, ta'sirchanlik, obrazlilik.

### **8. Matnning ontologik va gnoseologik xususiyatlari.**

Tayanch iboralar: matn, matn turlari, matn birliklari, matn va bilish nazariyasi, matn va uning ontologik qismlari, matn va onomasiologiya.

### **9. Matn stilistikasi va uning ko'rinishlari.**

Tayanch iboralar: matn, matn turlari, matn birliklari, matn va uning pragmatik xususiyati, matnda konnotativ ma'noning ifodalanish yo'llari, matn stilistikasi va uning asosiy turlari.

### **10. Matn va uning tarkibiy qismlari (komponentlari) haqida.**

Tayanch iboralar: matn, diskurs, abzats, sintaktik butunlik, sintaktik qurilma.

### **11. Matnning tovush sathidagi birliklari.**

Tayanch iboralar: matn va nutq tovushi, matn va fonema, matn va allofon, matn va urg'u, matn va intonatsiya.

### **12. Matnning lug'aviy sathdagi birliklari.**

Tayanch iboralar: matn va leksema, matn va frazeologizm, matn va so'z, matn va qo'shma so'z, matn va lug'aviy ma'no komponentlari.

### **13. Matnning morfologik sathdagi birliklari.**

Tayanch iboralar: matn va morfema, matn va so'zning morfologik shakli, matn va allomorf, matn va uning morfologik xususiyatlari (turlanish, tuslanish kabilar).

### **14. Gap matn birligi sifatida, uning ko'rinishlari.**

Tayanch iboralar: matn va gap, gap matnning eng kichik birligi sifatida, matn va sodda gap, matn va murkaabdashgan sodda gap, matn va qo'shma gap.

### **15. Tilning obrazli sistemasi va uning matn bilan munosabati.**

Tayanch iboralar: matn va uning konnotativ xususiyati, matn va pragmatik ma'no, matn va ekspressivlik, matnda obrazlilikning ifodalanish usullari.

### **16. Matn strukturasi va "struktura" tushunchasi haqida.**

Tayanch iboralar: Matn va uning strukturasi, "struktura" va uning turli xil izohlari, matn strukturasi va matn tushunishi.

### **17. Matnning yuza va chuqur strukturalari, ularning o'zaro munosabati.**

Tayanch iboralar: matn, matnda yuza struktura, matnda tub struktura.

### **18. Matn va uning kategoriyalari haqida tushuncha.**

Tayanch iboralar: matn, matnning asosiy xususiyatlari, matn birliklari, matn komponentlari, matn kategoriyalari, grammatik kategoriyalarning matnda ifodalanishi.

### **19. Matn kategoriyalarining ifoda plani.**

Tayanch iboralar: matn, matn kategoriyalari, matnda grammatik, semantik kategoriyalarning ifodalanish usullari.

### **20. Matn va uning temporal strukturasi haqida tushuncha.**

Tayanch iboralar: matn, matn strukturasi, matnda tub va yuza struktura, matnda temporal struktura.

### **21. Murakkab sintaktik qurilma va matn maqomi.**

Tayanch iboralar: matn, matn turlari, matn birliklari, matn kategoriyalari, murakkab sintaktik qurilma va uning mohiyati, murakkab sintaktik qurilma matn komponenti sifatida, murakkab sintaktik qurilma matn sifatida.

### **22. Matn komponentlarining semantik va sintaktik munosabatlari.**

Tayanch iboralar: matn, matn turlari, matn birliklari, matn kategoriyalari, matn komponentlari, matn komponentlarida semantik va sintaktik munosabatlarning ifodalanish usullari.

### **23. O'zbek tilshunosligida matn va uning pragmatik xususiyatlarini o'rganishga doir amalga oshirilgan tadqiqotlar.**

Tayanch iboralar: matn, matnning pragmatik xususiyati, matnda konnotativ ma'no ifodalanishi, M.Hakimov, M.Mamadaliyeva, S.Boymirzaeva tadqiqotlari.

### **24. Abzats va murakkab sintaktik butunlik matn birliklari sifatida.**

Tayanch iboralar: abzats, uning turlari, matn tarkibida abzats, murakkab sintaktik qurilma va abzats.

### **25. Matn va uning sintagmatikasi haqida tushuncha.**

Tayanch iboralar: matn, matn birliklari, matn komponentlari, matn sintagmatikasi, uning ko'rinishlari, matn pragmatikasi bilan munosabati.

### **26. O'zbek ilmiy matni birliklari – jumla, abzats va murakkab sintaktik butunlik o'rtasidagi sintagmatik munosabat haqida.**

Tayanch iboralar: ilmiy matn, uning o'ziga xos xususiyatlari, jumla, abzats va murakkab sintaktik qurilmaning ilmiy matndagi o'rni.

### **27. Matn hosil bo'lishida mazmuniy valentlik va mazmuniy semalarning bog'lanish imkoniyatlari.**

Tayanch iboralar: matn, matnning hosil bo'lish omillari, mazmuniy valentlik haqida, mazmuniy semalarning matnda bog'lanish usullari.

**28. Mantiq kategoriyalari va til kategoriyalarining umumiy hamda farqli belgilari.**

Tayanch iboralar: matn, matn kategoriyalari, til kategoriyalari, ularning o‘zaro aloqasi va farqli belgilari.

**29. An’anaviy mantiqda qo‘llaniladigan “sub’ekt” va “predikat” atamalaridan tilshunoslikda foydalanish mumkin emasligi haqidagi fikrlarga munosabat.**

Tayanch iboralar: matn, “matn sub’ekti” va “matn predikati” atamalarining mohiyati haqida.

**30. Matn tarkibida leksik takror va uning mohiyati.**

Tayanch iboralar: matn, matn tarkibida leksik takrorning o‘rni, leksik takrorning turlari va asosiy belgilari.

**31. Olmoshlar va ularning matn komponentlarini bog‘laShdagi ahamiyati.**

Tayanch iboralar: matn, olmoshlar matn komponenti sifatida, olmoshlar matn komponentlarini bog‘laShdagi o‘rni.

**32. Kirish so‘z va kirish birikmalarning bog‘lovchi vosita sifatida mikromatndagi ishtiroki.**

Tayanch iboralar: kirish so‘z va kirish birikma, ularning matn tarkibidagi o‘rni, mikromatnda kirish so‘zlarning ishtiroki.

**33. Matn komponentlarining semantik bog‘lanishi va uning sintaktik bog‘lanishga ta’siri.**

Tayanch iboralar: matn, matnning sintaktik bog‘lanishi, matnning semantik bog‘lanishi, ularning o‘zaro bog‘lanishi hamda farqli belgilari.

**34. Matnda “nutq zanjiri” tushunchasi va uning mohiyati.**

Tayanch iboralar: matn, matnda “nutq zanjiri” tushunchasi, nutq zanjirining ko‘rinishlari, matndagi o‘ziga xos belgilari.

**35. Matnda “tub struktura” tushunchasi va uning belgilari.**

